O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li**

# AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

**Monografiya**

**“BOOKMANY PRINT”**
**TOSHKENT – 2026**

**UO‘K: 378:001.89**
**KBK: 74.58я73**
**X 11**

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li.
Akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslari [Matn]: monografiya / Sh.Sh. Xudayberganov. – Toshkent: Bookmany print, 2026. – 128 b.

**Muallif:**
**Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li** – Urganch davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi professori v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**Taqrizchilar:**
**M.S.Salayeva** – UrDU “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi professori. Pedagogika fanlari doktori (DSc).
**E.I.Ruziyev** – Urganch davlat pedagogika instituti, “San’atshunoslik” kafedrasi professori. Pedagogika fanlari doktori.

Ushbu monografiya Urganch davlat pedagogika instituti ilmiy-texnik kengashining 2026-yil 28-martdagi № 3-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9910-271-01-4**

**© Xudayberganov Sh.Sh., 2026.**
**© “Bookmany print” nashriyoti, 2026.**

# KIRISH

**Monografiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy talablaridan biri - bu talabalarning mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish olib borish hamda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, akademik erkinlik muhitini yaratish va uni samarali tashkil etish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Akademik erkinlik – bu nafaqat ta’lim oluvchilar va professor-o‘qituvchilarning erkin fikr bildirish huquqi, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etish, yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda ilmiy izlanish natijalarini erkin muhokama qilish imkoniyatini ham anglatadi. Aynan shunday muhitda talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati rivojlanib, ularning kreativ va tanqidiy tafakkuri shakllanadi.

Jahon taraqqiyotida akademik ta’lim, ilm-fan, intellektual faollik, inson omili bilan bog‘liq ong, dunyoqarash, ma’naviy-axloqiy omillar ustuvor ahamiyat kasb etib borayotgani aksioma sifatida e’tirof etilmoqda. BMTning 2019-yil 25-noyabrda qabul qilgan oliy ta’lim haqidagi Global konvensiyasida davlatlarni oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish uchun “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishga, UNESCO tomonidan 2022-yil 18-20-mayda Ispaniyada o‘tkazilgan Butunjahon konferensiyasida esa “Oliy ta’limning zamonaviy taraqqiyotdagi o‘rnini qayta baholash”, akademik an’analar boshqa ta’limlarga ochiq bo‘lishi zarurligi alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, oliy ta’limga inklyuzivlik, tenglik va rang-baranglik, akademik erkinlik va barcha qiziquvchi tomonlarning qatnashishi, tanqidiy fikrlash va kreativlik, poklik va etika, barqaror rivojlanishga xayrixohlik va akademik mas’ullik, raqobat o‘rniga hamkorlik tamoyillarini tatbiq etish tavsiya qilingan[1].

Dunyoning yirik ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlari akademik erkinlik va moliyaviy mustaqillik masalalarini insonning bilim olishga, ijod bilan shug‘ullanishga oid huquqi ifodasi, hurfikrlik,

[1] Qarang: www.skillbox.ru

ta’limdagi rang-baranglik, kreativlik kabilar bilan bog‘lab o‘rganishadi. Bugun ta’lim sohasida paradigmal o‘zgarishlar sodir bo‘lyapti, OTM faqat nazariy bilimlar va qarashlarni shakllantirmaydi, shu bilan birga, u insonda biznes va tadbirkorlik, ilmiy g‘oyalarini tijoratlashtirish ko‘nikmalarini, ilmiy va innovatsion ishlanmalari bilan ta’lim va tarbiya rivojlanishiga hissa qo‘shadigan mutaxassisni tayyorlamoqda. AQSh, Yevropa va Osiyodagi ilg‘or OTMlar tajribalari global ta’lim muhitini shakllantirmoqda. Ilm-fan yutuqlari orqali ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashga intilayotgan davlatlar ushbu ta’lim talablarini, modellarini o‘ziga tatbiq etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim strategik hujjatlar sifatida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda uning mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi, shuningdek oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur fundamental ahamiyatga ega hujjatlarda OTMlarni jahon standartlariga muvofiq modernizatsiyalash, ilg‘or xorijiy universitetlarning filiallarini ochish (ularning soni 200ga yaqin), akademik erkinlik va moliyaviy mustaqillikni ta’minlash maqsadida pedagogik, tashkiliy-huquqiy tajriba-sinovlar o‘tkazish, chet el modellarini joriy etish bilan birga, tarixiy-tarbiyaviy tajribalarni qayta tiklash, o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini yoshlarga singdirish kabi vazifalar belgilangan. Insonning sifatli ta’lim olish huquqlarini ta’minlash hamda uning malakali mutaxassis sifatida shakllanishiga ko‘maklashish Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu holat zamonaviy strategik hujjatlar va islohotlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Yangi O‘zbekistonda oliy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” hamda PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyoti davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5172-son “Respublika oliy ta’lim

muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” hamda PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash, akademik erkinlik va institutsional mustaqillikni ta’minlash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish masalalari so‘nggi yillarda pedagogik va ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Mamlakatimizda oliy ta’limni tashkil etish va uni modernizatsiyalash, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, OTMlarda akademik erkinlik va moliyaviy mustaqillikni ta’minlash, talaba yoshlarning ma’naviy-axloqiy fazilatlari va kasbiy faoliyatga qiziqishlarini yuksaltirish, ijtimoiy, madaniy va ilmiy faolligini oshirish, o‘qituvchi-professorlarning zamonaviy pedtexnologiyalar va axborot vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish, rektor, prorektor, dekan va kafedra mudirlarining professionalizmi masalalarining ayrim jihatlari yetakchi pedagog-olimlarimiz R.Sh.Axlidinov, G.N.Axunova[94], A.Abduqodirov[15], A.Sh.Bekmuradov, S.S.Gulamov[27], M.A.Ikramov, N.K.Yo‘ldoshev[40], Sh.N.Zaynutdinov, R.Z.Asamova[18], O.Musurmonova, M.T.Mirsoliyeva, M.M.Vaxobov[23], L.V.Peregudov, M.X.Saidov, A.N.Samadov, M.X.Maxmudov[55], R.Safarova[78], B.B.Ma’murov[57], Sh.D.Ergashxodjayeva, Z.Nishonova[63], Sh.Qurbonov[52], T.Sh.Shodiyev, T.I.Ismoilov[98] kabilar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu olimlar tadqiqotlarida ta’lim-tarbiyaning ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, o‘zbek xalqining tarixiy-tarbiyaviy tajribalari bilan bog‘liq etnopedagogik jihatlari tadqiq etiladi. Ularda chiqarilgan xulosalar va fundamental g‘oyalar bizning izlanishimiz uchun metodologik dasturilamaldir.

Mustaqil davlatlar hamdo‘sligi (MDH)da Oliy ta’lim bilan bog‘liq muammolarni ko‘pgina olimlar tadqiq etishgan. Ular S.Abishova (Qozog‘iston), R.Amretdinova (Qirg‘izston), R.N.Abramov, O.I.Bichkova, S.M.Vasin, L.Verbiskaya, E.V.Galajinskiy, A.O.Grudzinskiy, P.Yu.Grishina, N.V.Demidova[31], V.Zuyev[37], Ye.Jilsov, V.Kasevich, R.Kolosova, V.Chekmarov (Rossiya) kabilardir. Ushbu olimlarning izlanishlari va asarlarida oliy ta’limning funksional xususiyatlari, jamiyat bilan aloqalari, chet ellar va amaliyot bilan integratsiyalashuvi, kadrlar tayyorlashdagi innovatsion yondashuvlar, akademik erkinlik g‘oyasining tarixi va hozirgi holati kabi muammolar ochib berilgan. Ularda ilgari surilgan, istiqbolga yo‘naltirilgan fikrlar, xulosalar biz uchun ham e’tiborlidir.

Xorijiy malakatlardan, ayniqsa AQSh, Buyuk Britaniya kabi Yevropa davlatlarida oliy ta’limda o‘qitish samaradrligini oshirish, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ko‘rinishlarini tahlil qilish, universitetlarni boshqarish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ta’lim va amaliyot integratsiyasini ta’minlash, akademik erkinlik va moliyaviy mustaqillikni yo‘lga qo‘yish, OTMlarni faoliyatini davlat aralashuvidan holi qilish muammolarini J.Alden, R.Barnett[113], R.Birnbaum[114], I.Bashe, S.Marginson, M.Krou[50], L.Xorster, R.G.Kielmansegg, M.Xenkel kabilar tadqiq etishgan. Ularda asosiy e’tibor universitetlardagi akademik erkinlikning demokratik xarakteriga, funksiyalari va normativ asoslariga, moliyaviy mustaqillikning ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishga, kadrlarda kreativ tafakkur va ilmiy faollikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlariga qaratiladi.

# I BOB. TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.

## 1.1. Akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda tadqiqot predmetini aniqlash orqali muammoning kelib chiqish manbalari (genezisi), zamonaviy ilmiy qarashlar tizimidagi o‘rni, shuningdek, uning inson tafakkuri va dunyoqarashiga ko‘rsatadigan ta’sirini ochib berish ustuvor metodologik an’ana sifatida qaraladi. Tadqiqot predmeti faqatgina tashqi obyekt yoki uning alohida bir qismi bilan chegaralanmaydi. Aksincha, u muammoning mohiyatini, uning qaysi jarayonlar yoki tashqi obyektlar bilan uzviy bog‘liqligini, shuningdek, tadqiqotchining ilmiy izlanishlaridagi asosiy e’tibor qaysi jihatlarga qaratilishi lozimligini ifodalovchi hodisa, voqelik yoki ijtimoiy muhitni o‘z ichiga oladi.

Shu bois tadqiqot jarayonida predmetni aniq belgilab olish, uning muhim sifat va belgilarini tahlil qilish hamda istiqbolda mazkur predmetning qanday shakl va modelda namoyon bo‘lishini nazariy-gipotezik jihatdan tasavvur etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot predmeti aniqligi ilmiy bilish jarayonining izchilligi va mantiqiyligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bu borada fransuz faylasufi R.Dekartning quyidagi fikri metodologik ahamiyatga ega: *“Bilish jarayonida, - deb yozadi u, - biz aniq va ravshan idrok eta oladigan yoki ishonchli tarzda yetishish mumkin bo‘lgan hodisalarni belgilab olishimiz zarur. Aks holda, bilish jarayoni samarali bo‘lishi mumkin emas.”*[1]. Demak, akademik erkinlik, avvalo, bilish, ayniqsa, ilmiy bilish bilan bog‘liqdir. Akademik erkinlikning ilmiy ahamiyati va qimmati ham shunda hisoblanadi.

Akademik erkinlik muammolari bilan shug‘ullangan ko‘plab mutaxassislarning fikricha, akademik erkinlik (mustaqillik) g‘oyasi nemis faylasufi, lingvingstika asoschisi K.V.fon Gumboldt (1767-1835) tomonidan ilgari surilgan. Unga I.Kant, I.G.Fixte,

[1] Деакрт Р. Сочинения в двух томах. Том 1. -Москва: Мысль, 1989. С. 659.

K.K.Yakoblarning pedagogik, falsafiy va lingvistik qarashlari ta'sir etgan. Gumboldt 1809-yili Berlinda universitet tashkil qilgan. Uning universitetdagi o'quv jarayonlarini ilm-fan bilan bog'lash, ijtimoiy-pedagogik izlanishlarni keng, "ochiq" qilish fikrlari keyinchalik ma'lum bir pedagogik qarashlar sifatida nemis olimlari tomondan davom ettirilgan[1]. XVIII asrgacha ta'lim cherkov va diniy dogmatika ta'sirida bo'lgan. Gumboldt oliy ta'limni ushbu ta'sirdan erkin, holi qilishga, shu tarzda universitet mustaqilligini ta'minlashga intiladi. Bu o'rinda uning Ma'rifatchilik davrining da'vatlariga, fransuz revolyutsiyasining tenglik, ozodlik va birodarlik g'oyalariga ergashgani ham ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, ma'rifatparvarlik davrining inson erki, bilim va ma'rifatning roli, dogmatik qarashlardan va ustanovkalardan holi, ta'lim va tarbiyadagi standartlar o'rniga tarbiyalanuvchi shaxslarning qiziqish va intilishlariga muvofiq keladigan, ularda ilm-fanga qiziqish uyg'otadigan ta'lim tizimini yaratish borasidagi qarashlar muhim rol o'ynagan[2]. I.Kantning mavjudotlar ichida faqat inson tarbiyaga muhtoj[3], "ma'rifatli fikr" erkinlikni, erkin harakatni yoqtiradi, degan konseptual g'oyalari Gumboldt ilmiy-pedagogik tajribasida o'z ifodasini topadi. Gumboldt ta'limotiga ko'ra, universitet ta'limi dunyoviy, u diniy ta'limdan farq qiladi. Universitetet ta'limini dindan, ayniqsa, cherkov ta'siridan holi, mustaqil qilish akademik erkinlik g'oyasining negizidir. Mazkur ta'rif muammoga oid barcha asarlarda u yoki bu ko'rinishda takrorlanadi, e'tirof etiladi. Shu bilan birga, uning ilmiy konseptual asoslari, insonning erkin fikrlashga undovchi sotsiopsixologik va antropo-pedagogik omillar o'rganilishi zarur. Aynan ushbu omillarning ilmiy tadqiqot obyektlari bo'lmagani, ular haqida zarur ilmiy qarashlarning shakllanmagani uchun akademik erkinlik (mustaqillik) amaliyotda ham, nazariyada ham o'z o'rnini topmadi. Rivojlangan Yevropa davlatlarida, zamonaviy onlayn ta'lim tizimlari keng joriy etilgan ilg'or universitetlarda akademik erkinlik

---

[1] Гумбольдт фон К.В. О внутренней и внешней организации высших научних заведений в Берлине // «Неприкосновенний запас". 2002, №2. С.32 -34

[2] Гуревич П., Филатов О. Философия и история образования. От античности до эпохи Просвещения. 2- е изд.- Москва: Юрайт, 2017. С.  Елишев С.О. Эпоха просвещения и ее идеология: начало эры социального манипулирования // Вестник Московского университета. 2022, №28 (4). С. 116-145.

[3] Кант И. О педагогике. Собрание сочинения в восьми томах. Том 8.- Москва: Мысль, 1994. С. 720.

kadrlar, ayniqsa, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar, olimlar tayyorlashning samarali vositasi sifatida qaraladi. Nodavlat universitetlar o'zining akademik erkinligini himoya qilish, professor o'qituvchilarga mustaqil izlanishlar olib borish uchun shart-sharoitlar yaratib berishni faoliyatining asosiy tamoyiliga aylantirgan.

Jamiyat taraqqiyotining ilm-fan, texnologik izlanishlar bilan bog'liq ekanligini gnoseologik ehtiyoj sifatida anglanilishi-omili sotsiumning strategik maqsadidan kelib chiqadi. Sotsium rivojlanish yo'llarini ilg'or modellardan izlaydi, o'zining ichki resurslari va ehtiyojlarini ana shu modellarga muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratadi. Ichki resurslar va ehtiyojlarning tanlangan modellarga muvofiqlashtirish, avvalo, ijtimoiy, pedagogik-psixologik muammo sifatida keladi(1.1.1-rasm).

**Akademik erkinlikning ijtimoiy, pedagogik-psixologik omillari:**

**Jamiyat taraqqiyotining ilm-fan, texnologik izlanishlar bilan bog'liqligini gnoseologik ehtiyoj sifatida anglanilishi;**

**Davlatning amaliy faoliyatini oliy ta'limni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirishni ob'yektiv zaruriyat sifatida qabul qilinishi;**

**Oliy ta'limga bo'lgan qiziqishni yoshlarning ma'naviy ehtiyojiga aylantirish;**

**Akademik erkinlikni umumta'limni qo'llab-quvvatlash strategiyasiga muvofiqlashtirish;**

**Akademik erkinlikni demokratik ta'lim va erkin shaxsni shakllantirish konsepsiyasiga yo'naltirish;**

**Akademik erkinlik va shaxs erkinligi negizidagi ijtimoiy, pedagogik-psixologik maqsadlar, qiziqishlar va motivlarni muvofiqlashtirish.**

**1.1.1-rasm. Akademik erkinlikning ijtimoiy, pedagogik-psixologik omillari**

Masalan, Yangi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini ilg‘or davlatlardagi ta’lim modellarini o‘zlashtirish, joriy etish uchun ulardagi universitetlarning filiallarini ochmoqda. Mazkur filiallar milliy oliy ta’lim tizimida shakllangan subyekt (o‘qituvchi, ustoz) va obyekt (talaba, o‘quvchi) tizimidan keskin farq qiladi.

Ularda ta’lim talabani erkin fikrlashga, mustaqil ilmiy izlanishga o‘rgatishga qaratilgan. Dars paytida talaba kofe, choy, cola ichib o‘tirishi, biror hojati bo‘lsa, darsdan chiqib kelishi, qiziqarli bo‘lmasa, boshqa darslarga qatnashi mumkin. Mavjud milliy oliy ta’lim bu tartibni qabul qilolmaydi, natijada ustoz bilan talaba o‘rtasida ***antipatiya*** paydo bo‘ladi. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universitetini bitirgan, dunyo reyatingida TOP 500 talik universitetlar qatoridan joy olgan Pusan Milliy Universiteti (Janubiy Koreya) universiteti magistranti J.Saydalievning keltirishicha, bu o‘quv dargohlarda “talabaga to‘la erkinlik” berilgan. Ya’ni u har qanday ko‘rinishdagi tadbir, yig‘ilishlar va nazorat qilinishidan mutlaqo ozod qilingan. Ortiqcha bosim hamda yuklama ham mavjud emas. Turli davlatlardan kelgan xalqaro talabalar hech qanday rasmiy ust-boshlarsiz o‘ziga qulay holatda darslarda qatnashadi”. Ochig‘ini aytaman, O‘zbekistonda dars qoldirgan, bo‘yinbog‘i taqmagan talaba gap eshitib, tushuntirish xati yozadi, formasi yo‘qligi uchun darsga qo‘yilmaydi... Talabalar o‘zlariga kerakli, qiziqqan fanlarni tanlashadi hamda shu fanlardan ro‘yxatga yozilishadi. Hech bir mas’ul shaxslar bu jarayonga aralashmaydi va hech kimga “shu fanni o‘qishing kerak yoki o‘qiysan” qabilida munosabatda bo‘linmaydi. Ta’lim mutloq erkinlik tamoyili bo‘yicha tashkil qilinadi. Talabalar xohlasa 1 ta, xohlasa 5 tagacha fan tanlab o‘qishi mumkin”[1]. Talabaning gnoseologik ehtiyoji ilg‘or universitetlarda dars jarayonlarini tashkil etishning asosiy qoidasi hisoblanadi. Talaba qanday fanlarga qiziqadi, qaysi fan asoslari uning kelgusi hayotida ko‘proq kerak bo‘ladi, bunday savollarga uning o‘zi javob topishi lozim. Ammo ushbu qoidada bir muhim xato mavjud. Ma’lumki, gnoseologik ehtiyoj ma’lum bir asosda, hayotiy tajribaga muvofiq shakllanadi. Talabada bunday asos, hayotiy tajriba yetarli bo‘lavermaydi, u o‘zining impulsiv, hatto g‘ayrihayotiy tasavvurlariga ergashib ketishi mumkin.

[1] “Ta’lim o‘rinsiz tajribalarni xushlamaydi” // “O‘zbekistonda oliy ta’lim”, 2022, №4. 64- 65 b.

Ta'limdagi "to'la erkinlik" g'oyasi g'arb indvidualizmining davomidir. 16 yoshdan u o'z xatti-harakatlari uchun shaxsan javob beradigan fuqaroga aylanadi, biroq bu hali talabaning qanday qilganda, nimalarni o'rganganda va qanday fundemental tartiblarga, hayotiy tajribaga tayanganida o'zi, kelajagi uchun zarur kasb-korni egallashi mumkinligini belgilab bermaydi. Aynan ushbu savollarga javob topishda unga ota-onasining, yaqinlarining, tajribali shaxsning maslahatlari zarurdir. "To'la erkinlik" gnoseologik qiziqishlarning antipodi bo'lishi mumkinligini esdan chiqarmaslik kerak. Akademik erkinlik "to'la erkinlik" yoki I.Kant va Gegel nazarda tutgan "mutloq erkinlik" emas, u bilim olish sohasidagi erkinlikdir. Sharq pedagogikasi va ta'lim-tarbiya nazariyasi insonga har doim tarbiyaga, pand-nasihatga muhtoj obyekt sifatida qaraydi, u hayotining so'nggi damlarigacha tarbiyalanishi mumkin. Uning gnoseologik qiziqishi yoki ehtiyoji butun umri davomida o'zgarib, transformatsiyaga uchrab turishi, shakllanishda davom etishi mumkin. Sotsiumdagi ijtimoiy-tarbiyaviy institutlar, ta'lim tizimi obyektdagi gnoseologik ehtiyojlarni, qiziqishlarni, avvalo, uning ma'naviy kamoloti bilan bog'lashi, keyin esa jamiyat taraqqiyoti muammolari bilan uyg'unlashtirish mexanizmlariga ega bo'lishi zarur. Talabalarda ushbu gnoseologik ehtiyojlar, qiziqishlar goho betartib, anglanmagan, goho esa irratsional, xissiy-psixologik omillar ta'sirida paydo bo'lishi mumkinligini unutish mumkin emas.

Davlatning oliy ta'limni qo'llab-quvvatlashini obyektiv zarurat sifatida anglash omili akademik erkinlik uchun muhimdir. Akademik erkinlik universitetga, tadqiqot markazlariga ijodiy izlanishlarda erkinlik beradi, ulardagi hurfikrlikni qo'llab-quvvatlaydi, ularni tashqi, rasmiy tazyiqlardan holi qiladi. Mazkur omil ijodiy izlanishlarni zavqli, samarali va betakror qiladi, insonga demokratik huquqlarni ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Bu fikrni respondentlarimizning javoblari va ularning akademik erkinlikka munosabatlari ham tasdiqlaydi. To'g'ri, ular ilmiy va innovatsion izlanishlarni ixstisoslashtirish, institutlashtirish (maxsus bo'limlar, tashkilotlar olib borsin degan) tarafdorlari bo'lsa-da, akademik erkinlikni ijobiy voqelik, inson va

jamiyat taraqqiyoti uchun zarur ma'rifiy va tarbiyaviy vosita sifatida e'tirof etadilar[1].

Akademik erkinlik ta'lim, ijod va ilm-fandagi demokratiyadir. Biroq bu erkinlikni suiiste'mol qilish mumkin emas. U davlat homiyligida, uning qo'llab-quvvatlashi ta'sirida shakllanishi, ta'lim tizimidan joy olishi mumkin. "Oliy ta'lim muassasasining, o'zlari davlat moliyalashiga kamroq muhtoj bo'layotganlari, ko'proq xususiy ishlari va texnologik ishlanmalari evaziga mablag' topishlari tufayli muxtoj bo'lishga intilishlari davlat tomondan oshirib borilayotgan nazorat bilan muvozanatlanmoqda. Oliy ta'lim muassasasi faoliyati ustidan muntazam nazorat tartibi barpo etilmoqda. AQShda, masalan, turli akkreditatsiya agentliklarining (kasbiy yoki hududiy) ishi rag'batlantirlmoqda. Fransiyada esa oliy ta'limni baholash bo'yicha maxsus milliy qo'mita tuzilgan"[2]. AQSh va Yevropadagi universitetlar o'zining akademik erkinligini davlat bilan ijodiy hamkorlik, uning buyurtmalarini bajarish yoki davlat uchun zarur kadrlarni tayyorlab berish orqali ta'minlab, himoya qilib keladi. Demokratik taraqqiyotni maqsad qilib qo'ygan yosh O'zbekiston davlati bu omilni unuta olmaydi. Davlatning boshqaruv va tashkilotchilik funksiyasi butun ta'lim tizimiga, shu jumladan, oliy ta'limga ham taalluqlidir. Mutaxassislarning ta'kidlshicha, "davlat boshqaruvining mohiyati to'g'risida, g'oyalar, tushunchalar, mulohazalar, uni madaniy tarzda amalga oshirish tamoyillari, shakllari va usullar haqida tizim mavjud. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy muvaffaqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko'ra boshqaruv faolyatining ilmga talabi ham to'xtovsiz o'sib boradi. Bir tomondan, fan boshqaruv faoliyatini konseptual boyitishdan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan, amaliyotchi boshqaruvchilar o'z faoliyatini ilmiy idrok etish, uni nazariy asoslashga intiladilar.... Boshqaruv ko'p jihatdan pedagogik faoliyatdan iborat bo'ladi. Rahbar bajaruvchilarga qat'iyat bilan o'z g'oyasini o'tkazadi va bularni amalga oshirishni o'rgatadi.". Davlatning ta'limni boshqarishdagi funksiyasi faqat moliyalashtirishni tashkil etishdan iborat emas, u pedagog-tashkilotchi, pedagog-menejer, pedagog-yo'naltiruvchi va pedagog-regulyator hamdir. Davlatning

---

[1] Qarang: 1-ilova.

[2] Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Олий таълим менежменти вап иқтисодиёти.-Тошкент: Молия, 2002. 149 б

ushbu pedagogik funksiyasini to‘g‘ri anglamaslik akademik erkinlikni mutlaqlashtirishga, hatto universitet jamoasini unga qarshi qo‘yishga olib kelishi mumkin. Oliy ta’limni qo‘llab-quvvatlash nafaqat davlatning, xuddi shuningdek, birinchisining ikkinchisiga xizmat qilishi, ular mudom ijodiy koordinatsion aloqada bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Sotsium bilan koordinatsion aloqalar universitetni nafaqat empirik materiallar bilan, shuningdek, nazariy bilimlar, qarashlar va zamonaviy g‘oyalar bilan boyitadi[49]. Tadqiqotchi L.Starkovaning ta’kidlashicha, pedagogika tarixi va ta’lim falsafasining bir-biriga yaqinlashuvi, ularning jamiyat taraqqiyotiga uyg‘un ta’siri o‘zidan o‘zi ro‘y bermagan, bu o‘rinda nafaqat din, shuningdek, siyosiy tuzum, davlat va sotsium, tashkilotlarning o‘rni benihoya katta bo‘lgan. Jamiyatni taraqqiy ettirish, yangi bosqichga ko‘tarish va siyosiy ongni rivojlantirish ana shu uyg‘unlik mahsuli bo‘lib kelgan[1]. Demak, oliy ta’lim, universitetdagi hurfikrlik, erkin ijodiy izlanish bugun davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun obyektiv ehtiyojga aylangan.

Ta’lim taraqqiyoti insoniyat sivilizatsiyasining umumiy rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, pedagogika tarixi va ta’lim falsafasi ushbu jarayonni yaxlit ilmiy-nazariy tizim sifatida tahlil etishga xizmat qiladi. Pedagogika tarixi ta’lim va tarbiya g‘oyalarining shakllanishi, rivojlanishi hamda jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda takomillashib borishini o‘rganadi. Bu jarayonda ta’lim har doim ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi va muayyan tarixiy davrning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda falsafiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

Ta’lim falsafasi esa ta’limning mohiyati, maqsadi, mazmuni va inson rivojidagi o‘rnini nazariy-metodologik jihatdan asoslashga qaratilgan. U ta’limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsni shakllantirish, uning ijtimoiylashuvi va ma’naviy kamolotini ta’minlovchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etadi. Shu jihatdan pedagogika tarixi va ta’lim falsafasi bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy yo‘nalishlar bo‘lib, ularning integratsiyasi ta’lim jarayonini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Pedagogik g‘oyalar tarixini o‘rganish zamonaviy ta’lim muammolarini tushunish va ularni hal etishda muhim metodologik

---

[1] Старикова Л. История педагогки и философия образованния. Учебник. 3 е изд. — Москва: Юрайт, 2018. С 5-8

ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi ta’lim tizimidagi ko‘plab muammolar o‘z ildiziga ega bo‘lib, ular avvalgi davrlardagi falsafiy-pedagogik qarashlar bilan bevosita bog‘liqdir. Tarixiy tajribani inkor etish yoki unga befarq munosabatda bo‘lish ta’lim islohotlarining yuzaki va beqaror bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, ta’lim falsafasi pedagogik faoliyatning qadriyatli asoslarini belgilaydi. Unda inson, bilim, tarbiya, erkinlik, mas’uliyat kabi kategoriyalar markaziy o‘rin egallaydi. Bu tushunchalar orqali ta’limning gumanistik yo‘nalishi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvi va uning ijtimoiy mas’uliyati ochib beriladi. Natijada ta’lim nafaqat bilimlarni uzatish mexanizmi, balki madaniy merosni avloddan avlodga yetkazish vositasi sifatida qaraladi.

Navbatdagi ijtimoiy-pedagogik omil yoshlarning oliy ta’limga bo‘lgan ehtiyojlari bilan bog‘liqdir. Aynan yoshlarning ijodiy izlanishlarga qiziqishi, ilm- fan yangliklarini egallashdagi shijoati, beoromligi, tinib-tinchimasligi ta’lim tizimini alohida sohaga aylantirgan. Oliy ta’lim kasb-korga tayyorlanishning yuqori pog‘onasi, kasb-korga oid bilimlarni to‘la egallash imkoniyatidir. Bu intilish yana, doktorantura va o‘z ustida ishlash pog‘onalarida davom etadi, biroq aynan universitet yoshlarni ilm-fanga, undagi sirlarni anglashga, o‘z iqtidoriga va qiziqishiga muvofiq keladigan yangi nazariyalar, ta’limotlar va ixtirolar qilishga yo‘l ochib beradi. Ilmiy yangiliklar va ixtirolarni universitetlarni tugatmay ham amalga oshirish mumkin, biroq universitet shunday kashfiyotlarga erishishning eng qisqa, samarali yo‘lidir. Jamiyat intellektuallashgan sari universitet va ilm-fanga bo‘lgan qiziqish oshadi, ular yoshlarning ma’naviy ehtiyojiga aylanadi. Ayniqsa universitetdagi ijodiy muhit, erkinlik, bir-birlari bilan erkin fikr va tajriba almashish yoshlarni o‘ziga jalb etmay qolmaydi. Akademik erkinlik yoshlarning ilm-fanni egallashga bo‘lgan ma’naviy ehtiyoji bilan uyg‘unlashib keladigan jarayon bo‘lgani uchun ham universitetni “intellektual izlanishlar markazi” (P.Gurevich)ga aylantiradi. Universitetdagi ijodiy muhit, hurfikrlik yoshlarning “ekzistensial ehtiyoji” (A.Maslou) ga muvofiq kelishi bilan ajralib turadi, agar ular o‘rtasida ziddiyat yoki nomuvofiqlik paydo bo‘lsa, talaba darslarni erkin tanlash yoki akademik ta’til olib, o‘quv jarayoniga mustaqil tayyorgarlik ko‘rish huquqiga ega. Bu borada hech qanday, bizdagidek, sun’iy to‘siq uchramaydi, akademik ta’til

akademik erkinlikning tarkibiy qismidir[1]. Shu bilan birga, ko‘pgina G‘arb davlatlarda oliy ta’limga yoshlar ma’naviy ehtiyoji pasayishi kuzatilmoqda. Mutaxassislarning fikricha, “Yevropa ko‘pchilik davlatlarida keyingi qator yillarda oliy ta’limga qiziqishda, natijada uni moliyalashda, nisbatan ba’zi joylarda pasayish yuz berdi. Bu Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi ba’zi yoshlarning ma’naviy ehtiyojlari va umumiy iqtisodiy pasayish bilan bog‘liq. Jahonning yirik universitetlari faqat ijtimoiy sohada emas, balki o‘z professorlarini xizmat safariga yuborish, chetdan taklif qilishda tejamkorlik qilishmoqdalar. Masalan, Germaniyaning faxri bo‘lmish Geyodelberg universiteti barcha o‘quv ilmiy laboratoriyalarida har bir laborotoriya universitetga qancha mablag‘ keltirishini muntazam tahlil etib boradi, o‘zini oqlamagan laborotoriyalar yopiladi”. Mazkur muammoni yoshlar ma’naviy ehtiyojlarining va mablag‘lar tushumining keskin kamayib ketgani sababli G‘arb o‘z standartlarini jahonga tarqatish, ularni milliy oliy ta’lim tizimlariga zo‘rlab singdirish, joriy etish va shu tariqa boshqa, ayniqsa yosh, rivojlanayotgan davlatlardagi yoshlarni o‘ziga jalb etish taktikasini qo‘llamoqda. Bir paytlari Germaniya aholisining keskin kamayib borayotganini qoplash uchun turkiyaliklarni o‘ziga jalb etgan, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib bergan. Ushbu taktika hozir oliy ta’lim tizimida takrorlanmoqda. G‘arb siyosiy o‘yinlaridan bexabar ayrim milliy ta’lim tizimlari tinmay g‘arb oliy ta’lim andozalarini ulug‘lab, o‘ziga ko‘r-ko‘rona tatbiq etmoqda.

Har bir davlat o‘zining umumta’lim strategiyasiga ega. Bu strategiya pedagogik omil tarzida butun ta’lim tizimlariga ta’sir etadi. Hatto nodavlat oliy ta’lim muassasalari va ulardagi akademik erkinlik ham ushbu strategiyadan kelib chiqadi, aks holda davlat ta’lim tizimi va siyosatining ustuvorligiga putur yetadi. Akademik erkinlik davlatning umumta’lim strategiyasi va siyosatiga zid bo‘lishi mumkin emas. Universitetdagi ta’lim jarayonlarining immanent xususiyatlari davlat tomonidan shakllantirilgan umumta’lim tizimi uchun belgilangan gumanizm, demokratizm, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, tarbiyada differensial yondashuv va axloqiy qadriyatlarga, milliy pedagogik tajribalarga tayanish, umuminsoniy madaniy

[1] “O‘zbekistonda oliy ta’lim”, 2022, ;№4. 62 b.

boyliklarni o‘zlashtirish kabi tamoyillarga zid bo‘lolmaydi. Ushbu talab o‘z navbatida akademik erkinlikni umumdemokratik talablar va erkin shaxsni tarbiyalash konsepsiyasiga ham taalluqlidir. Jamiyat belgilab olgan demokratik qadriyatlar va tamoyillar o‘z navbatida ta’lim tizimida ham o‘z ifodasini topishi kerak. Akademik erkinlik siyosiy erkinlik, akademik demokratiya esa siyosiy demokratiya o‘rniga da’vorgarlik qilmasligi zarur deb hisoblaymiz.

Siyosiy voqelikning hokimiyat, davlat va jamiyatni boshqarish, mulkka egalik qilish, kishilar ustida hukm chiqarish, ularni majburlash, huquqiy regulyatsiya qilish kabi jihatlar ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Ularni takrorlab o‘tirishga hojat yo‘q. Bu o‘rinda akademik erkinlik bilan siyosiy erkinlik o‘rtasidagi bir umumiy jihatni aytib o‘tish bilan cheklanamiz.

Oliy ta’lim, undagi akademik erkinlik an’analari, o‘z xususiyati va ahamiyatiga ko‘ra, shaxsning hayotiy pozitsiyasiga, siyosiy dunyoqarashi va davlat ishlariga oid fikrlariga ta’sir etmay qolmaydi. Akademik erkin muhitda tarbiya olgan, tajriba orttirgan olim shaxsiy hayotida ham ana shu an’analarni davom ettirishga, zamonaviy siyosiy til bilan aytganda, siyosiy faol bo‘lishga undaydi, bu tabiiy hol.

Olim, tadqiqotchi o‘zining fuqarolik burchini bajarishi uchun saylovlarda qatnashishi, biror-bir partiyaga yoki uyushmaga a’zo bo‘lishi, davlat budjetini shakllantirishda o‘z istagini aytishi, ommaviy axborot vositalarida davrning dolzarb siyosiy muammolari haqda o‘z fikrini bildirishi, demokratiyani qaror toptirish uchun tavsiyalar berishi mumkin. Mazkur siyosiy faollik subyektning akademik erkinligiga xalaqit bermaydi, balki shaxs (tadqiqotchi, olim)ning fuqarolik pozitsiyasini, siyosiy madaniyatini ko‘rsatadi. Bu ikki voqelikni bir-biriga qarshi qo‘yish mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan ham akademik erkinlikni, siyosiy voqelikdan farq qilsa va alohida ijtimoiy pedagogik muhitda shakllansa-da, siyosiy erkinlikka, faollikka zid qo‘ymaslik lozim.

Akademik erkinlik va shaxs erkinligi bir-biriga yaqin voqeliklar bo‘lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Hatto akademik erkinlik shaxs erkinligining atributi, qismidir. Shaxs erkinligi, keng ijtimoiy falsafiy va demokratik voqelik sifatida, inson faoliyatining barcha ko‘rinishlariga, shu jumladan, ta’lim jarayonlariga ham, kirib boradi.

Bugun ilmiy adabiyotlar va maxsus axborotlarda “akademik erkinlik” bilan birga “mustaqil ta’lim”, “akademik ta’lim”, “akademik ta’til”, “akademik mobillik”, “akademik klaster”, “akademik IT”, “moliyaviy mustaqillik”, “akademik daraja”, “akademik almashinuv”, “akademik izlanish”, “akademik reyting”, “akademik an’ana”, “akademik loyiha”, “akademik raqobat”, “akademik akkreditatsiya” kabi ko‘plab tushunchalar qo‘llanilmoqda. Ularning har biri o‘ziga xos morfolingvistik va ma’noviy ahamiyatga ega[1]. Masalan, oliy ta’limdagi islohotlarni ta’kidlay turib, A.Toshqulov uzoq joydan qatnab o‘qiydigan talabalar uchun “akademik mobillik” va “chet el universitetlari sertifikat dasturlarini ishlab chiqib, talabalarni to‘liq akademik ta’lim talab etilmaydigan yangi kasblarga o‘qitish” yo‘lga qo‘yilganini ta’kidlaydi[97]. Bu o‘rinda muallif “akademik mobillik” deganda O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlarining chet ellardagi ta’lim tizimiga tez moslashuvini, “to‘liq akademik ta’lim” deganda esa talabalarning universitet yoki institut o‘quv rejasidagi predmetlarning to‘la o‘tilishi jarayonlarini nazarda tutadi. Mobillik “tez”, “harakatchanlik” ma’nolarini anglatgani uchun oliy ta’lim tizimidagi “akademik mobillik” o‘quv dargohining bozor talablariga, chet ellar tajribalariga, ilg‘or pedtexnologiyalarni o‘ziga tez tatbiq etishiga oid jarayon sifatida qo‘llaniladi. Mohiyatan barcha o‘quv jarayonlari, ayniqsa, oliy ta’lim tizimidagi darslar, kadrlar tayyorlash ijtimoiy mobil, harakatchan, bozor konyuktyurasiga va talablariga muvofiq o‘zgaruvchan bo‘lishi darkor. Shu bilan birga, ta’lim-tarbiyada konservatizm, turg‘unlik va ma’lum bir ma’noda dogmatikaga tayanish mavjud. Busiz ta’lim-tarbiya bo‘lmaydi. Ilm-fan ham

---

[1] Qarang: Тошқулов А. Олий таълимдагиислоҳотлар шиддат олса, оладики, асло ортга қайтмайди // “Ўзбекистонда олий таълим”.Ж. 2022, №3. 2-9 б; Абдуллаев А. Олий таълимни рақамлаштириш-қулайлик ва шаффофликни таъминлайди.// Ўша манба. 10-16; Юсупов А.Т. Олий малакали илмий ва илмий педагогик кадрлар давлат аттестацияси: методологик услубий, норматив- ҳуқуқий ва илмий-ташкилий йўналишлари. -Тошкент: Фан ва технологиялар, 2013; Вербицкая Л., Касевич В. Институционлаьная автономия и проблемы управления в высшем образовании // “Высшее образование в России”, №2006, С.16-20; Кроу М., Дебарс У. Модел нового американского университета. — Москва: Изд. Дом ВШЭ, 2017; Абдухапарова Д.М. Олий таълим муассасаларини молиялаштириш моделлари// “Илм-фан ва инновацион ривожланиш”, 2022, №3. 135-152 б.; Рахимова Н.Х. Императивы сстемы высшего образования в условиях реформирования узбекстанского общества // “Илм-фан ва инновацион ривожланиш”, 2021, №5. 24-34 б; Исмоилов Т.И. Олий таълим муассасалари фаолиятига академик мустақилликни жорий этиш жараёнлари.--Наманган: “Усмон Носир медиа”, 2022

o‘zining an’analariga, qaror topgan tartiblar va tamoyillariga tayanadi, mutlaq sof joyda paydo bo‘lgan, hech qanday an’analar va tamoyillarga tayanmaydigan ilm-fan ham, ta’lim-tarbiya ham uchramaydi. Shuning uchun yuqoridagi “akademik mobillik”ni nisbatan harakatchanlik tarzida tushunish darkor. “To‘liq akademik ta’lim” deganda esa oliy o‘quv yurtining o‘z ustiga olgan predmetlarni, darslar va yuklamalarni to‘la tarzda talabaga yetkazishi va talabaning oliy o‘quv yurti talablarini (darslarga qatnashi, nazoratlarni va imtihonlarni topshirishi, dissertatsiya himoyasi va boshqalar) yetarli darajada bajarishi tushuniladi.

Fikrimizcha, yuqoridagi “akademik” so‘zi bilan bog‘liq barcha tushunchalar sub’yekt (oliy o‘quv yurti, o‘qituvchi-professorlar) va ob’yekt(talaba, dissertant) o‘rtasidagi bozor munosabatlari talablariga, buyurtmachi bilan ijrochi o‘rtasidagi shartnomalarning o‘rnatilgan normalarga muvofiq bajarilishini anglatadi. Dars ushbu subyekt va obyekt o‘rtasida uyushtiriladigan barcha munosabatlarning o‘zagini tashkil etadi. Hozirlikcha ushbu tushunchalar pedagogik lug‘atlar va ensiklopediyalarda o‘z o‘rnini va ta’rifini topganicha yo‘q, ular kelgusida chop etiladigan izohli lug‘atlardan joy oladi, albatta.

## 1.2. Akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati konvergensiyasi.

Zamonaviy pedagogik nazariyada akademik erkinlik tushunchasini faqat tashkiliy-huquqiy hodisa sifatida talqin qilish uning mazmun-mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Akademik erkinlik oliy ta’lim jarayonida bilish, qadriyatlar va shaxsiy mavjudlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab pedagogik kategoriya bo‘lib, u talabaning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda gnoseologik, aksiologik va antologik asoslar orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv akademik erkinlikni pedagogik jarayonning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida ilmiy asoslash imkonini beradi.

***Akademik erkinlikning gnoseologik asoslari:***

Gnoseologik nuqtai nazardan akademik erkinlik, avvalo, bilish jarayonining mustaqilligi va erkinligini ta’minlovchi zaruriy shart sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy bilish tabiatan tanqidiy, izlanishga asoslangan va refleksiv jarayon bo‘lib, u tashqi cheklovlar sharoitida

to‘laqonli rivojlana olmaydi. Shu bois akademik erkinlik bilish subyekti bo‘lgan talabaning ilmiy haqiqatni mustaqil izlash, ilmiy muammoni tanlash va tadqiqot metodlarini ongli ravishda belgilash imkoniyatini yaratadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, akademik erkinlik talabaning bilish subyekti sifatidagi mavqeyini mustahkamlaydi. An’anaviy ta’lim modelida talaba ko‘proq tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi obyekt sifatida qaralgan bo‘lsa, akademik erkinlik sharoitida u ilmiy bilimlarni yaratuvchi, qayta talqin qiluvchi va baholovchi faol subyekt sifatida shakllanadi. Bu holat bilish jarayonining reproduktiv xarakterdan produktiv va ijodiy xarakterga o‘tishini ta’minlaydi.

Ilmiy bilishning ijtimoiy tabiati ham akademik erkinlikning gnoseologik asoslarini mustahkamlaydi. Ilmiy muloqot, fikrlar xilma-xilligi va tanqidiy diskurs mavjud bo‘lgan akademik muhitgina haqiqiy ilmiy bilish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Shu ma’noda akademik erkinlik talabaning bilish faoliyatini faqat individual jarayon sifatida emas, balki ilmiy hamjamiyat bilan o‘zaro aloqada rivojlanadigan jarayon sifatida qarashga imkon beradi.

Demak, akademik erkinlik gnoseologik jihatdan talabaning bilish faolligini rag‘batlantiruvchi, ilmiy mustaqillik va tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi pedagogik shart sifatida namoyon bo‘ladi.

***Akademik erkinlikning aksiologik asoslari:***

Aksiologik yondashuv akademik erkinlikni ta’lim jarayonining asosiy pedagogik qadriyati sifatida talqin etishga imkon beradi. Zamonaviy oliy ta’limda akademik erkinlik ilmiy haqiqatga intilish, intellektual halollik, mas’uliyat va akademik vijdon kabi qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois akademik erkinlik erkinlik va javobgarlikning dialektik birligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Akademik erkinlik sharoitida talaba nafaqat ilmiy izlanish erkinligiga ega bo‘ladi, balki o‘z ilmiy faoliyati natijalari uchun mas’uliyatni ham chuqur anglay boshlaydi. Bu jarayonda ilmiy halollik, manbalarga to‘g‘ri murojaat qilish, plagiatdan voz kechish, ilmiy etikaga rioya qilish kabi qadriyatlar shakllanadi. Shunday qilib, akademik erkinlik talabaning ilmiy madaniyatini rivojlantiruvchi aksiologik poydevor vazifasini bajaradi.

Xalqaro pedagogik diskursda ham akademik erkinlik oliy ta’limning fundamental qadriyati sifatida e’tirof etiladi. Xususan,

Yevropa oliy ta’lim makoni (Bologna jarayoni) hujjatlarida akademik erkinlik ta’lim va tadqiqot sifati, ilmiy innovatsiyalar va talabalarning faol ishtirokini ta’minlovchi asosiy omil sifatida belgilangan. Bu yondashuv akademik erkinlikni shunchaki huquqiy norma emas, balki ta’lim jarayonining qadriyatli asosini tashkil etuvchi pedagogik hodisa sifatida ko‘rsatadi.

Pedagogik jihatdan qaralganda, akademik erkinlik talabaning shaxsiy qadriyatlar tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Erkin ilmiy izlanish sharoitida talaba o‘z qiziqishlari, intellektual ehtiyojlari va ilmiy ideallarini anglay boshlaydi, bu esa uning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli akademik erkinlik aksiologik jihatdan talabaning ilmiy faoliyatga bo‘lgan ichki motivatsiyasini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi.

***Akademik erkinlikning antologik asoslari:***

Antologik nuqtai nazardan akademik erkinlik talabaning ilmiy faoliyatdagi mavjudlik shaklini belgilovchi muhim shart sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati shaxs uchun nafaqat bilim olish vositasi, balki o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini namoyon etish va intellektual mavjudligini tasdiqlash jarayonidir. Akademik erkinlik aynan shu jarayonning tabiiy va zaruriy shartini tashkil etadi.

Akademik erkinlik sharoitida talaba o‘zini ilmiy subyekt sifatida anglaydi. Bu holat uning ilmiy faoliyatga munosabatini tubdan o‘zgartiradi: talaba tayyor topshiriqlarni bajaruvchi ijrochi emas, balki ilmiy muammoni mustaqil anglaydigan, savollar qo‘yadigan va ularni hal etishga intiladigan shaxs sifatida shakllanadi. Natijada ilmiy faoliyat talabaning shaxsiy mavjudligining ajralmas qismiga aylanadi.

Antologik jihatdan akademik erkinlik shaxsning ijodiy mavjudligini ta’minlaydi. Erkin ilmiy muhitda talaba o‘z intellektual salohiyatini to‘liq namoyon etish, ilmiy yangilik yaratish va o‘z ilmiy pozitsiyasini asoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ilmiy-tadqiqot faoliyatini shaxsiy o‘sish va o‘zini namoyon qilish vositasiga aylantiradi.

Shuningdek, akademik erkinlik talabaning ilmiy faoliyatda o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Erkin tanlov va mas’uliyat asosida olib borilgan ilmiy izlanishlar talabaning ilmiy kompetensiyalari bilan bir qatorda uning shaxsiy yetukligini ham rivojlantiradi. Shu ma’noda

akademik erkinlik antologik jihatdan talabaning ilmiy va shaxsiy mavjudligini bir butun jarayon sifatida shakllantiradi.

Akademik erkinlik to‘g‘risida gap ketganida, avvalo, shaxs erkinligidan kelib chiqiladi, shaxs erkinligini ijtimoiy-huquqiy kafolatlamay, iqtisodiy va ma’naviy-axloqiy shakllantirmay, akademik erkinlikni ta’minlash qiyin. Yangi ishlab chiqilgan davlatimiz qomusi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa me’yoriy-huquqiy normalarning shaxs erkinligi haqidagi tartiblari va talablari akademik erkinlikni kafolatlaydi. Demak, akademik erkinlik yadrosini insonning bilim olish va gnoseologik qiziqishlari tashkil etadi. Qolgan sotsiopsixologik omillar, ya’ni bilim olishga bo‘lgan qiziqish, oliy ma’lumotli bo‘lishga ma’naviy ehtiyoj, davlatning oliy ta’limdagi rolini to‘g‘ri anglash, akademik erkinlikning umumta’lim strategiyasiga muvofiq kelishi shartligini bilish, demokratik va shaxs erkinligini akademik erkinlik asosi sifatida idrok etish kabilar shaxs erkinligining fundamental jihatlaridan kelib chiqadi. Ushbu fundamental jihat, agar mavzuga pedagogika nuqtayi nazaridan yondashsak, liberal demokratik xususiyatlarni ham o‘rganishni shart qilib qo‘yadi. Chunki akademik erkinlik yadrosini tashkil etuvchi shaxs erkinligi fenomenining ilmiy mohiyatini liberal demokratik yondashuv orqali ochib berish mumkin.

Liberal demokratik g‘oyalar haqida turli fikrlarni bildirgan B.Spinoza, I.Kant, Gegel, J.Lokk, Sh.Monteskyo, A. fon Xayek, K.Popper, I.Toffler, F.Skinner, K.Mangeym ijtimoiy-siyosiy borliqni tarbiyaviy jihatlari borligini esdan chiqarishmaydi. Ularning bu boradagi qarashlarini yaxlit tarzda, bugungi kundagi shaxs erkinligi va erkinliklarini ma’anaviy kamolot, o‘zini-o‘zi tarbiyalash, jamiyatdagi axloqiy imperativlarga ergashish kabilar bilan bog‘lab qarash lozim. Ijtimoiy hayot bilan subyektiv qarash, ya’ni subyekt va obyekt o‘rtasidagi aloqalar shaxs ongi, tasavvuri va qarashlarida o‘z ifodasini topgani uchun liberal demokratik qarashlar tarbiyaviy xususiyatga ega voqelik ekanini unutib bo‘lmaydi. Qayerda liberal demokratik qarashlar bo‘lsa, ular ma’lum bir pedagogik muhitda, kishilar o‘rtasida qaror topgan, tarqalgan bo‘lsa, shu yerda, albatta, tarbiya elementi mavjuddir. Bu tarbiya elementi maxsus shakllantirilgan yoki ijtimoiy muhitning atributi sifatida keladigan, maxsus shakllantirilmagan tarzda kelishi mumkin. Shaxs ularning maxsus shakllantirilgan yoki

shakllantirilmagani haqida o‘ylab o‘tirmaydi, u ongida o‘sha liberal demokratik qarashlarni o‘zlashtirgani yoki ifoda etgani bilan cheklanishi tabiiy holdir. Ilk liberal demokratik qarashlar shakllanganida, paydo bo‘lganida ular tarbiyaviy voqelik sifatida idrok etilmagan, albatta. Inson erki va huquqlari haqidagi taraqqiyparvar g‘oyalarning tarqalishi asta-sekin ijtimoiy-tarbiyaviy xarakter kasb etib, demokratik pedagogik merosda o‘z o‘rnini topgan. Qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, inson huquq va erkinliklari akademik erkinlikning negizidir. Ushbu negizni o‘rganish akademik erkinlik g‘oyasining insoniyat tafakkurining taraqqiyot yo‘llarini, usullari va bosqichlarini muhim jihati ekanini anglashga yordam beradi. Jamiyatni ilgari surishga da’vat etgan qarashlar va g‘oyalarning shakllanishi, ijtimoiy voqelikka aylanishi mudom pedagogik (ma’rifiy, tarbiyaviy, didaktik, antropologik, psixologik, ma’naviy) jarayon mahsullaridir. Shuning uchun jamiyatga ta’sir etgan dunyoqarashlar va konseptual g‘oyalarni avvalo ijtimoiy-tarbiyaviy vositalar, jarayonlar va usullarning mahsuli sifatida idrok etish maqsadga muvofiqdir.

Liberal demokratik qarashlarning shakllanishida golland faylasufi Benedikt Spinoza (1632-1677)ning pedagogik qarashlari muhimdir. Niderlandiyada yangi munosabatlarga, kapitalistik rivojlanishga bo‘lgan ehtiyoj ijtimoiy fikrda yangi qarashlarni shakllantrishdan boshlanishi tabiiy hol edi. 1566-1609 yillardagi Niderlandiyadagi burjua revolyutsiyasi Ispaniya kolonial siyosatiga qarshi qaratilgan edi, natijada niderland xalqi o‘z erkini qo‘lga kiritgan. Keyinchalik 1640-1689 yillardagi ingliz burjua revolyutsiyasi esa Yevropadagi taraqqiyparvar kuchlar qarashlariga ta’sir etgan. B.Spinozaning falsafiy qarashlari ushbu ijtimoiy voqeliklar ta’sirida shakllangan. Biz uchun muhim tomoni shundaki, B.Spinoza ta’lim-tarbiya jarayonlarini diniy dogmatika, cherkov ta’siridan xalos qilishga qaratganidir. “Agar kishilar barcha ishlarida ma’lum bir rejalaridan kelib chiqqanida yoki ularga omad yor bo‘lganida edi, ularni hech qanday mutaassiblik chulg‘ab olmasdi. Kishilar turli sabablarga ko‘ra shunday og‘ir vaziyatlarga tushib qoladilarki, ular hech qanday rejalar tuzolmay, ko‘p hollarda har qanday narsalarga ishonadilar...” Qo‘rquv kishilarni aqldan ozish darajasida o‘ziga ergashtiradi. Qo‘rquv kishilarda mutaassiblikni yuzaga keltiruvchi, uzoq saqlanib turuvchi va qo‘llab

turuvchi asosiy sababdir”[1]. Faylasuf fikricha, kishilar hayot murakkabliklari, ayniqsa, fojeali tabiiy ofatlar oldida oʻzini ojiz sezadilar, natijada ular ongini, xayolini qoʻrquv chulgʻab oladi. Aynan ushbu qoʻrquv mutassiblikni keltirib chiqaradi. “Ommani mutassiblikdek hech nima tez chulgʻab olmaydi. Natijada, ushbu qoʻrquv din shiori ostida xalqda oʻz shohlariga xuddi xudodek, sigʻinishni keltirib chiqaradi”. Mazkur qoʻrquvdan va mutassiblikdan xalos boʻlish erkinlik demakdir. “Erkin respublika”da yashash insonga mutassiblikdan holi yashashga imkon beradi. Shaxs erkinligini oʻzga boʻysundiruvchi mutassiblik, din, uning marosimlari, ulamolari va institutlari iloji boricha omma ongiga oʻz dogmalarini singdirganlar, shu tarzda ularni oʻz ketidan ergashishga undaganlar. Bu, B.Spinoza ta’rifiga koʻra, “nima yaxshi va nima yomon, nima haqiqat-u nima yolgʻonligi haqida fikrlovchi kishilarni aqlli mavjudotdan itoatgoʻy hayvonlarga aylantirgan”[2]. Faylasuf mutassiblikni keskin tanqid qilar ekan, mazkur muammoni davlat va uning institutlari, shu jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonlari bilan ham bogʻlaydi. Davlat va ta’lim-tarbiya institutlari kishilardagi soʻz erkinligiga, qalblaridagi erkin yashashga boʻlgan intilishlariga toʻsiqlik qilmasligi, balki, aksincha, oʻzidagi barcha vositalar, ya’ni huquq, axloqiy normalar, oila, boshqarish, amaldorlari va xizmatchilari, maktablari orqali shaxs erkinligi ta’minlashi kerak. “Demak, davlatning maqsadi, haqiqatan ham, erkinlikdir”. B.Spinoza ushbu erkinlikni ta’minlashda davlatning, u tomonidan qabul qilinadigan qonunlar va tartiblarning, “yaxshi tarbiya, pok axloq va ezgu amallar” ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, mutassiblik oʻz maqsadi va manfaatlarini koʻzlovchi “xasislar, hiylagarlar va shunga oʻxshash zaif qalblar”ga xizmat qiladi, “yaxshi tarbiya koʻrgan, pok axloqli va ezgu amalli kishilar” shaxs erkinligini, davlat qonunlarini, jamiyatdagi axloqiy tartiblarni qoʻllab-quvvatlaydi, ularga “oʻz erki” bilan itoat etadi. B.Spinoza “Es Xaim” nomidagi diniy maktabni tugatgan, keyingi ta’limni mustaqil izlanishlar tarzida davom ettirgan.U qadimgi yunon falsafasi, stoiklar, R.Dekart, T.Gobbs, Maymonid, N.Kuzanskiy asarlaridagi qarashlarni oʻrgangan, ular ta’sirida oʻzining “Etika” asarini yozgan. Uning oʻz davridagi ta’lim tizimiga, ayniqsa, maxsus oʻrta va oliy ta’lim

[1] Спиноза Б. Избранные произведения. Том второй. — Москва: Госполитиздат. 1957. С.760
[2] Спиноза Б. Избранные произведения. Том второй. — Москва: Госполитиздат. 1957. С.760

(universitet)ga munosabatlari kuzatilmaydi. Biroq uning mutassiblik, din, etika va shaxs erki borasidagi qarashlari nafaqat o‘z davri, shuningdek, keyingi ma’rifiy hayotga, hurfikrlik va shaxs erkini himoya qilshga qaratilgan qarashlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu ta’sirni biz demokrat pedagoglar A.Disterveg, I.G.Pestalossi, J.J.Russo, N.Chernishevskiy, D.Ushinskiy kabilarning ijodiy pedagogik, amaliy uslubiy izlanishlarida kuzatamiz. Ta’lim va tarbiya nazariyasi tarxida B.Spinozaning “Etika” asari alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarda din, “ilk substansiya”, xudo, e’tiqod, ratsional anglash, irratsionallik, aql-u idrok, affekt, mavjudlik, tahvid, tartib va betartiblik, umum va qism, ezgulik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik kabilar haqida turli fikrlar bildiriladi. Ammo ularning deyarli barchasi inson aql-u idrokini ulug‘lash, shaxs erkining yaratuvchanligini tasdiqlashga qaratilgani bilan e’tiborlidir. Faylasufning fikricha, insoniyat tarixi, tafakkurning shakllanishi jarayonida kishilar jamiyatdagi barcha narsalar o‘zlarning irodasi va maqsadi tufayli yaratilganini anglab yetishgan (bu irratsional talqinlarni rad etadi, jamiyat kishilarning ongli xatti-harakatlari mahsulidir). Shu tarzda ular ezgulik, yovuzlik, tartib, betartiblik, issiq, sovuq, go‘zallik, xunuklik kabi tushunchalarni shakllantirishgan. “Kishilar o‘zini erkin bilganlari uchun maqtovga oid va uyat, gunoh va e’tirof haqida tushunchalar paydo bo‘lgan”[81]. Insonga bilish xos, u tabiatdagi narsalarni bilishga ingtilganiga muvofiq xudoni biladi, bu bilish “azaliy haqiqatni bilish” demakdir. Agar ushbu “bilish muhabbati” bo‘lmasa, demak, azaliy haqiqat ham yo‘q. Inson qalbi qancha ko‘p bilsa, u “yomon affektlar”dan shuncha holi bo‘ladi. Yomon affektlardan holi bo‘lish va “bilishga muhabbat” shaxs erki amridadir. Shaxs erki amriga muvofiq harakat qiladi, u qanchalik ko‘p harakat qilsa, bilishga intilsa, u shunchalik komillikka erishadi[1]. Komillik, B.Spinoza talqinida, ezgu amal va to‘g‘ri turmush tarzidadir. “Odatda kishilar go‘dakona qarashlarga ergashadilar... Nodonlik o‘zini qanday jarga yetaklayotganini bilganida edi, xalq o‘zini nodonlikka yetaklayotgan yetakchilaridan voz kechgan bo‘lardi, chunki uyg‘ongan aql haqiqatni ochmasligi mumkin emas. …Xalqni ma’rifatli qilishga da’vat etilganlar aqlni haqiqatni anglashga yo‘naltirishlari zarur. Bunday yakunga kelish uchun yuksak aqliy

---

[1] Спиноза Б. Избранные произведения. Том второй. — Москва: Госполитиздат. 1957. С.760

tasavvurlarga berilish, tabiat sirlarini ochishga chuqur kirishish ham shart emas. Buning uchun sog'lom aql zarur..."[61]. Ushbu fikrlardan ma'lum bo'ladiki, B.Spinoza ma'rifatni, ta'limni diniy mutaassiblik ta'siridan xalos qilishga intilgan, shaxs erkini bilim olishga, haqiqatni sof aqli bilan anglashga, buning uchun esa harakatlar qilishga da'vat etgan. Muhimi shundaki, B.Spinoza universitet ta'limi haqida hech nima demagan bo'lsa-da, shaxs erkini ma'rifiy bilimlar bilan bog'laydi, ma'rifiy bilimlarga ega bo'lgan shaxs erkin shaxsdir va, aksincha erkin shaxs o'zini mutassiblikdan, nodonlik va kaltabinlikdan asraydi. Diniy dogma hukmron va barcha ta'lim-tarbiya, faoliyat, boshqarish ishlarining cherkov dogmalari ostida ekanini tanqid qilish,mutassiblikning shaxs erkiga zid voqelik ekanini ochiq aytish o'sha paytda juda katta jasorat edi. B.Spinozadan keyin xristianlikning inson aql-u idroki va ma'rifiy bilimlar olishga to'g'onoq ekani haqidagi qarashlar Yevropaga, tafakkur ahliga tarqaldi, ma'rifatparvarlar esa inson aql-u idrokini ulug'lashni o'z bayroqlariga aylantirdilar.

Pedagogika tarixidan ma'lumki, ilk universitetlar, masalan, Bolone universiteti, Yevropada 1088-yili paydo bo'lgan. Ushbu universitet qoshida diniy bilimlar, xristianlikni targ'ib etuvchi predmetlar o'qitilgan. Keyinchalik unda yurisprudensiya, texnologiya va tibbiyot fakultetlari paydo bo'ladi. To'g'ri, Bolone universitetini Yevropadagi birinchi universitet sifatida tan olinishiga qarshi turli fikrlar uchraydi. U Italyan xalqi birdamligi simvoli sifatida tan olingan. Agar universitet ta'limini o'qituvchi-professorlar va talabalar uyg'unligi, korporatsiyasi sifatida talqin qilsak, Yevropadagi birinchi universitet 1208-yili tashkil etilgan Parij universiteti bo'ladi[1]. Ba'zi universitetlar esa avval maktablar tarzida bo'lgan, ularda yosh bolalarga ilk ta'lim, bilim berish ustuvor edi. "Universitet" atamasi "jamoa", "uyushgan", "yig'in" ma'nolarini anglatadi. Ilk universitetlarda talabalar gildeyi mavjud edi, aynan ular universitetni o'quv jamoasi, birligi ma'nosini anglatgan[2]. Ushbu talabalar jamoalari universitetning yo'nalishini, darslar nazoratini, o'qituvchilar kontengentini, o'ziga o'zi xizmat qilish tizimlarini belgilab bergan. Badavlat talabalar esa darslar uchun o'z hovlilarini, turar joylarini universitetga berib turgan, muallimlarni

[1] Rudyy. The Univercities of Euroupe, 1100 -1914. P. 15-16.
[2] Lankford E.L. Freedom and Ourage in Art Education. // Journal of Aesthetic Education.1994. № 28 (4). P. 54- 62

moddiy qo‘llab-quvvatlashda qatnashishgan. Ushbu talablarni to‘g‘ri anglagan ba’zi hukmdorlar davlat universitetlarini tashkil etishga intilishgan. Masalan, monarx Fridrix II ning ko‘rsatmasi bilan Neapolda davlat universiteti tashkil qilinadi.

Yangi davrga kelib, bilimga va kashfiyotlarga bo‘lgan qiziqishlarning oshishi bilan universitet o‘qituvchi-professorlarida dunyoviy bilimlarni targ‘ib etish, ta’limni din, cherkov ta’siridan holi qilish, hatto mustaqil universitetlar tashkil etish istagi kuchayadi. XVII asrda Yevropada ikki nemis va fransuz universiteti modellari shakllanadi[1]. Nemis universitetlari V.Gumboldt va F.Shleyrmaxer g‘oyalari asosiga qurilgan bo‘lib, ularda akademik erkinlik asosiy o‘rinni egallagan. Fransuz universitetlarida qattiq ma’muriy nazorat o‘rnatilgan, har bir dars va ma’ruza, har bir talaba nazorat ostida bo‘lgan. Lekin tafakkur ahlida erkin fikrlashga, bilim va ta’lim olishda shaxs erkinligi tamoyilini o‘rnatishga bo‘lgan xatti-harakatlar kengayadi. Bu o‘rinda, yuqorida keltirilgan niderland faylasufi B.Spinoza kabi mutafakkirlarning qarashlari muhim rol o‘ynaydi. Natijada universitetlarda diniy bilimlar berish o‘rnini dunyoviy bilimlar berish egallaydi. Shaxs erki va qiziqishlaridan kelib chiqib, ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish, talabalar gildeyalari fikrlari bilan hisoblashish, ularning faolligini ta’limni takomillashtirish tomon yo‘naltirish universitetlarda liberal demokratik qarashlarning yoyilishiga olib kelgan. Talabalar ma’lum bir guruhlarga, hamyurtlik uyushmalariga birlashgan, ularda o‘tilayotgan darslar, predmetlar va boshqarish tizimlari erkin tarzda muhokama qilingan, talab va tavsiyalar universitet mahkamasiga yetkazilgan. Bu uyushmalar o‘z ustaviga, an’analari va marosimlariga ega bo‘lgan. O‘qituvchi-professorlar ham o‘z uyushmalarini, avvalo, o‘zlari o‘qiydigan predmetlar bo‘yicha hamkasblarining jamoasini tuzishgan. Shu tariqa universitet hayoti talabalar va professorlar uyushmalari orqali, o‘zini o‘zi boshqarish tarzida, uyushtirilgan.

XVII asrgacha universitetlarda o‘qish asosan 3-4-yil bo‘lgan. Ularda o‘rganilishi shart bo‘lgan predmetlarga grammatika, ritorika, mantiq, arifmetika, geometriya, musiqa va astronomiya, keyinchalik esa xalqaro huquq, ya’ni yurisprudensiya kirgan. Universitetlar

---

[1] Rudyy. The Univercities of Euroupe, 1100 -1914. P. 15-16.

o‘zining jurnallarini chiqarishgan, ularda o‘qituvchi-professor va talabalarning ilmiy izlanishlari, maqolalari va o‘tkazilgan ilmiy kengash materiallari berib borilgan. Muhimi shundaki, ilmiy kengash universitet hayotida muhim rol o‘ynab, ilmiy jamoaning universitet hayotini boshqarishdagi rolini oshirgan, jurnallar esa ijod erkinligining namunasi edi. Ilmiy jamoa o‘zining erkin fikrlari va liberal qarashlari bilan universitet tizimida shaxs erkinligi, ilmiy qarashlarda hurfikrlik, ijodiy hamkorlik, ilmiy qiziqishlarga muvofiq uyushmalar tuzish, ma’muriy boshqarishni ilm-fan tomonga yo‘naltirish kabi tashabbuslari bilan mamlakatda ta’lim tizimining rivojida xizmat qilgan.

Universitet ta’limida akademik erkinlik g‘oyasi to‘g‘risida gap ketganida V.fon Gumboldt haqida to‘xtalishga to‘g‘ri keladi. U vatandoshi I.Kantning ma’naviy-axloqiy imperativ va shaxs erkinligi borasidagi g‘oyalarini ta’lim tizimiga joriy etgan. Insoniyat tarixi, ma’naviy taraqqiyot, insonning ma’naviy ehtiyojlari va ijodiy izlanishlari, erkinligi mahsullaridir. Bu omillar inson tomonidan ma’naviy ehtiyoj sifatida qabul qilinadi, shaxs erkinligi va ijodiy faoliyati ularni obyektivlashtiradi. Ta’lim va tarbiya, ilmiy izlanishlar shaxs erkinligini kengaytirishga xizmat qiladi, natijada jamiyat hayotini takomili ana shu intilishlarning ko‘rinishi sifatida keladi. Pedagogik ta’limotlar shaxs erkinligiga tayanib ilm-fanni, ijodni jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylantiradi. Shaxs erkinligini ta’minlash tarbiyada monolog sifatidagi mashg‘ulotlar bilan emas, balki suqrotona dialoglar tarzidagi saboqlar bilan amalga oshirilgani ma’qul. Erkin shaxsning “shakllanishi” (“Bildihg”) suqrotona dialog mahsuli bo‘lishi mumkin[1]. O‘sha davrda Pruss ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar V.Gumbolt nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u “Katta Pruss islohotlari” nomi bilan tarixga kirgan. Ta’lim vaziri sifatida g‘oyaviy va amaliy tadbirlarni amalga oshirgan V.Gumbolt libral demokratik g‘oyalarni universitetlar faoliyatiga singdirishga intilgan. Uning pedagogik qarashlari “inson erkin shaxs bo‘lishi zarur, o‘z dunyosining ijodkori, mustaqil, erkin va to‘la huquqlarga ega bo‘lishi kerak. tarbiya shaxsni o‘zini-o‘zi tarbiyalashga yo‘naltirishi, eski dunyo tartiblariga moslashishga o‘rgatmasligi kerak. U insonni utilitar narsalar haqida o‘ylashga emas, undagi “kuchlarni uyg‘otish”ga,

[1] Rudyy. The Univercities of Euroupe, 1100 -1914. P. 15-16.

tasodifiy va abstrakt vaziyatlarda mustaqil fikrlashga, kutilmagan hollarda aqlli qaror qabul qilishga oʻrgatishi zarur. Shuning uchun ta’lim birinchi navbatda moddiy narsalarga erishishga emas, balki formal fikrlashga, u kasb-korga yoki tabaqa manfaatlariga moslashishga (Bilduhg ist nicht Ausbilduhg) emas, balki “umumiy” fikrlashga oʻrgatishi darkor”. Universitet va ta’lim tizimida faoliyat yuritgan I.Fixte va sotsial-demokrat pedagoglar I.G.Pestalozsi ham ushbu liberal demokratik gʻoyani targʻib etganlar. Gumboldt ilgari surgan liberal demokratik gʻoya shaxs erkinligiga asoslangan, ma’naviy-madaniyat va kitob vositasida mustaqil izlanishlarga qaratilgan usul, metod edi. “Ushbu neogumanistik ta’limot XIX-asr boshlarida kuch oladi. Undagi yunon mutafakkirlarining shaxs erkinligi, garmonik rivojlangan shaxsni shakllantirish haqidagi konseptual fikrlar ta’lim tizimida mutlaq yangi narsa edi”. Gumboldt grek tilini kasb-kor sifatida oʻrgatishni ilgari surganida qadimgi yunonlarning falsafiy pedagogik an’analari va fikrlariga tayangan, ularda erkin va garmonik rivojlangan insonlarni shakllantirish metodikasini koʻrgan.

1848-yilgi revolyutsiyadan keyin ta’lim tizimida reaksiya boshlandi. Prussiya qiroli revolyutsiyani kelib chiqishi sabablarini maktab va universitetlardagi hurfikrlikda, davlat qonunlariga itoat etmaydigan fikrlarni keng tarqalishida koʻrdi. Natijada 1854-yili maxsus “Regulyativlar” qabul qilinib, barcha ta’lim tizimidagi erkinlik siqib chiqariladi, hurfikrlik ta’limdan quviladi. Ichki ishlar vazirligi qoshida ta’lim vazirligi tashkil etiladi. Ammo V.Gumbolt tayangan akademik erkinlik gʻoyasi mutlaq oʻlmadi. 1949-yil Berlinda uning nomiga qoʻyilgan universitet ochiladi.

I.G.Pestalozsi (1746-1827)ning pedagogik qarashlari demokratiya tamoyillariga qurilgan. U ham zamondoshi V.Gumbolt kabi tarbiyaga shaxs erkinligi va faolligini oshirish metodlarini joriy etish tarafdori edi.

**V. Gumboldtning “akademik erkinlik”ga oid islohotlari quyidagilardan iborat edi:**

**Davlat ta’lim tizimiga aralashadigan, maktablarni oddiy va o‘rta maxsus ta’lim pog‘onalariga ajratadigan bo‘ldi. Shunga muvofiq maktablar omma uchun maktablar va alohida qatlam uchun gimnaziyalarga ajratildi. Ushbu ikki pog‘ona oraligidagi maktablar, turli mayda tarbiya o‘choqlar tugatilib, davlat ta’lim tizimi shakllantirildi.**

**Ta’lim tizimiga o‘quv jarayonlari oxirida imtihon topshirish tartibi joriy qilindi. Ammo imtihonni topshirolmagan talaba universitetda o‘qishni davom ettirishi mumkin edi.**

**O‘quv rejalariga muvofiq darslarni tashkil etish shart qilib qo‘yildi.**

**Gimnaziyalardagi majburlash, kaltaklash va quruq yodlatish kabi usullar bekor qilindi, yoshlarning aqlu idrokiga tayanish ta’lim metodining asosiy xususiyatiga aylantirildi. Gimnaziyada ta’lim beradigan o‘qituvchilarning maxsus imtihonlardan o‘tishi tayinlandi.**

**Xalq ta’limining yangi tizimi shakllantirildi, ta’lim olish ommaviy xarakter kasb etdi.**

**Gimnaziyalarda ta’lim beradigan muallimlar uchun maxsus bilim yurtlari tashkil etilda, endi ular ushbu seminar ta’lim yurtlarida malaka oshirishi yo‘lga qo‘yildi.**

**1.2.1.-rasm. V. Gumboldtning “akademik erkinlik”ga oid islohotlari**

Pedagogikaga “element ta’lim tizimi”ni joriy etgan I.G.Pestalozsi shaxsda tashabbusni shakllantirishga, uni o‘qishga, o‘rganishga undash orqali o‘zida havaskorlik faoliyatini shakllantirishga intildi. Havaskorlik (samodeyatelnost) shaxsni o‘z ustida ishlashga, tashabbus ko‘rsatib izlanishga undashi zarur, degan g‘oya I.G.Pestalozsi pedagogik merosining o‘zagini tashkil etadi. Matnlarni yodlash, ularni shunchaki takrorlash, tayyor chizmalar va ko‘rsatmalar doirasida fikrlash, muallim aytgan narsalarni takrorlash, tazyiqlar bilan o‘rgatish

metodlarini u rad etadi, ta’lim jarayoni shaxsda o‘qishga, o‘rganishga havas uyg‘otishi, tashabbus ko‘rsatishga undashi zarur. Jismoniy, mehnat, axloqiy va aqliy tarbiya shaxs tashabbusini rad qilmaydi, balki, aksincha, barcha tarbiya jarayoni, qiziqishni shakllantiruvchi metodlar o‘quvchida faollikni uyg‘otishi zarur. Albatta, u mazkur g‘oyaga darrov kelmagan, turli metodlarnni, hatto o‘z farzandini o‘qishga zo‘rlash usulini ham qo‘llab ko‘rgan[1]. O‘quvchi faolligi pirovard natijada “tarbiyaviy aktlar”da, ya’ni shaxsnng o‘z burchiga, mehnatiga, oilasiga va jamiyatga bo‘lgan keng munosabatlarida o‘z ifodasini topadi. I.G.Pestallozsining shaxsda “tarbiviy tashabbus”ni shakllantirish g‘oyasi butun tarbiya va ta’lim tizimiga tadbiq etilgan metoddir.

Navbatdagi bizning muammo bilan bog‘liq bo‘lgan, pedagogika tarixida muhim o‘rin, iz qoldirgan liberal demokrat, siyosatchi va pedagog A.V.Disterveg (1790-1866)dir. Manbalarda ko‘rsatilishicha, Disterveg ta’lim, tarbiya, davlat siyosati, astronomiya, geometriya, fizika, tibbiyot, badiiy ijod muammolari bilan shug‘ullanib, 20 ortiq kitoblar qoldirgan. U diqqatini asosan maktab pedagogikasiga qaratgan, ba’zi publitsistik asarlarida kattalar ta’limi masalalarini ham tilga oladi. U pedagogikaga taklif etgan tabiatga yaqinlik, madaniyatga yaqinlik va shaxsiy tashabbus tamoyillari hanuzgacha qimmatini yo‘qotmagan. Uning fikriga ko‘ra, ta’lim-tarbiyaning bosh vazifasi shaxsdagi qobiliyat va iste’dodni aniqlash, shaxsni individual xususiyatlariga muvofiq tarbiyalash, kishidagi imkoniyat va qiziqishlarni hisobga olgan tarzda tarbiya jarayonini tashkil etish zarur. Disterverg maktab va ta’lim jarayonlariga cherkov va din arboblarining aralashishini qoralagan, ta’lim asosan dunyoviylik tamoyiliga qurilishi zarur, deb bilgan. Disterveg, Komenskiy va Russo kabi liberal demokratik g‘oyalar tarafdori sifatida ta’lim jarayonlarida shaxs tashabbusini, erkinligni tarbiyalashga katta e’tibor bergan. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, “agar Komenskiy birinchi buyuk didaktikani yozgan bo‘lsa, Disterveg ikkinchi buyuk didaktikani yozgan liberal demokrat, pedagogdir”[2].

---

[1] Пинкевич А.П. И.Г.Песталоции. — Москва: Directmedia, 2014. С.162-168.

[2] Канке В., Берулава М. История, философия и методология педагогики и психологии. Учебное пособие. -Москва: Юрайт, 2015. С.328-330;

Yoshlarga zamonaviy bilim berish, ularni yangicha fikrlash, yangicha o‘qish va o‘qitish usullariga isloh kiritishda jadidchilik namoyondalarini yangicha ta’lim-tarbiyaviy harakatlarining o‘rni ham kattadir. Sharq va G‘arb tillarini o‘rgatish, darsliklar yaratishda, Jadidchilik harakatining eng muhim tomonlaridan biri ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu g‘oyalar o‘qish va o‘qitish usullariga isloh kiritish-yangi usul o‘qitishlarni tashkil etish, yoshlarga zamonaviy bilim berish, Sharq va G‘arb tillarini o‘rgatish, darsliklar yaratishda, ayniqsa, yorqin ko‘rinadi. Ular yangi tashkil etilgan maorif tizimi orqali shakllanib kelayotgan yoshlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga intilganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, G‘ozi olim Yunusov, Abdurauf Fitrat va boshqalar Istanbul va Qohira universitetlarida, Mirmo‘xsin Shermuhammedov, Mo‘minjon Muhammadjonov, Lutfulla Olimi, Shokir Sulaymonlar Ufa va Orenburg madrasalarida o‘qiganliklari haqida ma’lumotlar bor. XIX asr oxiri-XX asr boshidan Turkiston va Buxoro jadidlarining buyuk nomoyondalari Munavvarqori Abdurashidxonov, Maxmudxo‘ja Bexbudiy, Abdulla Avloniy, So‘fizoda, Siddiq-Ajziy, Salohiddin domla va boshqalar “usuli jadid” maktablarini ochishga, yoshlarni dunyoviy bilimlarni egallashga, “millat ravnaqi” uchun harakat qila boshladilar. Jadidlar yangi usul maktablarida o‘qigan, ilmli va zamon talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalash uchun kurashdilar. Bu bilan ularni o‘lkaning ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy taraqqiyotida muhim o‘rinlarda bo‘lishi, Turkistonning ravnaq etishiga salmoqli hissa qo‘shishlariga ishonganlar.

Munavvarqori Abdurashidxonov o‘zining pedagogik va ijtimoiy-madaniy faoliyati bilan Turkiston madaniyati-ma’naviyati ravnaqqi uchun kursh olib bordi. Munavvarqori Abdurashidxonov o‘zi ochgan yangi usul maktablari va maorifdagi yangicha tizim Turkistonning o‘sib kelayotgan yosh avlodiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi uchun ko‘p harakat qilgan. Bunda Munavvarqori yoshlarni dunyoviy bilimlarni egallashga va mustaqil davlat tuzish borasidagi faktlarini targ‘ib qildi.

Munavvarqorining izdoshlaridan bo‘lmish Abdulla Avloniy ham o‘zbek milliy pedagogikasini taraqqiy ettirish va xalq maorifi ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun o‘zining salmoqli hissasini qo‘shdi. Avloniy 1904-yilda Mirobodda, so‘ngroq Degrezlikda (1903-1914) xuddi shunday yangi usulda, yangicha maktab ochib, dars berdi

va darsliklar yozdi. Uning maktabi dunyoviy va diniy bilimlarni bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok eta olish qobilyatiga ega bo‘lishini ta’minlaydigan haqiqiy xalq maktabi ochgan. A.Avloniy “Ilm-dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur”[1], deb hisoblaydi. A.Avloniy xulqlarni an’anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippakrat, Platon, Aristotel, Sa’diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy me’zon qilib oladi.

Har qanday ta’qiblar va moliyaviy qiyinchiliklarga qaramasdan, Turkistonning boshqa shaharlarida ham yangi usul maktablari birin-ketin ochila boshladi. Samarqandda Turkiston jadidlarining otasi nomini olgan, buyuk ma’rifatparvar pedagog, jurnalist, mufti Maxmudxo‘ja Behbudiy ham “jadid” maktabini ochib, mahalliy bolalarni bilimli, ma’rifatli qilib tarbiyalash uchun intildi. Milliy maorif va madaniyatni rivojlantirish maqsadida M.Behbudiy Samarqandda 1908-yili Turkistonda birinchi mahalliy aholi uchun “kutubxona-qiroatxona” ochib, o‘z mablag‘lari hisobidan uning fondini boyitib boradi. Xalq asta-sekin bo‘lsa-da, yangi usul maktablariga ishonch bilan qaray boshlagan va jadidlarning “Xalqi olam usuli jadid va ilmli zamoniy ila osmonlarg‘a uchar”[2] degan so‘zlarining haqiqatga yaqin bo‘lishiga ishondi. Chunki yangi usul maktablarida o‘qigan bolalarning dunyoqarashi eski maktab o‘quvchilarinikidan ancha ustun bo‘lgan. Uning 1901-yildan boshlab “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Turkiston viloyati gazeti”, “Tujjor”, “Osiyo”, “Hurriyat”, “Turon”, “Ulug‘ Turkiston”, “Najot”, “Tarjumon”, “Sho‘ro”, “Vaqt”, “Samarqand”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallarda nashr qilgan ishlari esa akademik erkinlik muammosiga mos bo‘lib, bevosita yoshlarning diqqat e’tiborini qozongan.

Akademik erkinlik g‘oyasini talabalarda shakllantirishning ayrim jabhalari G.N.Ibragimova[38], M.Tashpulatova[84], X.M.Tajiboyev[85], M.B.Urazova[86], R.Z.Asamova[18], N.A.Muslimov[59]larning ilmiy tadqiqotlarida ham o‘rganilgan.

Umumiy holda e’tirof etishimiz mumkinki, tadqiqotimiz davomida “akademik erkinlik” tushunchasining ijtimoiy va shaxsga

[1] А.Авлоний “Туркий гулистон ёхуд ахлок.” – Т. 1992. Б.23.
[2] Бехбудий М. “Бизни холлар ва ишлар.” // Ойна. 1914.№13. Б-202.

yo‘naltirilgan izchil innovatsion ta’limning barqarorlashtiruvchi, uyg‘unlashtiruvchi va baholovchi pedagogik mezonlari, tarixiy tajriba, odob-axloq, ma’naviy ehtiyoj kabi substansional negizlari hamda ta’lim sohasi infratuzilmalarini takomillashtirishning zamonaviy epistemologik asoslari shakllantirildi.

Pedagogikada, ta’lim tizimida liberal demokratik g‘oyalarning tarqalishi umumiy ijtimoiy-tarixiy jarayonlarga muvofiq edi, albatta. Universitet ta’limi goho ushbu g‘oyalarni tarqatuvchisi va tashabbuskori sifatida kelgan, undagi taraqqiyparvar fikrlovchi olimlar, professorlar nafaqat ta’limni takomillashtirish, yangi bilimlar va metodlarni olib kirish, shuningdek, jamiyatdagi dogmatik qarashlarni va ta’lim tartiblarini o‘zgartirish, bu borada zarur islohotlarni amalga oshirish, akademik erkinlikni keng joriy etish haqida ham qayg‘urganlar. Universitetlardagi akademik erkinlik jamiyatdagi shaxs erkinligini ta’minlash, hurfikrlik, ilm-fanga e’tibor, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash, adolat va tenglikni o‘rnatish, liberal demokratik qadriyatlarni qaror toptirish orqali butun ta’lim va tarbiya tizimini qayta qurish g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq edi. Erk va demokratiya masalalari tobora pedagogika va ta’lim sohasida, universitetlar auditoriyalarida muhokama qilinadigan bo‘ldi, ayrim erksevar yoshlarni esa inqilobiy harakatlar doirasiga olib chiqdi. Aslida akademik erkinlikning ijtimoiy- siyosiy jarayonlarga dahli yo‘q edi, biroq erkinlik g‘oyasi shunday maftunkor ediki, u uzoq asrlardan beri erkinlik istagan tafakkurga, aql-u idrokka najot qal’asi bo‘lib tuyulmasligi mumkin emas edi. Ta’lim, universitet shaxsga shunchaki bilimlar berish bilan chegaralanib qolmasligi, balki uni ijtimoiy hayotning faol ishtirokchilariga, yangilanish tashabbuskorlariga aylantirishi kerak edi.

## 1.3. Akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning mavjud holati.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi global ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sharoitida tub transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Axborotlashuv, bilimlar iqtisodiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivoji oliy ta’lim oldiga an’anaviy kasbiy tayyorgarlikdan tashqari, mustaqil fikrlovchi, ilmiy izlanishga qodir va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda.

Ushbu jarayonda akademik erkinlik zamonaviy oliy ta'limning muhim nazariy asosi va tizim hosil qiluvchi pedagogik kategoriyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik nazariya nuqtai nazaridan qaralganda, zamonaviy oliy ta'lim bilimlarni tayyor shaklda uzatishga emas, balki ularni faol ravishda yaratish, qayta talqin etish va ilmiy asosda qo'llash jarayoniga yo'naltirilgan. Bu esa ta'lim jarayonining reproduktiv modelidan produktiv va ijodiy modelga o'tishini taqozo etadi. Mazkur o'zgarishlar sharoitida akademik erkinlik shaxsning bilish faolligini, ilmiy qiziqishini va intellektual mustaqilligini ta'minlovchi zarur pedagogik shart sifatida maydonga chiqadi.

Zamonaviy pedagogik paradigmalarda oliy ta'lim shaxsga yo'naltirilganlik, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik pedagogika va tadqiqotga asoslangan ta'lim g'oyalari bilan tavsiflanadi. Ushbu paradigmalar umumiy jihatdan talabaning faol subyekt sifatidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, ularning har biri akademik erkinlik tamoyiliga tayanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabaning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olishni talab etsa, kompetensiyaviy yondashuv mustaqil bilim egallash va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishni nazarda tutadi. Konstruktivistik pedagogika esa bilimlarni talaba tomonidan faol ravishda quriladigan jarayon sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuvlarning barchasi akademik erkinliksiz to'laqonli amalga oshishi mumkin emas.

Akademik erkinlik zamonaviy oliy ta'limda talabaning bilish jarayonidagi pozitsiyasini tubdan o'zgartiradi. Talaba bilimlarni passiv qabul qiluvchi obyekt emas, balki ilmiy haqiqatni izlovchi va yaratishga intiluvchi subyekt sifatida shakllanadi. Bu holat ta'lim jarayonida mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va refleksiv faoliyatning ustuvorligini ta'minlaydi. Natijada oliy ta'lim jarayoni shaxsning intellektual va ilmiy rivojlanishini ta'minlovchi muhitga aylanadi.

Zamonaviy oliy ta'limda universitet instituti ham o'zining an'anaviy vazifalarini qayta ko'rib chiqmoqda. Universitet nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki ilmiy izlanishlar, intellektual munozaralar va madaniy rivojlanish markazi sifatida qaralmoqda. Ushbu missiyaning amalga oshishi akademik erkinlik tamoyilisiz mumkin emas. Akademik erkinlik universitetda ilmiy tafakkur va

ijodiy muhitni shakllantirib, ta’lim va ilmiy tadqiqotning uzviy birligini ta’minlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan, akademik erkinlik universitet ta’limining mazmunini boyituvchi va chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Talabaning ilmiy izlanishga jalb etilishi ta’lim jarayonining ichki mexanizmi sifatida namoyon bo‘lib, u bilimlarni amaliy va nazariy jihatdan chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Bunday sharoitda ta’lim jarayoni tayyor bilimlarni uzatishdan ko‘ra, ilmiy muammolarni qo‘yish, tadqiqot savollarini shakllantirish va ilmiy xulosalar chiqarishga yo‘naltiriladi.

Akademik erkinlik ta’lim va ilmiy tadqiqot integratsiyasini ta’minlovchi muhim nazariy asos sifatida ham qaraladi. Zamonaviy oliy ta’limda ilmiy-tadqiqot faoliyati alohida yoki qo‘shimcha faoliyat sifatida emas, balki o‘quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida tushuniladi. Talabaning ilmiy faoliyatga jalb etilishi uning intellektual faolligini oshiradi, bilishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va mustaqil ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur jarayonda akademik erkinlik talabaning ilmiy muammo tanlash, tadqiqot metodlarini aniqlash va ilmiy natijalarni talqin qilishda nisbiy mustaqillikka ega bo‘lishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, akademik erkinlik mas’uliyat bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Erkinlik va javobgarlikning muvozanati zamonaviy oliy ta’limning muhim pedagogik qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Talaba ilmiy faoliyatda erkin bo‘lar ekan, u ilmiy halollik, akademik etikaga rioya qilish va o‘z ilmiy natijalari uchun javobgarlikni ham zimmasiga oladi.

Zamonaviy oliy ta’limda talaba subyektivligining shakllanishi akademik erkinlik bilan bevosita bog‘liqdir. Talaba o‘z ta’lim trayektoriyasini ongli ravishda rejalashtirish, ilmiy qiziqishlarini aniqlash va o‘z faoliyatini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu holat talabaning o‘zini-o‘zi rivojlantirish va refleksiya jarayonlarini faollashtiradi. Pedagogik jihatdan qaralganda, akademik erkinlik shaxsning o‘zini ilmiy subyekt sifatida anglashiga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy oliy ta’limda akademik erkinlikning mazmuni yanada kengaymoqda. Ochiq ta’lim resurslari, elektron kutubxonalar va ilmiy ma’lumotlar bazalarining mavjudligi talabaning bilim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada

oshiradi. Shu bilan birga, axborotning haddan tashqari ko‘pligi akademik erkinlikni ongli tanlov va tanqidiy tahlil bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Demak, raqamli muhitda akademik erkinlik axborot madaniyati va ilmiy mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, akademik erkinlik zamonaviy oliy ta’limning paradigmatik asosi bo‘lib, u universitet missiyasini, ta’lim va ilmiy tadqiqot integratsiyasini hamda talabaning ilmiy subyektivligini belgilovchi fundamental pedagogik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Akademik erkinlik sharoitida oliy ta’lim shaxsni tayyor bilimlar bilan qurollantirishdan ko‘ra, uni mustaqil fikrlovchi, ilmiy izlanishga qodir va ijtimoiy mas’uliyatli subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu nazariy yondashuv akademik erkinlikni zamonaviy oliy ta’lim pedagogikasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv va integratsiya ta’lim tizimini ham qamrab olgan. Aslida globallashuv va integratsiya nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga, shuningdek, ilm-fan, ta’lim, kreativ shaxsni shakllantirish, ma’rifiy ishlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ilmiy tadqiqotlarda, asosan, e’tibor ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga qaratilsada, globallashuv va integratsiya ta’lim sohasidagi jarayonlarga ham ta’sir etib, global ta’lim muhitini shakllantirmoqda.

Globallashuv (globalizatsiya)-lotincha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. “Global” tushunchasi lug‘aviy ma’nosi nuqtayi nazaridan fransuz tilida “umumiy”, lotin tilida esa “globus”- Yer shari” ma'nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma’noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o‘ziga qamrab oladi[121].

To‘g‘ri, akademik erkinlik g‘oyasi globallashuv jarayonlardan ilgari paydo bo‘lgan, ammo o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan globallashuv va integratsiya ta’lim tizimlarini, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarini, universitetlardagi sotsiopedagogik tajribalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida qayta

tashkil etishga olib keldi. Bu jarayonga AQSh va Yevropa ta'lim tizimi, universitetlari asos qilib olindi. Natijada g'arb ta'lim modeli global voqelik sifatida qaraladigan bo'ldi. Xalqaro tashkilotlar tomondan ishlab chiqilgan reytinglar ilmiy ishlarga va universitetlar faoliyatiga berladigan baholar ana shu mezonlarga muvofiq bo'lishi tartibi shakllandi.

XXI asrda oliy ta'limning ijtimoiy taraqqiyot, shaxsni shakllantirish, dunyoda barqaror va tinch rivojlanishni ta'minlashdagi o'rnini qayta baholash uchun 2019 yili BMT va 2022-yili 18-20-mayda YUNESKO Ispaniyada maxsus Butunjahon konferensiyasini o'tkazdi. Unda barcha davlatlarga yordam beradigan muhim tavsiyalar, "yo'l xaritasi" sifatida ishlab chiqildi va qabul qilindi. Unda quyidagi tamoyillarga tayanish zarurligi ko'rsatildi:

1) ta'limda inklyuzivlik, tenglik va rang-baranglik;
2) akademik erkinlik va qiziquvchi tomonlarning qatnashishi;
3) tanqidiy fikr va kreativlik;
4) soflik va etika;
5) barqaror rivojlanishga xayrixohlik va sotsial mas'ullik;
6) raqobat o'rniga hamkorlik[125].

Mazkur tamoyillar OTMlar faoliyatiga 2030-yilgacha joriy etilishi, shu tarzda global ta'lim muhitini yaratishga erishish mumkinligi nazarda tutildi.

Xorijiy tajribalarni o'rgangan olimlar universitetlardagi global ta'lim va akademik erkinlikni turlicha baholashadi. Ba'zi tadqiqotchilar ularni "haqiqatnni izlash" kabi falsafiy konsepsiyaga muvofiq baholash tarafdorlaridir. Global ta'lim va akademik erkinlik shunchaki bilim olish yoki bilim bershni tashkil etish emas, u insonga xos bo'lgan falsafiy voqelik "haqiqatni izlash" xohishi bilan bog'liqdir[121]. Bu o'rinda haqiqatni keng ma'noda, "ekzistensial ehtiyoj" (A.Maslou iborasi) tarzida tushunmoq kerak. Ilm-fan, aqliy izlanishlarning barchasi haqiqat izlaydi, uni topishga intiladi, hatto unga yetish mumkin emasligini bilgan taqdirda ham ular haqiqatni izlashdan tinmaydi. Insonga xos ushbu "ekzistensial ehtiyoj"ni nazarda tutish sotsiopedagogik jarayonlarni tashkil etish va olib borish uchun ham muhim. Amerikadagi universitetlar professorlarining akademik erkinlik va "amerika modeli"ning jahon ta'lim tizimiga ta'siri borasidagi fikrlarini maxsus o'rgangan K.Keytning yozishicha, bu model erkin

darslar o‘tish, mustaqil tarzda tadqiqotlar olib borish, mavzu va muammolarni erkin tarzda muhokama qilish, har kimning fikr va e’tirozlarini eshitish, ta’lim jarayonini ochiq, demokratik qilish kabi jihatlari bilan global ta’limga ta’sir o‘tkazmoqda. Amerikalik tadqiqotchilar ilgari surayotgan global fuqarolik jamiyati[80] ta’lim jarayonini ham ochiq qiladi, undagi sotsiopedagogik jarayonlardan tortib, to ilmiy izlanishlargacha universitet, ilmiy jamoasining o‘zini o‘zi boshqarish organlarigacha demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritadi[1].

Bozor iqtisodiyoti global ta’lim jarayonlariga ta’sir etib, universitetlar va OTMlarini pul topishga undadi. Natijada bozor iqtisodiyoti, pul topish bilan akademik erkinlik uyg‘un qaraladigan bo‘ldi. OTMlari ijtimoiy-pedagogik jarayonlarini amaliyotga integratsiyalash talabi esa ushbu yondashuvning bir shakli edi[120]. Global ta’lim hali shakllanmagan bo‘lsada, universitetlarning bugungi rivoji OTMlar oldiga ma’lum bir talablar qo‘yayotganini ko‘rmaslik mumkin emas[2].

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, OTMlar bozor iqtisodiyotidan, ayniqsa, hudud etnosotsial muammolaridan tashqarida turolmaydi, jamiyatda qaror topgan bozor demokratiyasi o‘z navbatida ta’lim, ayniqsa, oliy ta’lim, kadrlar tayyorlash tizimiga ta’sir etmay qolmaydi. Xalq xo‘jaligi, ijtimoiy sohalar va xududlarga zarur oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash bilan band OTMlar jamiyat talablaridan kelib chiqadi, har bir kadrini ana shu talablarga yo‘naltiradi. Bozor iqtisodiyoti esa kadrlardan shunchaki diplomni emas, balki real, hayotiy, etnosotsial va iqtisodiy muammolarni hal qila oladigan, sohaga innovatsion yondashuvlarni olib kiradigan bilimga ega bo‘lishni taqozo qiladi. OTM talabaga mehnat jarayonlari, mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi, ish o‘rinlarini tashkil etish texnologiyasi, mehnat jamoasini boshqarish ko‘nikmasi, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, davlatning ishsizlikni bartaraf etish va ijtimoiy himoya siyosatidan xabardor bo‘lish, darlomatlar va budjet mablag‘lardan foydalanish, moliya-bank tizimlari, soliq qo‘mitalari,

---

[1] Keith K. M. Faculty Attidudes Toward Academic Fretdom Tenure, Teachihg and Research. Univercity of Southtrn Califoria, 1996

[2] Фуллер С. Социология интеллектуальной жизни: карьера ума внутри и вне академии. — Москва: Изд. Дом “Дело” РАНХ иГС, 2018

buxgalteriya hisobot ishlari, menejment va marketing asoslari kabilar haqida bilimlarga ega bo‘lish talab qiladi.

**Oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy-pedagogik jarayonlarini amaliyotga integrasiyalash talabi quyidagicha:**

**Bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq universitetlarga akademik erkinlik va o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minlash imkonini berish;**

**Ta’lim va kadrlar tayyorlashni bozor konyukturasiga va hududlarning etnosotsial extiyojlariga muvofiqlashtirsh;**

**Universitetlarning dars jadvallarini, soatlar taqsimotini va qanday kasb-korga o‘rgatishni mustaqil tarzda, buyurtmachilar talablariga muvofiq belgilash huquqini berish;**

**Professor va talaba o‘rtasidagi munosabatlarni tobora erkinlashtirish, ular o‘rtasidagi to‘siqlarni minimallashtirish;**

**Universitetning ichki (ilmiy kengash, fakultetlar kengashi) va tashqi (jamoatchilik kengashi, vasiylar va homiylar kengashi, fuqarolik jamiyati institutlari) nazoratda bo‘lishiga erishish;**

**Universitet va davlat hokimiyati, boshqaruv organlari bilan o‘rnatiladigan aloqalar doirasi va funksiyalarni qaytadan ko‘rib chiqish, o‘rnatish;**

**Universitetlarning xalqaro tashkilotlari va uyushmalarini, asossiasiyalarini tashkil etish orqali ular mustaqilligini himoya qilishning global mexanizmlarini yaratish;**

**Talabalarni ilmiy va innovatsion izlanishlarga jalb etish orqali ularda akademik mobillik, faolliknni shakllantirish;**

**Xududning talablaridan kelib chiqib qabul kvotalarini shakllantirish va hudud intellektual saloxiyatini yuksaltirish.**

***1.3.1-rasm.*** **Oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy-pedagogik jarayonlarini amaliyotga integrasiyalash talabi**

OTMlar uchun bozor iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash yoki uning talablarini joriy etish murakkab jarayondir. Ular bir yo‘la ikki, bir tomondan, ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, tashkillashtirish, ikkinchi tomondan, bozor talablari va etnosotsial extiyojlarni muntazam

o‘rganib borish, ularni OTM sharoitiga moslashtirib tadbiq etish. Bozor munosabatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri OTMga joriy etib bo‘lmaydi, bozor munosabatlarida barqaror ta’lim tizimini buzishga qaratilgan jihatlar ham borligini unutib bo‘lmaydi.

Masalan, bozor munosabatlari o‘z molini tez va yuqori narxda pullashni yoqtiradi, agar ushbu talabni to‘g‘ridan to‘g‘ri OTMga tatbiq etsak, ta’lim jarayonini kim pul to‘lasa, sotib olishga qodir bo‘lsa, ana shungagina kadr tayyorlab berish tartibiga o‘tishga to‘g‘ri keladi. Dunyoda bunday talab bilan ishlaydigan universitet yo‘q, hatto eng ilg‘or universitetlar (masalan, Kembrij yoki Bolone universitetlari) ham davlat (munitsipial boshqaruv), homiylar, yirik metsenatlarning moddiy qo‘llab-quvvatlashiga tayanadi. Ular to‘g‘ridan to‘g‘ri bozorga chiqib o‘z “tovarlari”ni, “mahsulot lari”ni taqdim etavermaydi, balki ratsional boshqarish va o‘zining akademik imkoniyatlaridan kelib chiqib, xizmatlarini taqdim etadi. To‘g‘ri, keyingi yillarda ularda chet ellik, ayniqsa, sobiq SSSR hududidagi yoshlarni jalb etish alohida yo‘nalish sifatida shakllantirilmoqda. Bunga ushbu universitetlardagi faqat akademik salohiyat yoki intellektual bagaj sabab bo‘layotgani yo‘q, g‘arbda yoshlar o‘rtasida oliy ta’limga bo‘lgan qiziqishning kamayib ketgani bosh sababdir. Shuning uchun ular xorijiy talabalarni jalb etish orqali universitetlar, mamlakat oldidagi iqtisodiy va ijodiy hamda ichki sotsiodemografik muammolarini hal etishni ko‘zlashadi. Ular tomonidan o‘ylab chiqilgan reytinglar, xalqaro modellar va jahon standartlari kabilar milliy universitetlardagi o‘ziga xosliklarga barham berish orqali global ta’lim tizimini yaratishdir. Bu tizim, avvalo, g‘arbona tizim, u milliy ta’lim tizimlarini o‘ziga bo‘ysundirishni nazarda tutadi. OTMlarga bozor iqtisodiyotiga o‘tkazish yoki ularda akademik erkinlik tamoyilini joriy etish global ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan bo‘lib, unda nafaqat ijobiy, shuningdek, salbiy ta’sir etuvchi jihatlar ham borligini esdan chiqarib bo‘lmaydi. G‘arbdagi akademik erkin, mustaqil universitetlar o‘z davlatining siyosatidan mutlaq erkin, mustaqil emas, ular xorijiy yosh intellektlarni o‘ziga jalb etish, ularga turli yengilliklar berish orqali mamlakat oldida turgan yuqoridagi muammolarni hal etishga o‘z hissalarini qo‘shishga intiladilar. Buni xorijiy universitetlarda ta’lim olgan yoshlarning aksariyati o‘sha joylaroda qolib ketayotgani, qaytib kelayotganlari esa afsus qilishini

bildirayotgani ham tasdiqlaydi[127]. Shunday ekan, OTMga bozor iqtisodiyoti talablarini joriy etishga ehtiyotkor bo‘lish talab etiladi, unga bir tomonlama yondashib bo‘lmaydi.

Bozor kon’yukturasi nihoyatda tez o‘zgaruvchan, beqaror. Unga moslashish oson kechmaydi. Shu bilan birga, OTMlar har doim ham xalq xo‘jaligi uchun zarur kadrlar tayyorlashda bozor talablaridan kelib chiqishi shart emas. Masalan, tibbiyot sohasida xirurg, pediatr, stomatolog, oftalmolog, nevropotolog, kardiolog kabi mutaxassislarni bozor iqtisodiyotiga qarab emas, balki mamlakatdagi ijtimoiy tibbiy vaziyatga, aholining tibbiy yordamlarga muhtojligiga qarab tayyorlashadi. Bu ta’lim tizimi barqarorligi, bozor ketidan chopavermasligi va korrupsiyaga moyilligi bilan davlatning barqaror talablariga ko‘ra ishlashi bilan ajralib turadi. Agar davlatning barqaror talablari bo‘lmasa, soha korrupsiya manbaiga aylanadi, bu hol salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Demak, OTMning barcha sohalari ham bozor kon’yukturasi ketidan ergashib ketavermaydi. Pedagogika, madaniyat va ma’naviyat, harbiy sohalar uchun kadrlar tayyorlovchi OTMlar ham bozor kon’yukturasi talablariga juda ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Ushbu yo‘nalishlarda barqarorlik, hatto konservatizm ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Bozor kon’yukturasi, avvalo, mehnat bozori bilan bog‘liqdir. Mutaxassislarning fikricha, mehnat bozori “mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo‘lgan va band bo‘lmagan qismlari va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi kontraktlar (mehnat kelishuvlar) asosida “mehnatga qobiliyatlarini” harid qilish sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkaab, ko‘p aspektli, o‘suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir. Uning vazifalari: ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish; bozor uslubida xo‘jalik yuritishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish; mehnat resurslarinng oqilona bandligini ta’minlashga bevosita ta’sir ko‘rsatish; ishsizlar ish topishiga, ularning malakasi va raqobat qobiliyatini oshrishga ko‘maklashish; ishlab chiqarish xarajatlarni qisqartirish va mehnat taqsimotini o‘zgartirishdir[14]. Demak, OTMlar ushbu mehnat bozori kon’yukturasi va talablariga

muvofiq kadrlar tayyorlashni amalga oshirishi lozim. Bu esa, tabiiy ravishda, OTMlarda maxsus marketing bo‘limi bo‘lishini taqozo etadi. AQSh, Germaniya, Fransiya va Rossiya davlatalridagi yirik universitetlarida maxsus marketing bo‘limlari mavjud bo‘lib, ular xizmat ko‘rsatishni bozor kon’yukturasini o‘rganib borish orqali amalga oshiradilar. Shu maqsadda Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi taklifiga muvofiq universitetlar tizimi.

**Yevropa universitetlari assotsatsiyasi taklifiga muvofiq universitetlar tizimi modeli:**

1. **Tashkiliy o‘quv ishlari;**
2. **Moliyaviy va marketing ishlari;**
3. **Kadrlar bilan ishlash va ularni tayyorlash bo‘limi;**
4. **Akademik avtonomiya bo‘limlari tashkil etilgan;**

**1.3.2-rasm. Yevropa universitetlari assotsatsiyasi taklifiga muvofiq universitetlar tizimi modeli**

Ushbu model zamonaviy universitetlarda ham o‘z ifodasini topmoqda, ya’ni universitetlar faoliyati ana shu tizimlar orqali olib boriladi va baholanadi. Global ta’limda shakllanayotgan ushbu tizimlar mutlaq yangi emas, albatta. Ularda avvalgi tajribalar ham mujassamdir. Masalan, davlat tomonidan ajratiladigan budjet mablag‘larining sarflanish tartibi, ya’ni moliyaviy ishlar, hisob-kitob, kadrlarga maoshlar to‘lash, moddiy rag‘batlantirish, komandirovkalar haqlari, talabalar turar joylarini bezatish va boshqa tadbirlar tartibi deyarli o‘zgarmay keladi. Universitetlarning moliyaviy sarf-xarajatlar ishlarida davlat tomonidan o‘rnatilgan tartiblar barqaror tartiblar sifatida saqlanib turibdi. Global ta’limda universitetlarning molyaviy mustaqilligi e’tirof etilayotgan, akademik mustaqillikni moliyaviy mustaqillik bilan mustahkamlash masalalari tadqiqotchilar e’tiborni tortayotgan bo‘lsa-da, bu masalada global yaqinlik borligi hali sezilmaydi. Mustaqil rivojlanishga o‘tgan yosh davlatlardagi OTMlar esa an’anaviy tartiblardan hali voz kechganlaricha yo‘q.

Universitetlarning dars jadvallarini va soatlar taqsimotini, kadrlar tayyorlash tizimini mustaqil o‘rnatishi akademik erkinlikning eng muhim yo‘nalishidir. Global ta’lim g‘oyasini qo‘llab-quvvatlovchi Xalqaro akademiyalar uyushmasi ikki muhim tamoyilni ilgari suradi:

-birinchisi, universitet ichida yoki undan tashqarida haqiqatni aniqlashtirishga qaratilgan har qanday savolni kun tartibiga qo‘yishda “to‘liq erkinlik” ta’minlanishi;

-ikkinchisi, universitetlar va ilmiy tadqiqot tashklotlari o‘z a’zolarining akademik erkinligini taqiqlash hamda xodimlarining chiqishlarini ularga qarshi chora sifatida ishlatish huquqiga ega emasligini o‘rnatishdir.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, hanuzgacha Yevropaning aksariyat universitetlari faoliyatiga davlat aralashadi, ba’zilari esa davlat budjetidan mablag‘ oladi. OTMning ichki ishlariga hatto rektor yoki uning yordamchilarni saylashga ham davlat aralashuvi kuzatiladi. Universitetlarnng barqaror ishlashi uchun uzoq muddatlarni o‘z ichiga oladigan davlat moliyalashtirishi muhim o‘rin tutadi. Masalan, bunday moddiy ta’minlash uchta universitetda bir yildan oshadi, qolgan 24 universitetda esa faqat bir yilga ajratiladi[1]. Moliyaviy qaramlik akademik mustaqillikning antipodi, bunday sharoitda universitetning akademik erkinligi haqida gapirish qiyin. Fransuz universitetlarida dars o‘tish tillari qilib milliy til, Belgiya va Latviya kabi davlatlarda esa qaysi tildan foydalanishni esa davlat belgilab beradi. AQShda “akademik erkinlik” tushunchasi va tartibi mamlakat Oliy sudi tomondan o‘rnatilgan bo‘lib, unga ko‘ra universitet kim dars berishi mumkinligini va universitet qancha talaba qabul qilishini erkin tarzda o‘zi belgilaydi. Virginiya shtati sudi (2008) esa akademik erkinlikni alohida tarzda har bir professorga yoki talabaga emas, balki muassasa (universitet)ning o‘ziga taalluqli deb belgilab bergan. Hatto universitet professor qo‘ygan bahoni (agar bu haqda talaba appelyatsiyaga murojaat etsa) o‘zgartirishi ham mumkin. Bu professorning akademik erkinligini buzish emas, balki talabaning ta’lim olish huquqini himoya qilishdir.

AQShda qabul qilingan “Akademik lavozim va akademik erkinlik tamoyillari haqida Ariza”(1940)ga ko‘ra, akademik erkinlik ma’lum

[1] Qarang: Википедия свободной энциклопедии

bir doiradagina mumkindir. Professor o‘z chiqishlarida rahbariyati pozitsiyasini emas, balki o‘z qarashlarini ifoda etishi mumkin. Ammo bunday paytda professor o‘z nomidan gaprayotganini bildirib, ogohlantirib qo‘yishi kerak. Akademik lavozim (karera) ham shaxsning kasb-kori, kompententligiga bog‘liqdir. Uni lavozimdan mahrum etish nokompitentligi yoki tashkilot nomiga nomunosib xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Qo‘shma shtatlarda qabul qilingan “Akademik erkinlik va akademik karera haqida Bayonnoma” (1940) va Amerika universitetlari va kollejlari professorlari Assotsiatsiyasi qabul qilgan ustavlarga ko‘ra, har bir professor o‘z vazifalarini bajarish jarayonlarda qarashlarini erkin bayon qilishi, ma’muriy idoralar esa uning chiqishlarini, diniy va boshqa masalalar” bo‘yicha chegaralab qo‘yishi mumkin. Ushbu talablar professorni ishga qabul qilayotgan paytda yozma tarzda e’lon qilinadi. Mazkur shartnomaning bajarilishi maxsus, regional vakillar tomonidan shakllantirilgan deyarli barcha universitet va kollejlarda tashkil etilgan jamoatchilik organi tomonidan kuzatib boriladi. Agar ushbu shartnoma professor tomonidan buzilsa, yoki o‘rnatilgan talablarga rioya etilmasa, darrov muhokamaga qo‘yiladi.

Angliya universititetlarida “institutsional avtonomiya” amal qiladi. Ushbu tamoyilga muvofiq erkinlik professorga ham, talabaga ham taalluqli bo‘lib, ular o‘rtasidagi ijodiy dialog, bir-birining qiziqish va tayyorgarliklarini hisobga olishga undaydi.

AQSh, Angliya, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarda professorlarning asarlarini chop ettirish yoki og‘zaki chiqishlariga hech qanday to‘siq qo‘yilmagan, biroq ularda ta’limga oid jarayonlarda milliylik, o‘ziga xoslik mavjud. Masalan, Germaniyada talabalar darslarni tanlash huquqiga ega, ba’zi hollarda ular topshiriladigan imtihonlar vaqtini ham o‘zlari belgilashi mumkin. Professorlar esa dars jarayonlarini o‘zlarining ilmiy-nazariy konsepsiyalariga qurishi, ularni predmetlar doirasida asoslashi mumkin. Birinchi semestrda talabalar o‘qishga majbur predmetlar bor, ikkinchi va undan yuqori kurslarda esa, ular predmetlarni erkin tanlaydilar. Bu erkinlik universitetning akademik erkinligi dorasidadir, shuning uchun talaba duch kelgan fikrni, universitetga qarshi qarashlarni targ‘ib etib yurmasligi lozim. Fransiyada professorlar davlat xizmatchilari hisoblanadi. Ular global ta’limni shakllantirishdan ko‘ra, davlat uchun

zarur bo'lgan ichki ishlarni, ehtiyojlarni, talablarni bajarishga xizmat qiladilar. Ular ta'lim jarayonlarida siyosiy yoki diniy qarashlarni targ'ib etmasligi, belgilangan turtiblarga muvofiq dars o'tishi kerak. Fransiya Konstitutsion kengashi tomondan o'rnatilgan tartibga muvofiq, professor va uning assistenti so'z erkinligi huquqidan to'la foydalanadilar, biroq ular "universitetning an'analarini, qonunlar talablarini, tolerantlik tamoyillari va ob'ektivlikni buzmasligi kerak". Universitet xodimlarining malakaviy yoki kasbiy ko'tarilishi ma'muriy qarorlar bilan emas, balki retsenziyalar orqali amalga oshiriladi. Rossiya universitetlarida akademik erkinlik RF Konstitutsiyasi va "Oliy va oliy ta'limdan keyingi kasb-kor ta'limi haqida"gi qonunga muvofiq kafolatlangan. Ularga muvofiq har bir universitet va oliy malakali kadrlar tayyorlovchi institut o'z yo'nalishi bo'yicha zarur dasturlar ishlab chiqishi, kasb- kor yo'nalishini tanlashi, oliy attestatsiya komissiyasi va boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzishi, keng jamoatchilikni jalb qilgan holda o'zini o'zi boshqaruvchi organlar tashkil etishi, moliyaviy ishlari bo'yicha hisob-kitob berib borishi zarur. Mazkur talablarda xalqaro tajribalar, global ta'lim bilan bog'liq jihatlar (masalan, darslarni erkin o'tish, zarur kadrlarni jalb etish, kontrakt asosida chet el olimlari bilan aloqalar o'rnatish, xalqaro reyting talablarini kuzatib borish, molyaviy hisob-kitob ishlarini e'lon qilib borish kabilar) shakllangani kuzatiladi.

Global ta'lim to'g'rsida turlicha fikrlar mavjud, ular bu tizimning hal shakllanmaganini, ular haqidagi mulohazalar ko'pincha gipotetik xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. "Global ta'lim" degan tushunchaning o'zi hali bahsli, uning asosiy talablari va mezonlari aniqlab olinmagan. Yan Amos Komenskiyning "Hammani hamma narsaga va hamma narsa haqida o'rgatish" konsepsiyasi ana shu global ta'limning negizini tashkil etadi. Unga ko'ra har bir kishini, har bir insonni istagan narsaga, bilimga o'rgatish mumkin, chunki barcha insonlarga bilish imkoniyatlari berilgan. Bu imkoniyatlar esa global ta'lim konsepsiyasini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan ta'lim xalqaro integratsiya va xalqlarning bir birlariga yaqinlashuvini ta'minlaydi, dunyoqarashlarni modernizatsiyalashga imkon beradi. Bugungi pedagogik ta'limotlar va tajribalapr umuminsoniy xarakter kasb etib, madaniyatlar va etnoslarni bir biriga yaqin qilmoqda[124]. Bu jarayonlar global yaqinlashuv uchun juda muhim, ammo ular

pedagogikaga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmaydi. Pedagogikada shunday omillar mavjudki, ularni faqat tashqi global ta’sir natijasi deyish qiyin. Masalan, oila tarbiyasi avvalo oilaviy muhitdagi va oilada qaror topgan barqaror qarashlar, stereotiplar, tarbiya usullari, pand-nasihatlar va jazolash kabilarga tayanadi. Global ta’lim ushbu pedagogik tajribalarni e’tiborga olavermaydi, undagi ideal g‘arbda shakllangan tartiblarni, normalar va o‘zini o‘zi idora etish, pedtexnologiyalarga tayanadi. Etnopedagogik tajribalar bilan global ta’lim har doim ham bir biriga muvofiq kelavermaydi. Ushbu ziddiyatni umuminsoniy qadriyatlar asosida bartaraf etish mumkin, biroq hozirgi davrda bu muammolarni hal etishga oid izlanishlar o‘tkazilayotgani kuzatilmaydi. Shaxsda ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish nafaqat pedagogik jarayonlar va texnologiyani, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga va yo‘nalishga ega boshqa omillar (iqtisodiy, siyosiy, tarixiy-tarbiyaviy, etnopedagogik)ni ham hisobga olishni taqozo etadi.

Global ta’limdagi yana bir jihat shundaki, u barcha xalqlar ustidan hukmronlik qilishga harakat qiladigan, totalitar boshqarishni ma’qul ko‘radigan ideologiyaga tayanadi. Global ta’limda shunday ideologiya mavjud. Shu bois u etnopedagogik tajribalar bilan ijodiy hamkorlikka qurilmagan, balki o‘z qarashlari va qadriyatlarini, zamonaviy axborot texnologiyalari va ommaviy axborot tizimlariga asoslangan, “inson omilidan tashqarida” yaratilgan usullarga tayanishni o‘zining asosiy belgisi deb biladi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari tarbiya jarayonlarini “inson omili”siz qiladi, unda insonga, uning ruhan boy, sensitiv kechinmalariga, fluktatsion ichki kechinmalarining betakror jihatlariga asoslanish uchramaydi. Bu texnologiyalar uchun insonning o‘zi ham bir instrument, innovatsion ta’lim texnologiyalarining bir murvati xolos.

Demak, global ta’limda insonga texnologik obyekt, ulkan glabal texnologik jarayonlarning bir murvati deb qarash ustuvordir[90]. Shunday bo‘lsada, milliy ta’lim tizimlari global normalarga tayanayotganini, Yevropa ta’lim modellarini o‘zlashtirayotganini ko‘rmaslik mumkin emas. Masalan, dunyodagi ilg‘or universitetlar tomonidan yaratilgan Coursera. Org-https// www.coursera. org/; EdX-https // www. yedx.org/; Udemy-https// www.udemy.com/; LinguaLeo-http // lingualeo.ru/; busuu-http // www.busuu/ com/enc /;

TED-http // www. тed/com kabi ta'lim dasturlari bugun dunyodagi barcha universitetлarga ma'lum. Ular global ta'limning ajralmas atributlari sifatida, xalqaro munosabatlar, ayniqsa ta'lim sohasidagi tajriba almashishda qo'l kelmoqda. Tajribalar ko'rsatadiki, ilg'or pedtexnologiyalar avvalo zamonaviy axborot texnologiyalariga tayanadi, ulardagi ommaviylik, tezkorlik, samaralilik va hozirjavoblik kabi usullari orqali akademik ta'limga ham ta'sir etadi.

## Birinchi bob bo'yicha xulosa

"Akademik erkinlik" atamasi XX asrning ikkinchi yarmidan beri ishlatilayotgan bo'lsada, uning ijtimoiy negizi va pedagogik mohiyati universitet ta'limi tarixi bilan bog'liqdir. XVI asrda Yevropada paydo bo'lgan universitetlar faoliyatida dunyoviy, ilmiy qarashlarning shakllanishi, ta'lim tizimini diniy dogmatika, mutaassiblik ta'siridan holi qilishga intilishni keltirib chiqardi. Natijada dunyoviy, ilmiy bilimlarni ilohiyotshunoslik, cherkov ta'siridan ajratish g'oyasi shakllandi. Ular o'rtasidagi ziddiyatlarni, kurashlarning ilmiy, antropedagogik mohiyatini I.Kant ochib bergan. Uning falsafiy va antropologik fikrlaridan kelib chiqsak, diniy dogmatika bilan ilmiy falsafa o'rtasidagi ziddiyatlar, faylasufning yumshoq iborasi bilan aytganda, "bahslar" inson erkini, hurfikrlikni, tafakkurga erkin izlanish xosligini e'tirof etishga olib keldi.

Akademik erkinlik mohiyatan liberal demokratik qarashlar, ularning ta'lim va tarbiya, pedagogik izlanishlar bilan bog'liqdir. Universitet ta'limi oliy ta'lim pedagogikasini shakllantirdi, u maktab va maktabgacha tarbiyadan keskin farq qiladigan, subyekt (professor, muallim, tarbiyachi) va obyekt (talaba, o'quvchi, tarbiyalanuvchi) o'rtasidagi munosabatlarni dialogga, bir biriga ishonchga, obyektni o'z ustida ishlashga, yangi narsalarni yaratishga undash pedtexnologiyasiga quriladigan bo'ldi. To'g'ri, bu jarayon darrov yuzaga kelgan emas, universitetdagi hurfikrlik, ilmiy yangilikka intilish, darslarni erkin tashkil etish kabi omillar asrlar davomida shakllandi, turli nazariyalar va ta'lim texnologiyalari bilan boyitildi. Ko'p vaqtlar oila, maktabgacha va maktab ta'limi tizimlari, ulardagi pedagogik tazyiq o'tkazish usullari oliy ta'limda ham saqlanib keldi. Bu usul taraqqiyparvar qarashlar va kuchlar ta'sirida XIX asrga kelib o'zgara boshladi. Ayniqsa, R.Dekart, F.Bekon, J.Lokk, J.K.Gelvesiy,

J.J.Russo, I.G.Pestolossi, A.Disterveg, Y.A.Komenskiylarning pedagogik qarashlari va tarbiya usullari asta-sekin universitet ta’limida o‘z ifodasini topa boshladi. Mazkur mutafakkirlarning ilmiy pedagogik merosini aslo rad etmagan holda aytish mumkinki, bizning mavzumizga bevosita taalluqlisi I.Kantning fakultetlar haqidagi asaridir. Falsafa va oliy ta’lim tarixida birinchi bo‘lib I.Kant diniy bilimlar bilan dunyoviy bilimlar. ilohiyotshunoslk bilan falsafa o‘rtasidagi farqlarni ochib berdi va universitet ta’limidagi erkinlik g‘oyasi inson erkinligi, uning fuqarolik huquqi bilan bog‘liq ekanini tasdiqladi. Pedagogikaga erkinlik, hurfikrlik xos, aynan shuning uchun u boshqa fanlarda erkin fikrlash usulining paydo bo‘lishiga ko‘maklashadi. Akademik erkinlikka oid falsafiy va pedagogik har qanday ilmiy fikrlarni baholashga, tafakkurni haqiqiy bilimlar tomon yetaklashga intilishi tufayli ilm-fanning, erkinlikning rivojlanishiga yordam beradi.

Mazkur bobda talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari kompleks tarzda tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining ustuvor pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar natijasida akademik erkinlik tushunchasining mazmun-mohiyati ochib berildi hamda uning talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va ilmiy izlanish olib borish kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni asoslab berildi. Akademik erkinlik nafaqat ta’lim subyektlarining erkin faoliyat yuritishini ta’minlovchi omil, balki ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik shart sifatida namoyon bo‘lishi aniqlashtirildi.

Shuningdek, akademik erkinlik va talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasidagi konvergensiya jarayoni tahlil qilinib, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu jarayon talabalarda ilmiy izlanishlarga nisbatan motivatsiyani kuchaytirish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda innovatsion fikrlashni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Bob doirasida olib borilgan tahlillar asosida oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning mavjud holati o‘rganilib, bu yo‘nalishda qator

muammolar mavjudligi aniqlashtirildi. Jumladan, akademik erkinlik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani, talabalarning ilmiy faolligini rag‘batlantirish mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda tizimlilikning yetishmasligi kuzatilmoqda.

Umuman olganda, mazkur bobda keltirilgan nazariy qarashlar, tahlillar va xulosalar keyingi boblarda talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik model va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

# II BOB. BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLARDA AKADEMIK ERKINLIK G‘OYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

## 2.1. Global ta’lim sharoitida bo‘lajak pedagog kadrlarda akademik erkinlik g‘oyasini shakllantirishning ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlari.

Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv va integratsiya ta’lim tizimini ham qamrab olgan. Aslida globallashuv va integratsiya nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga, shuningdek, ilm-fan, ta’lim, kreativ shaxsni shakllantirish, ma’rifiy ishlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ilmiy tadqiqotlarda, asosan, e’tibor ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga qaratilsada, globallashuv va integratsiya ta’lim sohasidagi jarayonlarga ham ta’sir etib, global ta’lim muhitini shakllantirmoqda.

Globallashuv (globalizatsiya)-lotincha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. “Global” tushunchasi lug‘aviy ma’nosi nuqtayi nazaridan fransuz tilida “umumiy”, lotin tilida esa “globus”- Yer shari” ma’nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma’noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o‘ziga qamrab oladi[121].

To‘g‘ri, akademik erkinlik g‘oyasi globallashuv jarayonlardan ilgari paydo bo‘lgan, ammo o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan globallashuv va integratsiya ta’lim tizimlarini, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarini, universitetlardagi sotsiopedagogik tajribalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida qayta tashkil etishga olib keldi. Bu jarayonga AQSh va Yevropa ta’lim tizimi, universitetlari asos qilib olindi. Natijada g‘arb ta’lim modeli global voqelik sifatida qaraladigan bo‘ldi. Xalqaro tashkilotlar tomondan ishlab chiqilgan reytinglar ilmiy ishlarga va universitetlar faoliyatiga berladigan baholar ana shu mezonlarga muvofiq bo‘lishi tartibi shakllandi.

XXI asrda oliy ta’limning ijtimoiy taraqqiyot, shaxsni shakllantirish, dunyoda barqaror va tinch rivojlanishni ta’minlashdagi o‘rnini qayta baholash uchun 2019 yili BMT va 2022-yili 18-20-mayda YUNESKO Ispaniyada maxsus Butunjahon konferensiyasini o‘tkazdi. Unda barcha davlatlarga yordam beradigan muhim tavsiyalar, “yo‘l xaritasi” sifatida ishlab chiqildi va qabul qilindi. Unda quyidagi tamoyillarga tayanish zarurligi ko‘rsatildi:

1) ta’limda inklyuzivlik, tenglik va rang-baranglik;

2) akademik erkinlik va qiziquvchi tomonlarning qatnashishi;

3) tanqidiy fikr va kreativlik;

4) soflik va etika;

5) barqaror rivojlanishga xayrixohlik va sotsial mas’ullik;

6) raqobat o‘rniga hamkorlik[125].

Mazkur tamoyillar OTMlar faoliyatiga 2030-yilgacha joriy etilishi, shu tarzda global ta’lim muhitini yaratishga erishish mumkinligi nazarda tutildi.

Xorijiy tajribalarni o‘rgangan olimlar universitetlardagi global ta’lim va akademik erkinlikni turlicha baholashadi. Ba’zi tadqiqotchilar ularni “haqiqatnni izlash” kabi falsafiy konsepsiyaga muvofiq baholash tarafdorlaridir. Global ta’lim va akademik erkinlik shunchaki bilim olish yoki bilim bershni tashkil etish emas, u insonga xos bo‘lgan falsafiy voqelik “haqiqatni izlash” xohishi bilan bog‘liqdir[121]. Bu o‘rinda haqiqatni keng ma’noda, “ekzistensial ehtiyoj” (A.Maslou iborasi) tarzida tushunmoq kerak. Ilm-fan, aqliy izlanishlarning barchasi haqiqat izlaydi, uni topishga intiladi, hatto unga yetish mumkin emasligini bilgan taqdirda ham ular haqiqatni izlashdan tinmaydi. Insonga xos ushbu “ekzistensial ehtiyoj”ni nazarda tutish sotsiopedagogik jarayonlarni tashkil etish va olib borish uchun ham muhim. Amerikadagi universitetlar professorlarining akademik erkinlik va “amerika modeli”ning jahon ta’lim tizimiga ta’siri borasidagi fikrlarini maxsus o‘rgangan K.Keytning yozishicha, bu model erkin darslar o‘tish, mustaqil tarzda tadqiqotlar olib borish, mavzu va muammolarni erkin tarzda muhokama qilish, har kimning fikr va e’tirozlarini eshitish, ta’lim jarayonini ochiq, demokratik qilish kabi jihatlari bilan global ta’limga ta’sir o‘tkazmoqda. Amerikalik tadqiqotchilar ilgari surayotgan global fuqarolik jamiyati[80] ta’lim jarayonini ham ochiq qiladi, undagi sotsiopedagogik jarayonlardan

tortib, to ilmiy izlanishlargacha universitet, ilmiy jamoasining o‘zini o‘zi boshqarish organlarigacha demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritadi[119].

Bozor iqtisodiyoti global ta’lim jarayonlariga ta’sir etib, universitetlar va OTMlarini pul topishga undadi. Natijada bozor iqtisodiyoti, pul topish bilan akademik erkinlik uyg‘un qaraladigan bo‘ldi. OTMlari ijtimoiy-pedagogik jarayonlarini amaliyotga integratsiyalash talabi esa ushbu yondashuvning bir shakli edi[120] (2.1.1-rasmga qarang). Global ta’lim hali shakllanmagan bo‘lsada, universitetlarning bugungi rivoji OTMlar oldiga ma’lum bir talablar qo‘yayotganini ko‘rmaslik mumkin emas[88].

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, OTMlar bozor iqtisodiyotidan, ayniqsa, hudud etnosotsial muammolaridan tashqarida turolmaydi, jamiyatda qaror topgan bozor demokratiyasi o‘z navbatida ta’lim, ayniqsa, oliy ta’lim, kadrlar tayyorlash tizimiga ta’sir etmay qolmaydi. Xalq xo‘jaligi, ijtimoiy sohalar va xududlarga zarur oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash bilan band OTMlar jamiyat talablaridan kelib chiqadi, har bir kadrini ana shu talablarga yo‘naltiradi. Bozor iqtisodiyoti esa kadrlardan shunchaki diplomni emas, balki real, hayotiy, etnosotsial va iqtisodiy muammolarni hal qila oladigan, sohaga innovatsion yondashuvlarni olib kiradigan bilimga ega bo‘lishni taqozo qiladi. OTM talabaga mehnat jarayonlari, mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi, ish o‘rinlarini tashkil etish texnologiyasi, mehnat jamoasini boshqarish ko‘nikmasi, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, davlatning ishsizlikni bartaraf etish va ijtimoiy himoya siyosatidan xabardor bo‘lish, darlomatlar va budjet mablag‘lardan foydalanish, moliya-bank tizimlari, soliq qo‘mitalari, buxgalteriya hisobot ishlari, menejment va marketing asoslari kabilar haqida bilimlarga ega bo‘lish talab qiladi.

OTMlar uchun bozor iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash yoki uning talablarini joriy etish murakkab jarayondir. Ular bir yo‘la ikki, bir tomondan, ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, tashkillashtirish, ikkinchi tomondan, bozor talablari va etnosotsial extiyojlarni muntazam o‘rganib borish, ularni OTM sharoitiga moslashtirib tadbiq etish. Bozor munosabatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri OTMga joriy etib bo‘lmaydi, bozor munosabatlarida barqaror ta’lim tizimini buzishga qaratilgan jihatlar ham borligini unutib bo‘lmaydi.

**Oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-pedagogik jarayonlarini amaliyotga integrasiyalash talabi quyidagicha:**

**Bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq universitetlarga akademik erkinlik va o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash imkonini berish;**

**Ta'lim va kadrlar tayyorlashni bozor konyukturasiga va hududlarning etnosotsial extiyojlariga muvofiqlashtirsh;**

**Universitetlarning dars jadvallarini, soatlar taqsimotini va qanday kasb-korga o'rgatishni mustaqil tarzda, buyurtmachilar talablariga muvofiq belgilash huquqini berish;**

**Professor va talaba o'rtasidagi munosabatlarni tobora erkinlashtirish, ular o'rtasidagi to'siqlarni minimallashtirish;**

**Universitetning ichki (ilmiy kengash, fakultetlar kengashi) va tashqi (jamoatchilik kengashi, vasiylar va homiylar kengashi, fuqarolik jamiyati institutlari) nazoratda bo'lishiga erishish;**

**Universitet va davlat hokimiyati, boshqaruv organlari bilan o'rnatiladigan aloqalar doirasi va funksiyalarni qaytadan ko'rib chiqish, o'rnatish;**

**Universitetlarning xalqaro tashkilotlari va uyushmalarini, asossiasiyalarini tashkil etish orqali ular mustaqilligini himoya qilishning global mexanizmlarini yaratish;**

**Talabalarni ilmiy va innovatsion izlanishlarga jalb etish orqali ularda akademik mobillik, faollikni shakllantirish;**

**Xududning talablaridan kelib chiqib qabul kvotalarini shakllantirish va hudud intellektual saloxiyatini yuksaltirish.**

***2.1.1-rasm.* Oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-pedagogik jarayonlarini amaliyotga integrasiyalash talabi**

Masalan, bozor munosabatlari o'z molini tez va yuqori narxda pullashni yoqtiradi, agar ushbu talabni to'g'ridan to'g'ri OTMga tatbiq etsak, ta'lim jarayonini kim pul to'lasa, sotib olishga qodir bo'lsa, ana shungagina kadr tayyorlab berish tartibiga o'tishga to'g'ri keladi. Dunyoda bunday talab bilan ishlaydigan universitet yo'q, hatto

eng ilg‘or universitetlar (masalan, Kembrij yoki Bolone universitetlari) ham davlat (munitsipial boshqaruv), homiylar, yirik metsenatlarning moddiy qo‘llab-quvvatlashiga tayanadi. Ular to‘g‘ridan to‘g‘ri bozorga chiqib o‘z “tovarlari”ni, “mahsulot lari”ni taqdim etavermaydi, balki ratsional boshqarish va o‘zining akademik imkoniyatlaridan kelib chiqib, xizmatlarini taqdim etadi. To‘g‘ri, keyingi yillarda ularda chet ellik, ayniqsa, sobiq SSSR hududidagi yoshlarni jalb etish alohida yo‘nalish sifatida shakllantirilmoqda. Bunga ushbu universitetlardagi faqat akademik salohiyat yoki intellektual bagaj sabab bo‘layotgani yo‘q, g‘arbda yoshlar o‘rtasida oliy ta’limga bo‘lgan qiziqishning kamayib ketgani bosh sababdir. Shuning uchun ular xorijiy talabalarni jalb etish orqali universitetlar, mamlakat oldidagi iqtisodiy va ijodiy hamda ichki sotsiodemografik muammolarini hal etishni ko‘zlashadi. Ular tomonidan o‘ylab chiqilgan reytinglar, xalqaro modellar va jahon standartlari kabilar milliy universitetlardagi o‘ziga xosliklarga barham berish orqali global ta’lim tizimini yaratishdir. Bu tizim, avvalo, g‘arbona tizim, u milliy ta’lim tizimlarini o‘ziga bo‘ysundirishni nazarda tutadi. OTMlarga bozor iqtisodiyotiga o‘tkazish yoki ularda akademik erkinlik tamoyilini joriy etish global ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan bo‘lib, unda nafaqat ijobiy, shuningdek, salbiy ta’sir etuvchi jihatlar ham borligini esdan chiqarib bo‘lmaydi. G‘arbdagi akademik erkin, mustaqil universitetlar o‘z davlatining siyosatidan mutlaq erkin, mustaqil emas, ular xorijiy yosh intellektlarni o‘ziga jalb etish, ularga turli yengilliklar berish orqali mamlakat oldida turgan yuqoridagi muammolarni hal etishga o‘z hissalarini qo‘shishga intiladilar. Buni xorijiy universitetlarda ta’lim olgan yoshlarning aksariyati o‘sha joylaroda qolib ketayotgani, qaytib kelayotganlari esa afsus qilishini bildirayotgani ham tasdiqlaydi[127]. Shunday ekan, OTMga bozor iqtisodiyoti talablarini joriy etishga ehtiyotkor bo‘lish talab etiladi, unga bir tomonlama yondashib bo‘lmaydi.

Bozor kon’yukturasi nihoyatda tez o‘zgaruvchan, beqaror. Unga moslashish oson kechmaydi. Shu bilan birga, OTMlar har doim ham xalq xo‘jaligi uchun zarur kadrlar tayyorlashda bozor talablaridan kelib chiqishi shart emas. Masalan, tibbiyot sohasida xirurg, pediatr, stomatolog, oftalmolog, nevropotolog, kardiolog kabi mutaxassislarni bozor iqtisodiyotiga qarab emas, balki mamlakatdagi ijtimoiy tibbiy

vaziyatga, aholining tibbiy yordamlarga muhtojligiga qarab tayyorlashadi. Bu ta'lim tizimi barqarorligi, bozor ketidan chopavermasligi va korrupsiyaga moyilligi bilan davlatning barqaror talablariga ko'ra ishlashi bilan ajralib turadi. Agar davlatning barqaror talablari bo'lmasa, soha korrupsiya manbaiga aylanadi, bu hol salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Demak, OTMning barcha sohalari ham bozor kon'yukturasi ketidan ergashib ketavermaydi. Pedagogika, madaniyat va ma'naviyat, harbiy sohalar uchun kadrlar tayyorlovchi OTMlar ham bozor kon'yukturasi talablariga juda ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Ushbu yo'nalishlarda barqarorlik, hatto konservatizm ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Bozor kon'yukturasi, avvalo, mehnat bozori bilan bog'liqdir. Mutaxassislarning fikricha, mehnat bozori "mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi kontraktlar (mehnat kelishuvlar) asosida "mehnatga qobiliyatlarini" harid qilish sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkaab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir. Uning vazifalari: ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish; bozor uslubida xo'jalik yuritishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish; mehnat resurslarinng oqilona bandligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatish; ishsizlar ish topishiga, ularning malakasi va raqobat qobiliyatini oshrishga ko'maklashish; ishlab chiqarish xarajatlarni qisqartirish va mehnat taqsimotini o'zgartirishdir[14]. Demak, OTMlar ushbu mehnat bozori kon'yukturasi va talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashni amalga oshirishi lozim. Bu esa, tabiiy ravishda, OTMlarda maxsus marketing bo'limi bo'lishini taqozo etadi. AQSh, Germaniya, Fransiya va Rossiya davlatalridagi yirik universitetlarida maxsus marketing bo'limlari mavjud bo'lib, ular xizmat ko'rsatishni bozor kon'yukturasini o'rganib borish orqali amalga oshiradilar. Shu maqsadda Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi taklifiga muvofiq universitetlar tizimi[1].

[1] Qarang: Википедия свободной энциклопедии




**2.1.2-rasm. Yevropa universitetlari assotsatsiyasi taklifiga muvofiq universitetlar tizimi modeli**

Ushbu model zamonaviy universitetlarda ham o‘z ifodasini topmoqda, ya’ni universitetlar faoliyati ana shu tizimlar orqali olib boriladi va baholanadi. Global ta’limda shakllanayotgan ushbu tizimlar mutlaq yangi emas, albatta. Ularda avvalgi tajribalar ham mujassamdir. Masalan, davlat tomonidan ajratiladigan budjet mablag‘larining sarflanish tartibi, ya’ni moliyaviy ishlar, hisob-kitob, kadrlarga maoshlar to‘lash, moddiy rag‘batlantirish, komandirovkalar haqlari, talabalar turar joylarini bezatish va boshqa tadbirlar tartibi deyarli o‘zgarmay keladi. Universitetlarning moliyaviy sarf-xarajatlar ishlarida davlat tomonidan o‘rnatilgan tartiblar barqaror tartiblar sifatida saqlanib turibdi. Global ta’limda universitetlarning molyaviy mustaqilligi e’tirof etilayotgan, akademik mustaqillikni moliyaviy mustaqillik bilan mustahkamlash masalalari tadqiqotchilar e’tiborni tortayotgan bo‘lsa-da, bu masalada global yaqinlik borligi hali sezilmaydi. Mustaqil rivojlanishga o‘tgan yosh davlatlardagi OTMlar esa an’anaviy tartiblardan hali voz kechganlaricha yo‘q.

Universitetlarning dars jadvallarini va soatlar taqsimotini, kadrlar tayyorlash tizimini mustaqil o‘rnatishi akademik erkinlikning eng muhim yo‘nalishidir. Global ta’lim g‘oyasini qo‘llab-quvvatlovchi Xalqaro akademiyalar uyushmasi ikki muhim tamoyilni ilgari suradi:

-birinchisi, universitet ichida yoki undan tashqarida haqiqatni aniqlashtirishga qaratilgan har qanday savolni kun tartibiga qo‘yishda “to‘liq erkinlik” ta’minlanishi;

-ikkinchisi, universitetlar va ilmiy tadqiqot tashklotlari o‘z a’zolarining akademik erkinligini taqiqlash hamda xodimlarining

chiqishlarini ularga qarshi chora sifatida ishlatish huquqiga ega emasligini oʻrnatishdir.

Mutaxassislarning taʼkidlashicha, hanuzgacha Yevropaning aksariyat universitetlari faoliyatiga davlat aralashadi, baʼzilari esa davlat budjetidan mablagʻ oladi. OTMning ichki ishlariga hatto rektor yoki uning yordamchilarni saylashga ham davlat aralashuvi kuzatiladi. Universitetlarnng barqaror ishlashi uchun uzoq muddatlarni oʻz ichiga oladigan davlat moliyalashtirishi muhim oʻrin tutadi. Masalan, bunday moddiy taʼminlash uchta universitetda bir yildan oshadi, qolgan 24 universitetda esa faqat bir yilga ajratiladi.[1]. Moliyaviy qaramlik akademik mustaqillikning antipodi, bunday sharoitda universitetning akademik erkinligi haqida gapirish qiyin. Fransuz universitetlarida dars oʻtish tillari qilib milliy til, Belgiya va Latviya kabi davlatlarda esa qaysi tildan foydalanishni esa davlat belgilab beradi. AQShda "akademik erkinlik" tushunchasi va tartibi mamlakat Oliy sudi tomondan oʻrnatilgan boʻlib, unga koʻra universitet kim dars berishi mumkinligini va universitet qancha talaba qabul qilishini erkin tarzda oʻzi belgilaydi. Virginiya shtati sudi (2008) esa akademik erkinlikni alohida tarzda har bir professorga yoki talabaga emas, balki muassasa (universitet)ning oʻziga taalluqli deb belgilab bergan. Hatto universitet professor qoʻygan bahoni (agar bu haqda talaba appelyatsiyaga murojaat etsa) oʻzgartirishi ham mumkin. Bu professorning akademik erkinligini buzish emas, balki talabaning taʼlim olish huquqini himoya qilishdir.

AQShda qabul qilingan "Akademik lavozim va akademik erkinlik tamoyillari haqida Ariza"(1940)ga koʻra, akademik erkinlik maʼlum bir doiradagina mumkindir. Professor oʻz chiqishlarida rahbariyati pozitsiyasini emas, balki oʻz qarashlarini ifoda etishi mumkin. Ammo bunday paytda professor oʻz nomidan gaprayotganini bildirib, ogohlantirib qoʻyishi kerak. Akademik lavozim (karera) ham shaxsning kasb-kori, kompententligiga bogʻliqdir. Uni lavozimdan mahrum etish nokompitentligi yoki tashkilot nomiga nomunosib xatti-harakatlari bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Qoʻshma shtatlarda qabul qilingan "Akademik erkinlik va akademik karera haqida Bayonnoma" (1940) va Amerika universitetlari va kollejlari professorlari

---

[1] Qarang: Википедия свободной энциклопедии

Assotsiatsiyasi qabul qilgan ustavlarga ko‘ra, har bir professor o‘z vazifalarini bajarish jarayonlarda qarashlarini erkin bayon qilishi, ma’muriy idoralar esa uning chiqishlarini, diniy va boshqa masalalar” bo‘yicha chegaralab qo‘yishi mumkin. Ushbu talablar professorni ishga qabul qilayotgan paytda yozma tarzda e’lon qilinadi. Mazkur shartnomaning bajarilishi maxsus, regional vakillar tomonidan shakllantirilgan deyarli barcha universitet va kollejlarda tashkil etilgan jamoatchilik organi tomonidan kuzatib boriladi. Agar ushbu shartnoma professor tomonidan buzilsa, yoki o‘rnatilgan talablarga rioya etilmasa, darrov muhokamaga qo‘yiladi.

Angliya universititetlarida “institutsional avtonomiya” amal qiladi. Ushbu tamoyilga muvofiq erkinlik professorga ham, talabaga ham taalluqli bo‘lib, ular o‘rtasidagi ijodiy dialog, bir-birining qiziqish va tayyorgarliklarini hisobga olishga undaydi.

AQSh, Angliya, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarda professorlarning asarlarini chop ettirish yoki og‘zaki chiqishlariga hech qanday to‘siq qo‘yilmagan, biroq ularda ta’limga oid jarayonlarda milliylik, o‘ziga xoslik mavjud. Masalan, Germaniyada talabalar darslarni tanlash huquqiga ega, ba’zi hollarda ular topshiriladigan imtihonlar vaqtini ham o‘zlari belgilashi mumkin. Professorlar esa dars jarayonlarini o‘zlarining ilmiy-nazariy konsepsiyalariga qurishi, ularni predmetlar doirasida asoslashi mumkin. Birinchi semestrda talabalar o‘qishga majbur predmetlar bor, ikkinchi va undan yuqori kurslarda esa, ular predmetlarni erkin tanlaydilar. Bu erkinlik universitetning akademik erkinligi dorasidadir, shuning uchun talaba duch kelgan fikrni, universitetga qarshi qarashlarni targ‘ib etib yurmasligi lozim. Fransiyada professorlar davlat xizmatchilari hisoblanadi. Ular global ta’limni shakllantirishdan ko‘ra, davlat uchun zarur bo‘lgan ichki ishlarni, ehtiyojlarni, talablarni bajarishga xizmat qiladilar. Ular ta’lim jarayonlarida siyosiy yoki diniy qarashlarni targ‘ib etmasligi, belgilangan turtiblarga muvofiq dars o‘tishi kerak. Fransiya Konstitutsion kengashi tomondan o‘rnatilgan tartibga muvofiq, professor va uning assistenti so‘z erkinligi huquqidan to‘la foydalanadilar, biroq ular “universitetning an’analarini, qonunlar talablarini, tolerantlik tamoyillari va ob’ektivlikni buzmasligi kerak”. Universitet xodimlarining malakaviy yoki kasbiy ko‘tarilishi ma’muriy qarorlar bilan emas, balki retsenziyalar orqali amalga

oshiriladi. Rossiya universitetlarida akademik erkinlik RF Konstitutsiyasi va "Oliy va oliy ta'limdan keyingi kasb-kor ta'limi haqida"gi qonunga muvofiq kafolatlangan. Ularga muvofiq har bir universitet va oliy malakali kadrlar tayyorlovchi institut o'z yo'nalishi bo'yicha zarur dasturlar ishlab chiqishi, kasb-kor yo'nalishini tanlashi, oliy attestatsiya komissiyasi va boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzishi, keng jamoatchilikni jalb qilgan holda o'zini o'zi boshqaruvchi organlar tashkil etishi, moliyaviy ishlari bo'yicha hisob-kitob berib borishi zarur. Mazkur talablarda xalqaro tajribalar, global ta'lim bilan bog'liq jihatlar (masalan, darslarni erkin o'tish, zarur kadrlarni jalb etish, kontrakt asosida chet el olimlari bilan aloqalar o'rnatish, xalqaro reyting talablarini kuzatib borish, molyaviy hisob-kitob ishlarini e'lon qilib borish kabilar) shakllangani kuzatiladi.

Global ta'lim to'g'rsida turlicha fikrlar mavjud, ular bu tizimning hal shakllanmaganini, ular haqidagi mulohazalar ko'pincha gipotetik xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. "Global ta'lim" degan tushunchaning o'zi hali bahsli, uning asosiy talablari va mezonlari aniqlab olinmagan. Yan Amos Komenskiyning "Hammani hamma narsaga va hamma narsa haqida o'rgatish" konsepsiyasi ana shu global ta'limning negizini tashkil etadi. Unga ko'ra har bir kishini, har bir insonni istagan narsaga, bilimga o'rgatish mumkin, chunki barcha insonlarga bilish imkoniyatlari berilgan. Bu imkoniyatlar esa global ta'lim konsepsiyasini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan ta'lim xalqaro integratsiya va xalqlarning bir birlariga yaqinlashuvini ta'minlaydi, dunyoqarashlarni modernizatsiyalashga imkon beradi. Bugungi pedagogik ta'limotlar va tajribalapr umuminsoniy xarakter kasb etib, madaniyatlar va etnoslarni bir biriga yaqin qilmoqda[124]. Bu jarayonlar global yaqinlashuv uchun juda muhim, ammo ular pedagogikaga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi. Pedagogikada shunday omillar mavjudki, ularni faqat tashqi global ta'sir natijasi deyish qiyin. Masalan, oila tarbiyasi avvalo oilaviy muhitdagi va oilada qaror topgan barqaror qarashlar, stereotiplar, tarbiya usullari, pand-nasihatlar va jazolash kabilarga tayanadi. Global ta'lim ushbu pedagogik tajribalarni e'tiborga olavermaydi, undagi ideal g'arbda shakllangan tartiblarni, normalar va o'zini o'zi idora etish, pedtexnologiyalarga tayanadi. Etnopedagogik tajribalar bilan global ta'lim har doim ham bir biriga muvofiq kelavermaydi. Ushbu

ziddiyatni umuminsoniy qadriyatlar asosida bartaraf etish mumkin, biroq hozirgi davrda bu muammolarni hal etishga oid izlanishlar o‘tkazilayotgani kuzatilmaydi. Shaxsda ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish nafaqat pedagogik jarayonlar va texnologiyani, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga va yo‘nalishga ega boshqa omillar (iqtisodiy, siyosiy, tarixiy-tarbiyaviy, etnopedagogik)ni ham hisobga olishni taqozo etadi.

Global ta’limdagi yana bir jihat shundaki, u barcha xalqlar ustidan hukmronlik qilishga harakat qiladigan, totalitar boshqarishni ma’qul ko‘radigan ideologiyaga tayanadi. Global ta’limda shunday ideologiya mavjud. Shu bois u etnopedagogik tajribalar bilan ijodiy hamkorlikka qurilmagan, balki o‘z qarashlari va qadriyatlarini, zamonaviy axborot texnologiyalari va ommaviy axborot tizimlariga asoslangan, “inson omilidan tashqarida” yaratilgan usullarga tayanishni o‘zining asosiy belgisi deb biladi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari tarbiya jarayonlarini “inson omili”siz qiladi, unda insonga, uning ruhan boy, sensitiv kechinmalariga, fluktatsion ichki kechinmalarining betakror jihatlariga asoslanish uchramaydi. Bu texnologiyalar uchun insonning o‘zi ham bir instrument, innovatsion ta’lim texnologiyalarining bir murvati xolos.

Demak, global ta’limda insonga texnologik obyekt, ulkan glabal texnologik jarayonlarning bir murvati deb qarash ustuvordir[90]. Shunday bo‘lsada, milliy ta’lim tizimlari global normalarga tayanayotganini, Yevropa ta’lim modellarini o‘zlashtirayotganini ko‘rmaslik mumkin emas. Masalan, dunyodagi ilg‘or universitetlar tomonidan yaratilgan Coursera. org–https// www.coursera. org/; EdX—https // www. yedx.org/; Udemy–https// www.udemy.com/; LinguaLeo—http // lingualeo.ru/; busuu—http // www.busuu/ com/enc /; TED—http // www. тed/com kabi ta’lim dasturlari bugun dunyodagi barcha universitetlarga ma’lum. Ular global ta’limning ajralmas atributlari sifatida, xalqaro munosabatlar, ayniqsa ta’lim sohasidagi tajriba almashishda qo‘l kelmoqda. Tajribalar ko‘rsatadiki, ilg‘or pedtexnologiyalar avvalo zamonaviy axborot texnologiyalariga tayanadi, ulardagi ommaviylik, tezkorlik, samaralilik va hozirjavoblik kabi usullari orqali akademik ta’limga ham ta’sir etadi.

## 2.2. Milliy va xorijiy tajriba asosida bo‘lajak pedagog kadrlarda akademik erkinlik g‘oyasini shakllantirish modeli.

Global ta’lim milliy pedagogikani, etnopedagogik tajribalarni mutlaq rad etolmaydi, chunki ularda har bir xalqning tarixiy-tarbiyaviy tajribasi, shaxsning shakllanishiga samarali ta’sir etuvchi tarbiya usullari mujassamdir. Axborot texnologiya tizimlari qanchalik tezkor, ommaviy va samarali bo‘lmasin, ular milliy pedagogik tajribalar bilan uyg‘unlashganidagina ko‘zlangan natija beradi. Shuning uchun global ta’limni milliy pedagogik tajribalardan ayricha qarash mumkin emas.

Global ta’lim muhitida rivojlangan Osiyo davlatlari etnopedagogik tajribalarini o‘rganishni amalga oshirgan pedagogika fandari doktori, professor T.I.Ismoilovning fikricha, Malayziya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Tailand, Singapur, Xitoy pedagogik tajribalarini, ayniqsa, akademik mustaqillik prinsiplarini OTMlarga joriy etishga oid yondashuvlarni ikki guruhga klassifikatsiya qilib o‘rganish mumkin. Birinchisi-substantiv mustaqillik va ikkinchisi-protsedur mustaqillik[98] (2.2.1-chizmaga qarang).




***2.2.1-rasm.*** **Akademik mustaqillik prinsiplarini OTMlarga joriy etishga oid yondashuvlar**

Bizning fikrimizcha, tadqiqotchi amalga oshirgan yondashuv biz uchun ham muhim, u rivojlangan Osiyo davlatlari pedagogik tajribalarini umumlashtirishga va har birining differensial xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Buning uchun asosiy diqqatimiz har bir davlatdagi milliy pedagogik jarayonlar va to‘plangan etnopedagogik tajribalarga emas, bu mutlaq boshqa mavzu, balki akademik erkinlik bilan bog‘liq etnopedagogik jarayonlarga qaratilishi zarur.

Milliy pedagogik jarayonlar, etnopedagogik tajribalar OTMlarga joriy etilayotgan akademik erkinlikdan keng, demak, ikkinchisi birinchisining tarkibiy qismi, bir yo‘nalishi sifatida qaralishi darkor. “Osiyo rivojlangan mamlakatlarida,-deb yozadi T.I.Ismolov,-oliy ta’lim tizimini isloh qilish jarayoni o‘tgan asr oxirlarida boshlandi”. 1995-yildagi Janubiy Koreya ta’lim islohoti rejasi, birinchi navbatda, xususiy oliy ta’lim muassasalariga keng mustaqillik berishga qaratilgan edi. Ayni paytda, davlat oliy o‘quv yurtlarining mustaqlligi cheklanganicha qolayotgani sababli Janubiy Koreyaning oliy ta’lim tizimida yuqori darajadagi markazlashuv saqlanib qolmoqda. Boshqa bir mamlakat Malayziyada islohotlar natijasida 17 ta davlat OTMlariga qisman mustaqillik berildi. Biroq mamlakatda oliy ta’lim muassasalariga mustaqillik berish rejasi ishlab chiqilganiga qaramay, uni amalga oshrish darajasi past bo‘lib qolmoqda. Indoneziya va Tailandda mustaqillik faqat eng yaxshi OTMlarning kichik qismiga berildi.

Biroq bu mamlakatlarda islohotlarni amalga oshirish sur’ati beqaror bo‘lib, kutilgan natjalarni bermayapti. O‘tgan asrning oxirlarida Xitoy mahalliy hokimiyat organlariga oliy ta’lim tizimiga bir qator vakolat va vazifalarni topshirib, istiqbolli islohotlarni amalga oshira boshladi, shuningdek, OTMlarni yuqori darajadagi mustaqillik bilan ta’minladi, ammo oliy ta’limga davlat monitoringi tizimini saqlab qoldi”[98]. Ko‘rinib turibdiki, g‘arbona ta’lim modelini joriy etish har doim ham kutilgan natijalarga olib kelavermaydi. Ilmiy asarlarda buning sabablari ochib berilmagan. Nima uchun Malayziya faqat 17 ta oliy o‘quv yurtiga, tag‘in qisman mustaqillik berdi? Axir unda 100 ga yaqin universitetlar mavjudku. Gap shundaki, Malayziyada malay tili bilan birga ingliz tili keng tarqalgan. Angliya ta’lim tizimi unga ta’sir etgan. Ma’lumki, 1992-yili Angliya hukumati

ta'lim tizimida islohotlar o'tkazib, oliy ta'limni ommaviy qilishga kirishadi. Ammo ekspertlarning ta'kidlashicha, Angliya hukumatining ta'lim tizimidagi islohoti teskari natija berdi, yoshlar o'rtasida ta'limga bo'lgan qiziqish susayib ketdi[128]. Malayziya hukumati o'zining etnopedagogik tajribalarini hisobga olmay, chet el, ingliz modeliga ergashadi. Aynan ushbu sabab, bizning fikrimizcha, Malaziya islohotlari kutilgan natijaga olib kelmaydi. Malayziyada Malayya universiteti, Ilm-fan universiteti, Malayziya texnologik universiteti, Malayziya milliy universiteti, Putra universiteti, Xalqaro islom universiteti, MARA texnologik universiteti, Utara Malayaziya universiteti, Sabax Malayziya universiteti, Saravak Malayziya universiteti kabi OTMlar taniqlidir. Ulardagi zamonaviy ta'lim jarayonlari malayziya OTMlarini keyingi o'n yil ichida 156 o'rindan 59 o'ringa olib chiqqan. Mamlakat OTMlarida 136 mamlakatdan kelgan talabalar ta'lim oladi, UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, Malayziya OTMlari ommaviyligi, taniqliligi nuqtai nazardan dunyoda 11-o'rinda turadi. Unda ta'lim olishga to'lanadigan kontrakt pullari, masalan, Singapurdagidan deyarli ikki marta arzondir. Aholisining 60% dan ziyodi ingliz tilida gapiradi, shu bois ingiliz tili OTMlarda keng tarqalgan. Bu o'rinda bir paytlari Malayziyaning Buyuk Britaniya koloniyasi bo'lganini ham eslash zarur. Shu tufayli OTMlardagi magistratura va doktorantura ingliz tilida olib boriladi. Xususiy ta'lim tizimida olingan diplomlar Malayziya kvalifikatsiya agentligi tomondan ro'yxatga olinadi va shu sababli davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatda OTMga qabul qilish uch marta:

1) may-iyun; 2) noyabr-dekabr; 3) fevral-mart oylari amalga oshiriladi, ularda kirish imtihonlari topshirish nazarda tutilmagan. Ayrim OTMlar abiturientni oddiy suhbat bilan talabalar safiga qabul qiladi. Malayziyada OTMlar davlat, xususiy va chet el bilim yurtlariga bo'linadi. Davlat OTMlari soni atgi 20 ta, qolganlari xususiy va chet davlatlarniki hisoblanadi. Mamlakatdagi OTMlar bo'yicha zarur normativ qarorlarni, tartiblarni nafaqat davlat akkriditatsiya agentligi, shuningdek, Malayziya xususiy va kollejlari va universitetlari Assotsiatsiyasi, Hamdo'stlik universitetlari Assotsiatsiyasi kabilar ham shakllantiradi. Universitetlardagi akademik erkinlik moliyaviy erkinlik bilan bog'lab qaraladi. Ularda ta'lim an'anaviy tarzda, ko'pincha tayyor materiallarni yodlash, muallim talablarini so'zsiz

bajarish, berilgan topshiriqlarni o'zlashtirish tarzida olib boriladi. Ma'ruzalar dialog tarzida emas, balki monolog tarzida olib boriladi, professor avtoritetiga hurmat talab etiladi[1]. Malayziyadagi oliy ta'lim uchun davlat organi bo'lgan Oliy ta'lim vazirligi mas'uldir. Shu bilan birga, OTMlar ilmiy pedagogik faoliyatini, talabalar qabul qlish, ularning attestatsiyasini yo'lga qo'yish, qabul siyosatini amalga oshirish vakolatlariga ega. Milliy kengashlar ham tashkil etilgan. T.I.Ismoilovning ta'kidlashicha, "Malayziya OTMlarining akademik mustaqilligi sezilarli darajada cheklangan deb aytish mumkin. Misol uchun, Malayziyadagi OTMlar hali o'qitish tilini mustaqil ravishda aniqlash imkoniyatiga ega emas. Ta'kidlash joizki, Malayziyaning "Oliy o'quv yurtlari to'g'risida"gi qonunining birinchi ilovasiga muvofiq mamlakatdagi OTMlar kafedralar tuzilishlari va lektorlik lavozimlarini ta'sis qilishlari mumkin, ammo ular mustaqil ravishda o'quv dasturlari mazmunini aniqlash huquqiga ega emas. Oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiya qilish va o'quv dasturlari ham Oliy ta'lim vazirliginig alohida huquqidir. Oliy ta'lim vazirligi bu huquqni quyi tashkilotga — Malayziya malaka agentlgiga topshirish orqali amalga oshradi"[98]. Osiyo davlatlarida OTMlarga akademik erkinlik taqdim etishga o'tish hali ko'p vaqt bo'lganicha yo'q Milliy pedagogikadagi an'anaviy yondashuvlar va tartiblar OTMlarda hali ustuvorlik qiladi.

Akademik erkinlikni tadbiq etish Janubiy Koreyada 1992-yil, Malayziyada 1994-yil, Xitoyda bu jarayonlar 1998-yil, Filippinda 2001-yil, Yaponiyada 2004-yil, Singapurda 2006-yil, Indoneziyada 2007-yil, Avstraliyada 2008-yilda boshlangan. Hindistonda esa bu jarayonlar, to'g'rirog'i, ilmiy izlanishlarga mustaqillik berish, ularni OTMlar faoliyati bilan bog'lash o'tgan asrning oxirlarida boshlangan bo'lib, hanuz bir aniq dastur yoki platformaga ega emas. Unda xalq pedagogikasi, an'analari va diniy tasavvurlari aralashib keladi. Global ta'limda ro'y berayotgan o'zgarishlar Hindiston OTMlarini zamonaviy ilmiy izlanishlar, ayniqsa tibbiyot va internet sohalarida jiddiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga olib kelgan. Mongoliya ta'lim tizimi ham keyingi yillarda global ta'limdagi jarayonlardan chekkada qolayotgani yo'q, ularda an'anaviy xalq pedagogik

[1] Қаранг:UNIPAGE. Новости, 2023, 17 февраля.

tajribalari ustuvor bo‘lsa-da, ilmiy-texnik izlanishlarga katta e’tibor berilayotganini kuzatamiz.

Janubiy Koreya ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar e’tiborni jalb etmoqda. Mamlakatdagi 6 ta universitet, ya’ni Seul milliy universiteti, KAIST, Korou universiteti, Yonsey universiteti, Pohahg ilm-fan va texnologiyalar universiteti, Sunkyungvan universiteti jahonning 100 ta eng nufuzli ta’lim dargohlari qatoriga kiradi. Tarixiy manbalar mamlakatda birinchi universitetlar XV-XVI asrlarda paydo bo‘lganini ko‘rsatadi[1]. XIX asrlarda boshlangan ta’lim tizmidagi islohotlar asta-sekin g‘arbiy Yevropa modellariga moslasha boshlagan. Ammo Janubiy Koreya ta’lim tizimi o‘zning etnopedagogik an’analaridan voz kechmagan, balki, aksincha u modernizatsiya jarayonlarini tarixiy-tarbiyaviy tajribalari negiziga qurgan. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, “Koreys jamiyatida Konfutsiy davridan boshlab an’anaviy ravishda o‘qimishli shaxsga nisbatan chuqur ehtirom va hurmat tuyg‘usi bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Shu bois Koreyada har bir inson shunday mavqega ega bo‘lish istagida  ulg‘ayadi va yashaydi. Bundan tashqari, Janubiy Koreya Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi mustahkam oilaviy rishtalar va ierarxiya, mehnatsevarlik, tejamkorlik va o‘qishga bo‘lgan g‘ayrat, shijoat ulug‘lanadigan va amalda bo‘lgan konfutsiylik ta’limotiga asoslangan mamlakat ekanligi hech kimga sir emas. Koreys oilalarida “oliy ta’lim” va “hayotdagi muvaffaqiyat” tushunchalari bir biriga chambarchas bog‘liq. Hech bir ota-ona o‘z farzandining sifatli ta’lim, kelajakda nufuzli oliy o‘quv yurtiga kirishi uchun kuch va mablag‘ini ayamaydi. Koreya jamiyatidagi bu hodisa obrazli qilib aytganda “ta’lim talvasasi” deb atalib, milliy xususiyatlarning biriga aylangan”[56].

Bugun Janubiy Koreyada 440 dan ziyod oliy o‘quv yurtlari mavjud, maktab bitiruvchilarining 70 % ga yaqini ana shu dargohlarga o‘qishga qabul qilinadi. Bu jahondagi eng yuqor ko‘rsatkich hisoblanadi. Har yili bir millionga yaqin maktab bitiruvchilar (mamlakat aholisi 52 millionga yaqin) uchun bu juda katta imkoniyat. Universitetlardagi akademik erkinlik va ta’lim Bolonya ta’lim tizimiga mos keladi. Universitetlarda qat’iy amal qilinadigan o‘quv

[1] Qarang: Education system Soyth Korea (nuffic. nl

dasturlari mavjud emas, talabalarning fanlarni tanglashi va ularga qatnashi:

1) umumiy ilmiy profil; 2) profilli fanlar; 3) erkin qatnashish tartiblariga qurilgan.

Talaba o‘zining hayotiy maqsadi va rejasiga muvofiq darslarga qatnashni mo‘ljallaydi, agar shunday reja bo‘lmasa, tajribali muallim, professor uni shakllantirishga yordam beradi. Qiziqarli hol shundaki, 2022-yil sentabridan boshlab talabalarning darslarga erkin qatnashi va fanlar profillarini tanlashi maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga ham sinov tarzida tadbiq etiladigan bo‘ldi. Ikkinchi kursdan boshlab talaba ikkinchi mutaxasislikda ham ta’lim olishi mumkin. Bu talabaga erkin ta’lim olish, bilim va tajribalar doirasini yanada kengaytirish, agar birinchi tanlagan fani, ixtisosligi ma’qul kelmasa, ikkinchisini davom ettirish imkonni beradi. Fanlar (darslar) o‘rtasidagi integratsiya talabaga bir profil doirasi bilan cheklanib qolmaslik imkonini beradi. Darslar ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lib, har bir ma’ruza amaliy mashg‘ulotlar bilan mustahkamlanib, talabaning o‘zlashtirish darajasi aniqlanib boriladi.

Janubiy Koreya universitetlaridagi akademik erkinlik talabalar va o‘qituvchilarni baholash tizimi mavjudligida namoyon bo‘ladi. Talabalarni baholash oraliq nazorati, yakuniy nazorat natijalari, davomat, uy topshiriqlarini bajarishi, darslardagi faolligi kabilar universitet sahifasiga kiritiladi, ular bilan istagan talaba tanishib borishi, agar biror e’tirozi bo‘lsa, bahosini o‘zgartirish uchun universitet apellyatsiyasiga murojaat etishi mumkin. Darslardan keyin, imtihonlar tugagach, talabalar o‘qituvchilarni baholashi kerak. Aks holda ular qo‘yilgan baholar sahifasini ochib yakuniy baholarini bilish, ko‘rish imkoniga ega bo‘lmaydilar. O‘qituvchilar anonim tarzda o‘ttizdan oshiq parametrlar asosida talabalar tomonidan baholanadi. Ikki hafta o‘tgach, baholar natijasi e’lon qilinadi. Universitet reytingi baland professor o‘qituvchilarni saqlab qolishga, ularning baholarini obyektiv e’lon qilishga intiladi, bu tartib koreyslardagi tarixiy-tarbiyaviy an’analarning uzviy qismidir. Muallimga chuqur hurmat, ehtirom nafaqat darslarning yuqori saviyada o‘tilishiga, shuningdek, mavjud intellektual salohiyatdan samarali foydalanishga ham imkon beradi[1].

[1] Qarang: South Korean Education System, Facts and Rankihgs / Leverage Edu

Zamonaviy ta’limni tarixiy-tarbiyaviy tajribalar bilan uyg‘unlashtirish Janubiy Koreya OTMlariga o‘zga xoslik baxsh etsada, ularda konservativlik ham borligini ko‘rmaslik mumkin emas. Professor avtoriteti ta’lim tizimida yetakchi o‘rinlarda turadi, talaba unng ushbu avtortetiga qarshi turolmaydi, uning baholariga kamdan-kam hollarda e’tiroz bildiradi. Ta’limdagi ushbu avtokratizm akademik erkinlik tushunchasini ham nisbiy voqelikka aylantiradi, natijada dars jarayonlarida monolog usuli ustuvorlik qiladi. To‘g‘ri, dars jarayonlarida talabalar o‘zini erkin tutishi, mashgulotlarga erkin munosabat bildirishi, ma’lum bir darslarni o‘z qiziqishlariga muvofiq o‘zgartirishi mumkin, biroq bular ichki avtokratik boshqarshga hech qanday ta’sir etmaydi. Darslarni o‘zgartirish yoki ularga qatnash, katnamaslik talaba ixtiyorida emas, ular belgilangan darslarga qatnashi shart va universitet ma’muriyati, o‘quv ta’lim bo‘limi tomondan o‘rnatilgan fanlar bo‘yicha imktihonlar va nazoratlar topshirishlari shartdir. O‘qituvchi-professorlar ilmiy izlanishlarida mustaqildir, ularga universitet ma’muriyati yoki Oliy ta’lim vazirligi tazyiq o‘tkazmaydi. Ular boshlqa davlatlardagi filiallariga, OTMlarga erkin borib kelish, ma’ruzalar o‘qish, xalqaro grantlar va konferensiyalarda ishtirok etishlari mumkin, faqat bu faoliyat turlari haqida ular o‘z ma’muriyatini ogohlantirib qo‘ysalar yetarli. Janubiy Koreya universitetlarining pedagogik va ilmiy faoliyati har yili o‘lchanib boriladi, ularning xalqaro reytingi baland bo‘lishi uchun barcha talabalar, ma’muriyat, professor va boshqa xodimlar jon-jahdi bilan tirishadi. Yuqori xalqaro reyting universitetga keltiradigan yuqori daromad hamdir. Moliyaviy erkinlik o‘qituvchi-professorlar va talabalarni moddiy rag‘batlantirish, yangi eksperimentlar o‘tkazish, xalqaro ijodiy aloqalar o‘rnatish imkonini bergani uchun ma’muriyat ta’lim tizimiga ko‘proq talabalarni jalb etish yo‘llarini qidiradi.

Xitoy ta’lim tizimi va undagi akademik erkinlikni ta’minlash borasida to‘plangan tajribalar mavzumiz uchun yetarli darajada manbalar beradi. Gap shundaki, sobiq sovet totalitar tuzumiga xos bo‘lgan ijtimoiy boshqarishni va ideologik paradigmalarni asragan holda ularni zamonaviy talablarga muvofiq modernizatsiyalashtirgan Xitoy tajribasi har jihatdan ibratlidir. Xitoy g‘arbdagi modernizatsiyalashtirishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘ziga tadbiq etmadi, balki ulardagi ijobiy, taraqqiyparvar jihatlarni, ayniqsa, o‘zing milliy

tajribalariga muvofiq keladigan tartiblarni o‘zlashtirdi. Natijada, Rossiyada bo‘lganidek, bozor munosabatlariga keskin burilish orqali ijtimoiy ziddiyatlarni paydo qilish yo‘lidan emas, balki konfutsiyona tartib va imperativlarni asragan holda yangi bosqichga o‘tishni amalga oshirdi. Unda tarixiy-tarbiyaviy tajribalar, ayniqsa, konfutsiy ta’limotiga muvofiq keladigan har bir shaxsning o‘ziga xos o‘rni, vazifalari va burchlari mavjud, degan paradigmaga muvofiqlik saqlanib qolindi. 2020-yil 30-iyundagi ma’lumotga ko‘ra, Xitoyda 3005 ta OTM mavjud bo‘lgan. Ulardan 2740 tasi umumiy bakalavr, 773 tasi umumiy kattalar uchun mo‘ljallangan. Keyingi o‘n yil ichida davlat OTMlarining 15 foizga, nodavlat OTMlarining esa 10 foizga oshgan. Xitoyda OTMlarda o‘qish asosan xitoy tilida olib boriladi, ba’zi OTMlar ingliz va rus tillarida darslar o‘tishga mo‘ljallangan bo‘lsa-da davlat imtihonlari asosan xitoy tilidadir. Talabalarning xitoy tiliga tez moslashishi uchun aksariyat OTMlar xitoy tiliga o‘rgatish kurslarini tavsiya etadi va ular katta gonarar talab etishmaydi. Xitoy tilini o‘rganuvchilarga kalligrafiya, raqs san’ati, tasviriy san’at kurslari taklif qilinadi,ular viziual qabul qilishni osonlashtiradi. Universitetlar ichida eng kuchlisi Sinxua, Pekin, Fudan universitetlari hisoblanadi. Keyingi o‘rinlarda Shanxay va Ilmiy texnik universitet turadi. Jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish va Xitoyning yetakchilik o‘rnini saqlab qolish uchun yetuk, kasb-korini mukammal biladigan kadrlar zarur. Xitoy KP va rahbariyati buni juda yaxshi bilgani uchun ko‘proq intellektual faol yoshlarni o‘ziga jalb etish siyosatini olib boradi. Xitoy OTMlariga to‘lanadigan kontrakt pullari (Yevropa va AQShnikidan deyarli ikki barobar arzon. Ularda Bolonya tizimiga muvofiq bakalavr (4-5 yil), magistr (2-3 yil) va fan doktori (3-4 yil) oladigan ta’lim bosqichlari o‘rnatilgan. Universitetlarga kirish qiyin emas, magistraturaga kirish uchun esa ilmiy rahbardan tavsiyanoma talab etiladi. Xitoy universitetlarida o‘qish jarayoni asosiy predmetlarni o‘rganish va fakultativ (talabalar o‘z ixtiyori va qiziqishlariga muvofiq tanlaydi) darslardan iborat. Darslarga kech qolish yoki ularni besabab o‘tkazib yuborish taqiqlanadi, agar talaba imtihon paytida shpargalkadan foydalansa, u uch yildan keyin qayta topshirishi yoki ma’lum bir muddatga qamoq jazosga tortilishi mumkin. Bunday qat’iy talab talabani intizomga, tartibga so‘zsiz

bo‘ysunishga o‘rgatadi, u o‘zboshimchalik bilan o‘qishni tashlab ketishi yoki darslarni o‘tkazib yuborishi mumkin emas.

Xitoy universitetlarida akademik erkinlik masalalari muhokama qilnsada, ularda tartib, intizomga bo‘ysunish birinchi o‘rinda turadi. Darslarni ma’lum bir dasturlar asosida professorlar olib boradi, biroq ma’ruzalar matni universitet, oliy ta’lim inspeksiyasi tomondan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Ilmiy tadqiqot ishlarini layoqatli xodimlar, avvalo, tajribali professorlar olib boradi, ularning tavsiyalari va ishlanmalari universitetning obro‘si, mavqeyi va xalqaro reytingini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Chet ellik talabalarni jalb etish OTMlarning asosiy vazifalariga kiradi. Nodavlat OTMlar davlatdan mablag‘ olishi mumkin, ammo ular ideologik ustanovkalardan tashqariga chiqishi, ya’ni KPning ta’lim sohasidagi siyosatiga qarshi chiqmasligi, tadbirkorlik va biznes sohasini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shishi darkor. Xitoy xalq demokratik respublikasi umumiy davlat mulki tarafdori, shu bilan birga, xususiy mulkka ham ruxsat beradi. Nodavlat OTMlari ana shu xususiy mulk talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashi mumkin. Bu ularga akademik va moliyaviy erkinlik baradi. Bugun Xitoy OTMlari dunyodagi eng maftunkor o‘quv yurtlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

“Xitoyda universitetlar o‘rtasida sof raqobat shakllangan. Ular dunyo universitetlari reytingda yuqori natija qayd etish uchun chet davlatlardan eng yaxshi talabalar, kadrlar jalb etishga katta e’tibor qaratishadi...” Xitoyda barcha talabalar ham universitetni bitira olmaydi, faqatgina talabga javob beradigan, soha bilimlarini belgilangan mezonlar asosida o‘zlashtirgan talabalar o‘z vaqtida bitirib diplom oladi”[92].Bundan tashqari, talaba yoshlarning erkin fikrlashi va izlanishlari uchun barcha shart -sharoitlar ( zamonaviy jihozlangan talabalar uylari, bepul noutbuk, va vayfay, bepul transport, dam olish maskanlari va suv havzalari, boy kutubxonalar)yaratilgan, ularning ilmiy izlanishlari professorlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Erkin izlanishlar natijasida yaratilgan ilmiy va innovatsion ishlanmalar universitetga daromadlar keltiradi, ular ilmiy- texnik taraqqiyotga xizmat qiladi. Professor va talabalardan faqat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etmaslik, o‘z kasbi va izlanishlariga oid muammolari muhokamasida qatnashish talab qilinadi. Kommunistik partiya ideologiyasi universitet jamoasini ilmiy tadqiqot ishlariga

yo‘naltirib borishi bilan o‘z vazifasini bajaradi. Xitoy kommunistik partiyasi har bir OTMdan mamlakat rahbariyati belgilab bergan strategik vazifalarni bajarishda yordamlashishini, qatnashishini talab qiladi.

Yaponiyaning ilg‘or davlatlar qatoridan joy olgani unda ilmiy-texnik rivojlanishga, ta’lim-tarbiyaga, kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilgani tufaylidir. Yaponiya universitetlari chet davlatlarda yaratilgan ilmiy-texnik kashfiyotlarni o‘zlashtirish va o‘ziga moslashtirish ketidan emas, balki o‘zlari ilmiy texnologik kashfiyotlar markaziga aylanishga harakat qiladi. Professor va talabalarning ijodiy erkinligi yangi-yangi texnologiyalarni yaratishga qaratilgan. OTMlar ichida Tokio universiteti, Kiot universiteti, Osak universiteti, Toxoku universiteti, Nagoyya universiteti, Tokio texnologik universiteti, Xokkaydo universiteti, Kyusyu universiteti kabilar mashhurlaridir. Ular xalqaro reytingda yuqori o‘rinlarda turadi. Yaponiyada bolalar tarbiyasi va ta’limiga juda katta e’tibor berishadi. Ularni yoshligidan tirishqoqlik bilan bilim olishga o‘rgatishadi, hatto bu o‘rinda ularni tayyor sxemalar, tartiblar va normalarni yodlashga majbur etishadi. Bunday majburlash usuli bolani ilmiy izlanishga, bilim olishdagi mashaqqatlarga chidamli qiladi, deb bilishadi[48].

Yaponiyada universitetlar milliy, davlat va xususiy ko‘rinishlarga bo‘linadi. Milliy universitetlar soni 90 ta, davlat universitetlari soni 100, xususiy universitetlar esa 600 ta.Talabalarning 75% xususiy universitetlarda ta’lim olishadi. Yaponiyada imperator universitetlari ham mavjud, ularning 7 tasi Yaponiyaning o‘zida, qolgan ikkitasi esa Janubiy Koreya va Xitoydadir. Imperator universitetlari Yaponiya OTMlari ichida eng e’tiborlisi va yuqori reytinglisi hisoblanadi[1]. Yaponiyada akademik erkinlik haqida o‘tgan asrning o‘rtalaridayoq fikr bildira boshlashgan. Universitetlarda ilmiy izlanishlar imperator yoki hukumat buyurtmalari, keyinchalik xususiy kompaniyalar bilan o‘rnatilgan integratsion aloqalar natijasida shakllana boshlagan. Akademik erkinlik professorlarga buyurtmalarga muvofiq keladigan mavzularda ma’ruzalar o‘qish mkonini bergan, bu ma’ruzalar dekanatlar tomonidan nazorat qilingan. Yaponiya OTMlarida tarixiy-axloqiy an’analarga rioya etish, adob-axloq masalalariga katta e’tibor

[1] Qarang: unipage.net

berishadi. Talabalar darslarga qatnashmasada, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshirsa, kursdan kursga o‘tishi mumkin. Magistrlarning ilmiy ishlari professorlar tomonidan qattiq nazorat qilinadi, plagiatga yo‘l qo‘yilmaydi. Akademik erkinlik professor bilan talaba o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarda emas, balki ilmiy izlanishlarda bir-birini to‘ldirishdadir. Buni erkinlik deyish qiyin, biroq ilmiy izlanish, predmetlarni o‘zlashtirish har ikki tomonga ham mas’ullik yuklaydi, agar professor o‘z kasbi etikasidan kelib chiqib talabchan bo‘lsa, talabanni qayta va qayta qatnashga majbur etsa, bu oddiy hol hisoblanadi. Agar talaba magistrlik dissertatsiyasini talablarga muvofiq to‘la bajarmasa, u kursda qoldiriladi, ta’lim pullarini qaytadan to‘laydi. Yaponiya universitetlari professorlarini juda ardoqlaydi, ularning mustaqil izlanishlari uchun zarur barcha sharoitlarni yaratib beradi. Kasb-korlar ichida muallimlik eng yuqori, obro‘li va jamiyat e’zozlaydigan faoliyat turi hisoblanadi, shuning uchun ham muallimlar juda yuqori maosh oladilar. Yapon xalqining etnpedagogik tajribalarga itoat etishi, farzandlar tarbiyasi, ularni hayotga tayyorlash, bilimli qilish axloqiy qadriyatlar orqali ham o‘lchanadi. Yaponiya OTMlar g‘arb ta’lim modellarini o‘zlashtirgan va xalqaro ta’lim institutlarini yaratgan, global ta’lim tizimida yetakchi o‘rinlardan birini egallayotgan bo‘lsa-da, ularda ham jiddiy muammolar borligini ko‘rmaslik mumkin emas. Ta’limdagi yodlatish konservativ usuldir. Ammo Yaponiya undan voz kechgan emas, balki unga milliy, etnopedagogik tajribalarining o‘ziga xos, ijobiy tomoni sifatida karaydi. Yodlatish orqali o‘quvchiga kattaga, o‘qituvchiga itoat etish tamoyili singdiriladi. O‘quvchi istagan paytida darsdan chiqib ketish, istagan savolini berish, umumiy dars muhitini buzish, belgilangan predmetlardan imtihon va oraliqlar topshirishni o‘zboshimchalik bilan ko‘chirish, yoki istagan paytida akademik ta’til olish huquqlariga ega emas, bular etnopedagogik normalarni, qoidalar va tartibni buzish hisoblanadi. Ba’zan o‘quvchini darsga, predmetlar va tartibga o‘rgatish qattiq talablar, majburlash va kattalar tomonidan tazyiqlar ostida amalga oshiriladiki, shu sababli aksariyat yoshlarda ruhiy zo‘riqish, depressiv holatlar kuzatiladi. Bu borada yapon ommaviy axborot vositalarida ko‘p yozilmoqda.

Demak, g‘arb ta’lim modellarini tadbiq etish bilan OTMlar faoliyatida keskin ijobiy o‘zgarishlar ro‘y beradi, degan tor, bir

yoqlama xulosaga kelmaslik kerak. G‘arb ta’lim tizimi shaxsning ma’naviy-ruhiy holatlarini, real qiziqish va hayotiy intilishlarini, ayniqsa, etnopedagogik tajribalarni hisobga olavermaydi, balki, aksincha, ularni axborot-texnologik usullar orqali o‘ziga bo‘ysundirishga, natijada g‘arb ta’lim modelini total boshqarish vositasiga aylantirishga intiladi.U, shubhasiz, etnopedagogik tajribalar qarshiligiga duch keladi, bu o‘rinda g‘oyaviy to‘qnashuvlar muqarrardir. Etnopedagogik tajribalarning taqdiri shu mamlakatdagi pedagogik siyosat, hukumatning g‘arb ta’lim modellariga munosabatlari, global ta’lim jarayonlarini va ulardagi siljishlarni anglashiga bog‘liqdir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, Osiyo davlatlari OTMlaridagi modernizatsiya g‘arb ta’lim modellarini tatbiq etish, ularni milliy ta’limga joriy qilib, xalqaro reytingda yuqori ko‘rsatkichlarni egallashga qaratilgan, ularda tarbiyaning eng muhim qismi bo‘lgan o‘quvchi (ob’ekt)ning ma’naviy-ruhiy holati, axloqiy imperativlar ustuvorligi va etnopedagogik tajribalar hisobga olinavermaydi. Ta’lim-tarbiyada modernizatsiya yoki unga chet el modellarini joriy etish o‘quvchida ichki ziddiyatlarga to‘la, bir tomondan, etnopedagogik tajribalarga, tartiblarga bo‘ysunish, ikkinchi tomondan, g‘arb ta’lim modellarni o‘zlashtirishdek jarayondir. Global ta’limda ushbu ikki tomon uyg‘un kelmoqda.

Yevroosiyo hududida RF nafaqat jug‘rofiy, shuningdek, etnodemografik va etnopedagogik o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Undagi intellektual kuchlar, ilmiy-texnik yangiliklarga intilish va zamonaviy bilimlarni egallashga bo‘lgan qiziqish ta’lim tizimini rang-barang va global ta’lim talablariga javob beradigan darajada muvaffaqiyatli qilgan. Shuning uchun mavzumiz doirasida ushbu etnopedagogik tajribalarni o‘rganish tadqiqotimiz doirasini, obyektini kengaytiradi va mavjud muammolarni chuqurroq bilib olishga yordamlashadi.

Akademik erkinlik masalasi Rossiyada XVIII asrdan beri muhokama qilinadi. 1755-yili tashkil qilingan (1940-yili M.V.Lomonosov nomi berilgan) Moskva universiteti professor va talabalar o‘rtasidagi “o‘zaro teng” munosabatlarni o‘rnatishga intilgan. Kafedralarda tashkil etilgan turli ilmiy va ijodiy to‘garaklar, uyushmalar, o‘zini-o‘zi boshqarish tamoyillariga asoslangan ilmiy guruhlar mamlakat hayotiga oid iqtisodiy, siyosiy va ilmiy masalalarni

ham muhokama qilgan, bu borada turli bahslar, tortushuvlar va dialoglarni uyushtirgan. Ushbu dialog va uyushmalarda “erkinlikka oda” (A.S.Pushkin va M.Y. Lermontov she’rlari) ruhi sezilib turgan[39]. Hatto tarixiy manbalarning xabar berishicha, universitet ilmiy kengashlarida ilmiy tadqiqotlarni ochiq muhokama qilish, professor ilmiy unvonlari berish, iqtidorli talabalarni ilmiy ishlarga jalb etish uchun maxsus tashkiliy-ilmiy komissiyalar tuzish zarurligi ta’kidlanib borilgan[67]. Mohiyatan ushbu tajribalar akademik erkinlikka oid masalalar edi. Ammo universitet avtonomiya mavqeini 1804-yili olgan, Nikolay I davrida esa u bekor qilingan. Sovetlar davrida universitetga davlat maqomi berilib, uning ilmiy izlanishlari, ma’naviy tarbiya ishlari kommunistik ideologiya tazyiqi ostida bo‘lgan[1]. RF Konstitutsiyasi (44-modda) va Parlamenti tomonidan qabul qilingan “Oliy va oliy ta’limdan keyingi professional ta’lim haqida”gi qonun (1996)da universitetlarga akademik erkinlik berish kafolatlangan.

Rossiyalik olimlarning fikricha, “akademik erkinlik” inson huquq va erkinlklar kabi aniq tushuncha emas. Xalqaro huquqda Magna Charta Universitatum degan tushunchadan boshqa narsa, ta’rif uchramaydi. Olimlar ularga aniq ta’rif berishga intilishsa-da, hanuzgacha bu muammoligacha qolmoqda. Shuning uchun ilmiy izlanishlarda ikki-klassik (mumtoz) model va aktivistik (faolliylik) modeli mavjudligi ta’kidlanadi. Birinchisiga universitetning ichki ishlariga xos bo‘lgan ilmiy izlanishlar va darslar o‘tish jarayonlaridagi erkinlik kiritiladi. Bu erkinlik universitet ilmiy izlanishlariga, ilmiy jamoasi va dars o‘tish jarayonlarga tashqi tazyiqni rad etadi, professorlarning mustaqil izlanishlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu model ilmiy izlanishlar mavzularini, professuraning qanday ilmiy muammolar ustida ish olib borayotganini, darslar jarayonlarini, chop etiladigan ma’ruzalar matni, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarni universitetning o‘z ilmiy kengashi belgilashi lozim, degan yondashuvni ilgari suradi. Ikkinchi model esa professor-o‘qutuvchilar va talabalarning faol izlanishlarini, universitet doirasidan chiqib, ijtimoiy hayot muammolariga aralashishini nazarda tutadi. Bunday aralashish ta’limni real hayotiy muammolar bilan bog‘lash imkonini

[1] Qarang: Академичесие свободы. Википедия свободной энциклопедии

beradi va talabalarni sotsial mobil, harakatchan, faol qiladi, degan konsepsiyaga tayanadi[34].

Bozor iqtislodiyotiga o‘tish oliy ta’lim tizimini ham qayta qurishni taqozo etdi. Y.I.Kuzminov va M.M.Yudkevichning ta’kidlashicha, bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan Rossiya oliy ta’lim tizimini moliyaviy ta’minlashning “tizimli tartibi” buzildi, bu qator salbiy jarayonlarni keltirib chiqardi. Past maosh oladigan o‘qituvchilar ta’lim jarayonidan uzoqlashdi, qo‘shimcha ish va daromad topishga majbur bo‘lishdi. Inson kapitaliga bo‘lgan e’tiborning kamayishi, unga beriladigan mablag‘larning qisqarishi natijasida ommaviy ta’lim, shu jumlardan, oliy ta’lim ham o‘z qalrini yo‘qotdi. Universitetlar va ta’lim sohasiga kirib kelgan yangi o‘qituvchilar esa talabalar, ular shaxsini shakllantirish bilan umuman shug‘ullanmay qo‘ydi, universitetdagi ijodiy muhitni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashdan yiroq. “Natijada universitet madaniyatining asosi transformatsiyalashdi”. Ichki ijodiy motivatsiyaning susayishi bilan ma’muriy vositalar ishga tushdi, har bir izlanish, qadam qattiq nazorat qilinadigan bo‘ldi, universitetlarda mutlaq boshqa munosabatlar shakllandi. Bu munosabatlar mohiyatan shaxsni tarbiyalashdan uzoqdir”[51]. “Oliy va oliy ta’limdan keyingi professional ta’lim haqida”gi qonunga ko‘ra, akademik erkinlik:

1) pedagogning o‘quv darsini o‘z xohishiga muvofiq tashkil etishi;

2) ilmiy tadqiqot ishlari mavzularini erkin tanlashi va unga muvofiq tadqiqot usullarini qo‘llashi;

3) talabalarning o‘z qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq bilimlar olishi tarzida belgilab berilgan[1].

## 2.3. Bo‘lajak pedagog kadrlar ongida akademik erkinlik g‘oyasini shakllantirishning shakl, metod va vositalari.

Mustaqillik yillarida o‘zbek etnopedagogikasida bir-biriga dialektik tomondan, tarixiy-pedagogik tajribalarga, o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy tarbiya usullariga tayanish asosida tarbiya jarayonini milliylashtirish, ikkinchi tomondan, xalqaro ilg‘or tajribalar, pedagogik g‘oyalar va modellarga tayanib, o‘zbek pedagogikasini yangi

[1]Российская Федерация. Федеральный закон. “О высшем и послевузовском образовании”. Принят Государственной Думой 19 июля 1996 года

yondashuvlar, metod va pedtexnologiyalar bilan boyitish, global ta'lim talablariga muvofiq tarbiyani internatsionallashtirish jarayoni ro'y berdi. O'zbek etnopedagogikasining ichki va tashqi omillar ta'sirida bunday paradigmal yangilanishi ob'ekti zaruriyat edi. Mazkur yangilanishning ilmiy pedagogik, milliy-tarbiyaviy, ma'naviy va tashkiliy-huquqiy masalalari Respublikamizning taniqli pedagog olimlari S.Rajabov, R.X.Jo'raev, B.Qodirov, M.Ochilov, O.X.Fayzullaev, R.Mavlonova, K.Hoshimov, Z. Mirtursunov, X.Xurramov, M.Mirqosimov, O.Musurmonova, K.Zaripov, S.Ochil, S.Hasanov, K.Qosimova, Sh.Otajanov, X.Ziyomuhamedov kabilarning ilmiy izlanishlarida yetarlicha ochib berilgan[52].

Ulardagi ilmiy-pedagogik qarashlar va tajribalarni tahlil qilish bizning vazifamizga kirmaydi, ammo aynan ular mustaqillik yillaridagi etnopedagogik meros va milliy tajribalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish, barkamol, jismoniy ham aqliy yetuk avlodni shakllantirishning innovatsion sotsiodidaktik va ontogenetik asoslarini o'rganishni o'zbek pedagogikasidan barqaror o'rin olishiga katta hissa qo'shganlar. Ularning ilmiy sa'y-harakatlari tufayli milliy tarbiya va etnopedagogik tajribalardan foydalanish barkamol avlodni shakllantirishning eng samarali usullari ekani haqidagi fikr paradigmal g'oya sifatida o'zbek pedagogikasidan mustahkam joy oldi. O'sha paytlarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"(1997) va Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi (1997)ni qabul qilishda ham ushbu paradigmal g'oyaga tayanilgan. Shu bilan birga, mutaxassislarning tahliliga ko'ra, o'sha paytlardagi oliy ta'lim muassasasiga o'qituvchilarni qabul qilishning mavjud tizimi samarasiz edi, ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarini, ayniqsa filiallarni sifatli ilmiy pedagog kadrlar bilan ta'minlashga yarasha intellektual zahira mavjud bo'lmagan, uchinchidan, ilmiy pedagogik kadrlarni konsentratsiyalashning yo'qligi innovatsion ilmni rivojlantirishga imkon bermagan; to'rtinchidan, OTMlarning moddiy texnika bazasi, shu jumladan, laborotoriyalar va tegishli mutaxassislikdagi o'qituvchilari bor-yo'qligi, yetar-yetmasligi inobatga olinmay, deyarli barcha oliygohlarda turli ta'lim yo'nalishlar bo'yicha mutaxassis tayyorlashga ruxsat berilgan; beshinchidan, maktab bitiruvchilarining sifat ko'rsatkichi yuqori emas, hatto davlat oliy ta'lim muassasalari ham talab darajasiga chiqmagan; oltinchidan,

OTMlardagi ta'lim yo'nalishlari, maqbullashtirish nuqtai nazaridan, xatlovdan o'tkazilmagan. Bularning barchasi "xususiy oliy ta'lim muassasalarini ko'paytirishga shoshmaslik kerak. Bunga biror-bir nuqtai nazardan ehtiyoj ham yo'q", degan xulosaga olib keladi[109]. Samarqand davlat universiteti rektori, professor, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oly Majlis Senati a'zosi R.Xolmurodovning ushbu fikrlari bilan bahslashish mumkin, biroq ularda OTMlar faoliyatini tanqidiy baholash orqali faoliyatini samarali qilish maqsadi mavjud. Masalan, biz aholimiz savodxonligining 96 foizdan yuqoriligini xalqaro ekspertlar tan olishidan faxrlanib, OTMlar moddiy texnika bazasini, zamonaviy laborotoriyalar bilan boyitish zarurligini, o'qitiladigan fanlarni xatlov qilib, kasb- korga oid bo'lmagan predmetlarni qisqartirish zarurligini esga olmadik. Natijada barcha OTMlar o'quv jarayonlariga milliy g'oya, ma'naviyat, Prezident asarlari va ma'ruzalariga oid predmetlarni tiqishtiraverdik. Hatto har yili "Ma'naviyat" nashriyoti tomonidan Prezident asarlari yoki chiqishlariga oid maxsus o'quv qo'llanmalari, ma'ruzalar matni chop etilgan, vaholanki, kasb-korga oid eng muhim darsliklarni chop etish esa orqaga surib kelinavergan. O'sha paytdagi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi o'quv metodik adabiyotlarni chop etish bo'limida darsliklar va o'quv qo'llanmalari qo'lyozmalari, navbat kutib, qalashib yotgan. OTMlarga kiruvchilar soni oshib borayotgan bo'lsa-da, yoshlarning, mamlakatning oliy malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olinavermagan, qabul kvotasi 6-7% atrofida qolavergan. OTMlardagi darslar davlat tomonidan o'rnatilgan qat'iy talablar doirasida olib borilgan, o'qituvchi-professorlarning chet el universitetlari grantlarida ishtirok etishi yoki ulardan mutaxassislar chaqirishi qattiq nazorat ostida edi. Nafaqadagi professorlarni esa OTMlardan siqib chiqarish uchun turli bahonalar, taqiqlar o'ylab topilgan. Lekin globallashuv va iqtisodiy integratsiya, zamonaviy kadrlarga va ta'limga bo'lgan yuqori ehtiyoj o'rnatilgan xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida O'zbekiston bilan hamkorlikda yangi OTMlar ochishga undadi. Ana shunday oliy o'quv yurtlaridan biri Koreya va O'zbekiston oliy ta'limining hamkorlik ramzi bo'lgan, 2014-yil ochilgan INHA universitetidir.

Toshkent shahrida ochilgan Koreyaning INHA universiteti O'zbekistonda IT mutaxassisligi uchun oliy ma'lumotli kadrlar

tayyorlashni amalga oshiradi. Raqamli texnologiyalar bo‘yicha kadrlar tayyorlovchi mazkur oliy ta’lim o‘chog‘ida “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash markazi” MChJ, TIER 2 standarti bo‘yicha data markazi, xosting va kolokatsiya xizmatlari ko‘rsatish bilimlari, Toshkent shahrida INHA universiteti inkubatsiya markazi, Co learning-iqtidorli talabalar bilan ishlash markazi, muhandislik laborotoriyalari, xalqaro talablar darajasidagi innovatsionn muhandislik markazlari, ya’ni ORACLE, SAP, CISCO, AKFA, ARTEL, PSB, BANK tashkil etilgan. IT ta’lim dinamikasi yildan-yilga oshish xususiyatiga ega. Manbalarda keltirilishicha, O‘zbekistonda IT markazlar 2019-yili atigi 8 tani takshkil qilgan bo‘lsa, bugun ular soni 205 tadan ziyod. Kelgusida ular sonining yanada oshishi bashorat qilinmoqda. Talab yuqori bo‘lgan kasblar sohasida IT xodimlari savdo xodimlaridan(14,7%) keyingi ikkinchi o‘rinda (12,1%) turadi[97]. Butun dunyo bo‘ylab 53 milliondan ortiq talaba va 1,7 millionga yaqin o‘qituvchilar informatika fanini o‘qitishda foydalanishadi. Biznes jarayonlari audsoringi (VRO) axborot texnologiyalar sohasida katta eksport salohiyatiga ega bo‘lib, uning jahon bozoridagi jamlamasi 3,5 trillion AQSh dollarin tashkil etadi. O‘zbekiston ushbu bozorda o‘z o‘rnini egallash uchun IT parklarda VRO tayyorlov maktablarini ochmoqda[130]. Shu bilan birga mutaxassislarning qayd etishicha, O‘zbekistonda IT kadrlar yetishmaydi, keyingi yillarda ham shunday kadrlarga qaramlik oshadi. Buning uchun esa sifatli onlayn ta’limini rivojlantirish va Coursera, Skillbox, Udemy kabi xalqaro sinovlardan o‘tgan ta’lim platformalarini joriy etish lozim. Ikkinchidan, IT ta’limning o‘zbek tilidagi kontentini yaratish muhim. Bu esa ingliz tilini o‘rganishda murakkabliklarga duch kelayotgan o‘zbek yoshlarini ilg‘or innovatsion ta’lim tizimiga kirishini osonlashtiradi[99].

2019-yil 9-oktabrda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni e’lon qilindi. Ushbu konseptual hujjatda oliy ta’lim sohasida davlat xususiy sherikchilikni rivojlantirish, hududlarni yuksaltirish maqsadida OTM filiallarini tashkil etish, shu tariqa OTMlar qamrovini 50 %gacha ko‘tarish, O‘zbekiston OTMlarining xalqaro reytingini oshirish uchun turli ilg‘or xorijiy ta’lim usullarini, pedtexnologiyalari, menejment va

marketingini joriy etishga oid zarur 70 dan ortiq maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan[131]. Ulardan biri oliy ta’lim tizimini ishlab chiqarish, amaliyot va biznes talablari bilan bog‘lashdir. Jahon tajribalari ko‘rsatadiki, aynan ushbu uyg‘unlik OTMlarni yetakchi ilmiy dargohlarga, ularda akademik erkinlik va moliyaviy mustaqillik ta’minlangan muassasalarga aylantirgan. Masalan, AQShning Kent Universiteti Fulbrayt dasturi tadqiqotchisi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O.Nayimovning keltirishicha, oliy ta’limning biznes talablariga uyg‘unlashtirilishi uni “yetakchi tadqiqot va aqliy markazlarga aylantira oldi” Bunda bir qator omillar mavjudki, ular ilmiy tadqiqotning sifati va barqarorligini ta’minlab bermoqda. Bularga tom ma’nodagi akademik mustaqillik, tanqidiy fikrlash, so‘z erkinligi, universitet tashkiliy asoslarinning mustahkamligi, tadqiqotni munosib rag‘batlantirish, boy kutubxonalar hamda texnik salohiyatning yuksaligi kabi omillarni kiritish mumkin...Kafedrada faoliyat yuritayotgan olimning o‘quv yuklamalari judayam oz, 2 va 3 formulasi asosida, ya’ni birinchi semetrda 2, ikkinchi semetrda esa 3 para dars o‘tib beradi, xolos. Shu bois kafedra olimi o‘zining ko‘p vaqtini ilmiy tadqiqotga ajrata oladi. Tadqiqot universitetlarida olimlarning yetuk mutaxassis sifatida o‘sishi hamda yuqori ilmiy natijalarga erishishi u olib borayotgan tadqiqotning ko‘lami va sifatiga bog‘liqdir”[62]. Bundan tashqari, olimlarning izlanishlarini, faoliyatini baholashda nufuzli, sifati yuqori bo‘lgan jurnallarda chop etilgan maqolalar muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi jurnallar har bir maqolani ekspertlar taqrizidan o‘tkazadi, ularda ilgari surilayotgan ilmiy yangiliklarga e’tibor beradi. “AQShnng aksariyat tadqiqot jurnallari turli yo‘nalishlardagi tadqiqotlarni universitetlarning Institutsiyaviy Kuzatuv Kengashi (Institutional Review Board) tomonidan tekshiruvdan o‘tkazishni talab qiladiki, bunda tadqiqotning axloqiy va akademik me’yorlarga javob berishi, plagiatning bor-yo‘qligi kabi jihatlar o‘rganiladi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda AQSh Federal hukumati barcha universitetlarda Institutsiyaviy Kuzatuv Kengashlarining faoliyat yuritishini shart qilib qo‘yganligi e’tiborga molikdir”[62]. Bunday jamoaviy kengashlar Respublikamizda 2023-yil yanvaridan mustaqillikka o‘tkazilgan 36 ta OTMlarida ham tashkil etish boshlangan. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi

qonuni (2019-yil 29-oktabr), “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonun (2020-yil 24-iyul)lar normativ asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur hujjatlarda Respublikamizni innovatsion va industrial rivojlantirishda OTM va tadqiqot markazlari muhim o‘rin tutish ta’kidlangan holda, ular faoliyatiga ilg‘or davlatlar OTMlari tajribalarini joriy etish, ta’lim va tadqiqot jarayonlarini uyg‘unlashtirish, universitetlar mustaqilligini ta’minlagan holda, jamoaviy kengashlarni tashkil etish, ular faoliyati uchun zarur shart -sharoitlarni yaratib berish, universitetlardagi o‘quv tarbiyaviy ishlarni o‘sha kengashlarda hisobotini tinglash, bosqichma-bosqich universitetlarda ichki demokratiyani rivojlantirish masalalari qo‘yilgan. Agar ilgarilari ham shunday jamoaviy kengashlar vazifalarini ilmiy kengashlar bajargan bo‘lsa, endi gap universitetlarda ichki demokratik boshqarishni shakllantirish ustida ketayapti. Bu OTMlarimiz uchun paradigmal ahamiyatga ega vazifadir. Unda kelgusida OTM bo‘lim boshliqlari, dekanlar va rektor ham ochiq demokratik tarzda saylanishi mumkin. Chet ellardagi ayrim OTMlardagi jamoaviy kengash ana shunday vakolatlarga ega bo‘lib, ular har bir o‘qituvchi-professorning chiqishlariyu ma’ruzalarigacha kuzatib, ularning o‘z ustiga olgan vazifalarini bajarishini baholab boradi. O‘zbekiston Respublkasi Oliy Majlisining yuqoridagi qonunlari oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot ishlarini xalqaro standartlar darajasida tashkil etish orqali ularda moliyaviy mustaqillikni ta’minlash, intellektual saloxiyatni, potensialni harakatga keltirish, olimlarning ilmiy faolligini oshirish va iqtidorli talabalarni ilm-fandagi yutuqlarnini qo‘llab-quvvatlash kabilarni kun tartibiga vazifa qilib qo‘yadi. O‘zbekstonning innovatsion taraqqiyoti ilm-fan, ayniqsa yoshlarning akademik mobilligi, faolligi, ilmiy-texnikaviy bilimlarining darajasi va ularni real hayotga joriy etishga, tijoratlashtirishga bevosita bog‘liqdir. Ushbu vazifalarning ijtimoiy-tarbiyaviy va innovatsion ahamiyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2017-yil 7 fevral)dagi Qarori, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” (2020-yil 9-mart)dagi Farmoni ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari, mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasidagi vazifalardan biri oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash va xorijiy tajribalarga tayangan

holda OTMlarga kredit modul tizimini joriy etishdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning taklifi va tashabbusi bilan 2020-yili OTMlarning 10 tasiga akademik va moliyaviy erkinlik berildi. Hamda 5 ta OTMda xorijiy davlatlardagi mutaxasissislar ishtirokida transformatsiya sinovlari amalga oshirildi[9]. Prezidentimizning 2021-yil 24-dekabrda qabul qilgan "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori oliy ta'lim tizimida akademik erkinlikni barqaror voqelik sifatida idrok etish, uni ta'minlash, mavjud ilmiy intellektual kuchlardan, resurslardan samarali foydalanishga yo'l ochib berdi. Shu paytgacha turli davralarda aytib kelinayotgan akademik erkinlikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy bazasi yaratildi. Ushbu fundamental ahamiyatga ega tamoyilga xizmat qiladigan, OTMlarni modernizatsiyalashga oid 49 ta normativ hujjat ishlab chiqildi va ularni amaliyotga joriy etish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limidagi yana bir paradigmal o'zgarish xalqaro va nodavlat OTMlarining yuzaga kelganidadir. Bu o'rinda Toshkent xalqaro Vestminster universiteti va 2019-yili tashkil etilgan Qo'qon universitetini misol qilib keltirish mumkin. Vestminster universiteti O'zbekistonda ilk tashkil etilgan xalqaro oliy o'quv yurtidir. Ayni paytda unda iqtisodiyot, biznes, moliya, menejment, axborot tizimlari va tijorat huquqi yo'nalishlarda xalqaro talablarga javob beradigan oliy malakali mutaxassislar tayyorlanadi. Akademik erkinlikni ta'minlash borasida universitet turli xorijiy ta'lim muassasalari bilan ijodiy aloqalar o'rnatgan, ko'pgina o'qituvchi-professorlar xalqaro uyushmalar va forumlarning a'zosi bo'lib, milliy tajribamizni targ'ib etib keladi. Universitetda talabalarda akademik savodxonlik va faollikni shakllantirishga qaratilgan har yili "Yangi akademik iste'dod" tanlovi o'tkazib kelinadi. OTMning o'z 5 yillik rivojlanish rejasi mavjud, unda:

1) ilmiy tadqiqot madaniyatini shakllantirish va ilmiy salohiyatni oshirish;

2) ilmiy tadqiqotda innovatsiyalar va uni tijoratlashtirish;

3) ko'p tarmoqli va xalqaro hamkorlikdagi tadqiqotlarni rivojlantirish;

4) ilmiy tadqiqot sifati va raqobatbardoshligini oshirish[100] kabilar amalga oshiriladi.

Qo‘qon universitetning rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sh.Mustafoqulovning yozishicha, universitetda iqtisodiyot, moliya, menejment, mehmonxona va turizmni boshqarish, xorijiy til va adabiyoti, ingliz tili, boshlang‘ich ta’lim, kompyuter injeneringi, psixologiya yo‘nalishlarida xalqaro darajada ta’lim beriladi. Dunyoning eng nufuzli universitetlaridan professional akademik kadrlar jalb etilgan. Universitet Turkiy universitetlar ittifoqining a’zosi hisoblanadi, u Kareliya va JAMK universitetlari bilan qo‘shma dasturlar yaratmoqda. Universitet akademik mukammallikka intilib, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlamoqda[60].

Bugun Respublikamizda “Universitet 4.0” modeliga o‘tish amalga oshirilmoqda. Mazkur model oliy ta’limda paradigmal o‘zgarishlar yasashga yo‘naltirilgan. JDPUning ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori G‘.Qodirovning yozishicha, Universitet 4.0 oldingi Universitet 1.0 va Universitet 2.0. modellaridan keskin farq qiladi va ta’lim tizimini amaliyotga integratsiyasini ta’minlaydi. Universitet 4.0 modeli quyidagi xususiyatlarga ega:

-yangi avlodda zarur bo‘lgan zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi;

-sanoat kompaniyalari, investorlar, venchur fondlar, yirik korporatsiyalar, ilmiy tadqiqot tashkilotlarining universitetlar bilan o‘zaro rivojlangan hamkorligi;

-yuqori xalqaro reytinglar; eng yaxshi mutaxassislar, talabalar va ilmiy tadqiqot shartnomalari uchun faol tanlov (raqobat);

-globallashuv siyosati-o‘qitish ingliz tilida olib boriladi (ingliz tilida dars berish);

-asosan fanlararo ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish;

-universitet 1.0 modeliga nisbatan yaqinroq bo‘lgan turli xil o‘qituvchilar va talabalar tarkibi;

-davlat boshqaruvi va aralashuviga bog‘liqlikni kamaytirish;

-ixtirolar va bilimlardan foyda olish;

-texnologik tadbirkorlik (ilmiy bollik)ni joriy etish;

-kompaniyalar va ishlab chiqarish korxonalari, tajriba maydonlarini universitetlar hududida tashkil etish kabilardir[103].

Ko‘rinib turibdiki, Universitet 4.0 modeli bilim va g‘oyalarni tijoratlashtirish orqali ta’lim jarayonini hayotga yaqinlashtiradi, ularning ijtimoiy taraqqiyotga real hissa qo‘shishini ta’minlaydi. Endi

OTMlarda olinadigan bilim va ko‘nikmalar, oldingidek nazariy mulohazalar bilan emas, balki amaliyot, hudud etnosotsial muammolarini hal etishga yordami bilan o‘lchanadigan bo‘ladi. Ilm-fan va ta’lim olish ham pragmatik faoliyat turiga aylanadi.

Akademik va moliyaviy mustaqillik OTMlarni darrov davlat homiyligidan, budjetdan qo‘llab-quvvatlashdan ozod qilolmaydi, bu tabiiy hol. Biz tashqi ilg‘or modellarni qanchalik keng tadbiq etmaylik hayotiy reallik, OTMlarni qo‘llab-quvvatlovchi biznes muhiti, zamonaviy ishlanmalarni sotib olishga qodir aholi, kompaniyalar va bozor shakllanmas ekan, ular shunchaki qog‘ozlarda qolib ketaveradi. Universitetlardagi ta’lim va tarbiya jarayonlarini faqat biznes nuqtai nazaridan baholash bir yoqlama yondashuvdir. Bizning fikrimizcha, hali universitetlarning to‘la ma’noda bozor iqtisodiyoti talablariga, innovatsion va industrial rivojlanish parametrlariga muvofiq faoliyat olib borishi shubhalidir. Shuning uchun davlat byujeti universitetlarni qo‘llab-quvvatlashda davom etishi zarur. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rahbari, akademik I.Abdurahmonovning keltirishicha, 2022-yilda ilm-fanni moliyalashtirishda xususiy sektorning ulushi 5 yil oldingi holat bilan solishtirganda qaryib 6 barobar oshgan. Ilgari 8 foizgina tarmoqlar ilm-fanni moliyalashtirar edi, hozir u 30-40 foizgacha ko‘tarildi. “Bu jahon tajribasida juda yaxshi ko‘rsatkich hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, ilm-fan va ta’limga ajratilayotgan mablag‘ning aksariyati baribir davlat hissasiga to‘g‘ri kelmoqda”[95]. Shu bilan birga, akademigimiz ilm-fan va ta’lim tizimini amaliyotga yaqinlashtirish, integratsiyalash borasidagi ilk tajribalarini ham keltiradi. Bu universitetlarning akademik va moliyaviy erkinligini ta’minlash usullaridan biridir. “Xususiy sektorni,-deydi I.Abdurahmonov, ilm-fan bilan shug‘ullanishga qiziqtira olmayotganimizning sababi-sifatli kadrlar taqchilligi. Rivojlanayotgan sanoatimizni boshqaruvchi kadrlar sifatli bo‘lsagina, ular ilm-fan va ta’limning qadrini bilgan holda, hech ikkilanmay mablag‘ni manzilli sarflay oladi. Tarmoq korxonalarini muayyan universitet yoki tadqiqot institutlariga majburan biriktirish bilan ish bitmaydi. Shu bois, biz endi tarmoqlarga birinchi qadamni o‘zimiz tashlamoqchimiz. Tarmoqlarda muhandislik maktablari tashkil qilib, unga talabalarni jalb qilamiz... Universitetlarda akademik bandlik darajasi oshishi kerak. Har br professor-o‘qituvchining o‘z brendiga

aylangan predmeti bo‘lishi kerak. Bu bo‘yicha ham tashkiliy islohotlar qilamiz. Shunda abituriyent falon universitetning mana bu yo‘nalishida, falon professorning qo‘lida o‘qiyman, degan orzular bilan o‘qishga kirishga tayyorlanadi... Universitetning o‘z brendi bo‘lishi zarur... Universitetlarimizning o‘z an’analarini shakllantirish kerak. Ular nafaqat bilim o‘chog‘i, balki tarbiya maskani ham bo‘lsin. Universitetlarda turli sohalarni qamrab olgan talabalar kengashlari, jamiyatlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi”[1]. Bu fikrning to‘g‘riligini respodentlarimizning universitetda ilmiy va innovatsion izlanishlarni, ularni tijoratlashtirishni kimlar olib borishi kerak, degan savolga bergan javoblari ham tasdiqlaydi(2-ilovaga qarang).

O‘qituvchi professorlarning 5% “Universitet”, 16 % “Universitet bo‘limlari”, 18% “Ilmiy markazlar”, 30% “Tadbirkorlar”, 31% “Maxsus korxonalar” deb javob bergan. Ularning fikricha mustaqil ilmiy izlanishlar va ishlanmalarni tijoratlash bilan maxsus tashkilotlar shug‘ullanishi kerak, universitet dars berishi zarur, degan fikrni bildiradilar.

Talaba magistrlarning javoblari ham shunga yaqin.

***2.3.1-chizma***

**Ularni kimlar olib borishi zarur deb xisoblaysiz?**







[1] “Ғоя ортидаги синоат”. Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазири, академик Иброҳим Абдураҳмоновнинг “Янги Ўзбекистон” ва “Правда Востока” газеталари бош муҳаррирларига берган интервьюси // “Янги Ўзбекистон”, 2023, 7 март

Agar ushbu javoblardan kelib chiqsak, ilmiy va innovatsion izlanishlar olib borish bilan maxsus markazlar, tashkilotlar va shaxslar shug'ullanishi zarur. Bu o'rinda ilmiy faoliyat alohida, darslar o'tish alohida, degan an'anaviy qarash ko'zga tashlanadi.

Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, ayrim bir mulohaza va fikrlarni bildirishimiz kerak.

Birinchidan, OTMlarni modernizatsiya qilish, ta'lim jarayonlarini ijtimoiy-hududiy taraqqiyot talablariga, biznes maqsadlariga qurish oson kechmaydi. OTMlar sonini ko'paytirish, tabiiy ravishda hududlarni ijtimoiy rivojlantirishga turtki beradi. Hududlar infratuzilmasi, ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosligi, demografik holati, mehnat resurslari, ishchi kuchlarining real holati, tadbirkorlik muhiti, u yoki bu ta'lim xizmatlariga bo'lgan talablar, keng, umumiy ma'noda--etnosotsial ehtiyojlar, aniqlanishi darkor. Bularsiz OTM navbatdagi, davlat budjetiga qaram, o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash imkoniyati yo'q, kadrlari zaif, ilmiy pedagogik kadrlari yetishmaydigan muassasaga aylanib qoladi. Hozirning o'zidayoq viloyatlardagi filiallarda malakali o'qituvchi-professorlar yetishmayotgani ko'zga tashlanadi. Natijada bu OTMlarda chiqayotgan kadrlar talablarga javob bermaydi, ularda zamonaviy bilimlar yetishmagani sababli hududlar rivojlanishiga ta'sir etolmaydi. Bu haqda akademik I.Abdurahmonovning yuqoridagi intervyusida ham gapirilgan. Shuning uchun ham, Samarqand davlat universiteti rektori, professor, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a'zosi R.Xolmurodovning "keyingi 4-5-yilda oliy ta'lim muassasalari soni haddan ziyod ko'paydi. Biroq hamma narsa me'yorida bo'lishi kerak, aks holda diplomli ishsizlar soni ko'payadi", degan ogohlantirishini eslash joizdir[97]. Yoshlarni bilim olishga qiziqtirish muhim vazifa, ammo ularni kelgusida o'z sohasi bo'yicha ish bilan ta'minlash ham dolzarb muammodir. Xalq xo'jaligining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoji bilan OTMlar o'rtasida katta tafovut saqlanib qolayotganin hisobga olsak, kelgusida "diplomli ishsiz"lar sonining keskin ortishini anglaymiz. Shu sababli xalq xo'jaligi bilan OTMlar o'rtasidasidagi tafovutni bartaraf etish uchun ularning o'zaro hamkorligini ta'minlash darkor. Bu o'rinda OTMlarning biznes, tadbirkorlar bilan hamkorligi muhim o'rin tutadi. Bu bir marotabalik moddiy yordam bo'lmasligi, balki izchil olib boriladigan hamkorlik bo'lishi lozim. Buni davlat, OTMlarni qo'llab-

quvvatlayotgan biznes, tadbirkorlik sub'ektlariga preferensiyalar, soliqlar to'lashda ma'lum bir yengilliklar berish tarzida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Hududiy OTMlarni akademik va moliyaviy erkinlik sharoitida ishlashga o'tkazish ma'lum bir pedagogik va tashkiliy tajriba-sinovlarni ham taqozo etadi. Bu tajriba-sinovlar ma'muriy boshqarishga emas, balki universitetda ichki demokratiyani rivojlantirish tamoyiliga asoslanishi darkor.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalarida, mutaxassislarning chiqishlarida onlayn ta'lim tufayli sirqi ta'limni rivojlantirish, bu esa, o'z navbatida oliy ta'limda innovatsion axborot texnologiyalaridan keng foydalanish imkonini berayotgani qayd etiladi. Onlayn yoki sirtqi ta'lim universitet imkoniyatini kengaytiradi, moliviy ahvolni yaxshilash imkonini beradi. Moliyaviy mustaqillik sharoitida bu juda qulay ta'lim usulidir. Chet mamlakatlarda bu ta'lim usulidan samarali foydalanishadi, hatto shunday bitiruvchilar uchraydiki, ular o'quv dargohini bir marta ham borib ko'rmagan, o'qituvchi-professorlar bilan faqat onlayn darslarda uchrashgan xolos. Bizda ham shunday ta'lim avj olish ehtimoli yo'q emas. Hatto hozirgi paytda ham kunduzgi ta'limdagi ayrim talabalar haftalab, oylab darsga qatnashmasada, "semestrni yaxshi yoki a'loga topshirishi"ni kuzatamiz. Agar onlayn ta'limi qonuniy o'z o'rnini topsa, OTMlar faoliyatining asosiy yo'nalishiga aylansa, yuqoridagi chet ellardagidek talabalar soni oshishi turgan gap. Buni tajribali professorlarimiz o'rinli tarzda tanqid ostiga olishmoqda. R.Xolmurodovning keltirishicha, Samarqand davlat universitetda "sirtqi va masofaviy ta'limdan voz kechayapmiz. Chunki bugun O'zbekistonda masofaviy ta'limni tashkil qilish uchun resurslar yetarli emas. Meni hayron qoldirayotgan eng katta masala bu-ayrim xususiy universitetlar joyi, o'qituvchisi bo'lmay turib, masofadan o'qitish uchun talabalarni qabul qilayotgani bo'ldi. Afsuski, ular ham 4 yildan keyin O'zbekiston nomidan diplom beradi. Tajribalarim asosida aytaman, ta'limda yangiliklar qilishga shoshilmaslik kerak. Buning uchun, avvalo, ta'lim madaniyatini shakllantirishimiz kerak. Birgina misol, bugun masofaviy ta'lim olishga, o'z ustida mustaqil ishlashga tayyor talaba bormi yoki masofaviy ta'limni sifatli olib borish layoqatiga ega professor - o'qituvchilar necha foizni tashkil qiladi?! Eng muhim masala-masofaviy ta'limni tashkil etish uchun texnologiyalarimiz yetarlimi?!

Vohalanki, ayni omillarning bittasi bo‘lmasa ham, ta’limda sifat ta’minlanmaydi”[97]. R.Xolmuradov kuyinib deydi: “Bugun bizga o‘rtamiyona ta’lim emas, geosiyosiy vaziyatlarda O‘zbekiston o‘zini mustaqil, erkin tutishi uchun aholining intellektual salohiyati yuqori bo‘lishi shart. Bir piyola asalni bir bochka suvga aralashtirsangiz, uning shirasi qoladimi? Albatta, yo‘q. Ta’lim ham shunday, bugun sifatga qo‘l siltab, son uchun ishlansa, ertaga buning natijasi jamiyat rivojida ham o‘z asoratlarini ko‘rsata boshlaydi. Natijada, biz yaxshi oliy ta’lim muassasalari bilan birga, malakali professor-o‘qituvchilarni ham boy beramiz. Bugun ular qo‘l bilan sanarli darajada kam[97]. Ha, R.Xolmuradovning gaplarida oliy ta’limdagi ma’muriy boshqarishga tegishli fikrlar mavjud, ammo ular shunchaki jurnalist yoki havaskorning mulohazalari emas. Avtokratizm davrida professorlarning mehnatiga yetarli e’tibor berilmadi. Hatto ular ta’limdan siqib chiqarildi. OAKning valyuntarizmi tufayli ilmiy kadrlar yetishtirishda cheksiz to‘siqlar yaratildi. Natijada bugun ularning soni juda kam, borlari ham zamonaviy talablar darajasida ishlashga ko‘nikmagan. Ularda zamonaviy pedtexnologiya usullaridan foydalanish, chet ellar bilan aloqalar o‘rnatish va chet el jurnallarida maqolalar chiqarish, o‘quv jarayonlarini amaliyot, biznes talablari bilan integratsiyalash, yangi ishlanmalarni tijoratlash kabilarda uquv yetishmaydi. Ushbu kamchiliklarni endi bartaraf etish, OTM tizimiga zamonaviy fikrlaydigan va tijoratlashtirish usullaridan xabardor olimlarni olib kirishimiz darkor. Har bir o‘qituvchi o‘z predmeti bo‘yicha moliyaviylashtirish manbalarini topishi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlash yo‘llarini qidirishi darkor. Akademik mobillik, faollik OTMning butun jamoasiga, nafaqat o‘qituvchi professorlarga, shuningdek, talaba yoshlarga ham taalluqli bo‘lishi zarur. Bu esa OTMni hudud etnosotsial muammolarini o‘rganib borishga, ularga ilmiy yechimlar topish uchun ham ilmiy, ham amaliy izlanishlar olib borishga undaydi.

Talaba-yoshlar ongida akademik erkinlik g‘oyasini shakllantirishdan dars jarayonida samarali foydalanish bo‘yicha uslubiy-didaktik tavsiyalardan namunalar ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi(2-ilovaga qarang).

**Bo‘lajak pedagog kadrlar ongida akademik erkinlik g‘oyasini shakllantirishning refleksiv texnologiyasi**

| **Bosqichlari** | **I daraja** | **II daraja** | **III daraja** | **IV daraja** |
|---|---|---|---|---|
| **1** | **2** | **3** | **4** | **5** |
| Bilim | Akademik erkinlikka tegishli bilimlarni o‘zlashtiradi, ularni biladi va eslab qoladi | Akademik erkinlik bilan bog‘liqlikda hodisalarning mohiyatini tushunadi va o‘zigi xos belgilarini tavsiflaydi | Nimani aks ettirishi bilan bog‘liqlikda bo‘lajak pedagoglar hayotida akademik erkinlikning namoyon bo‘lish qonuniyatlarini tushuntiradi | Akademik erkinlikni talabalar hayoti me’yori sifatida idrok etadi. Akademik erkinlikka yo‘nalganlikni faoliyatida mo‘ljalga oladi |
| **Metod va Usullari** | Reproduktiv obrazli suhbat, tugallanmagan gaplar metodikasi va boshqalar. | Bilimlar darajasi bilan bog‘liqlikda og‘zaki va yozma so‘rov, shartli-grafik ko‘rgazmali ish metodlari | Muammoli xarakterdagi suhbat, fikrlar shkalasi, o‘z-o‘zini baholash va boshqalar. | Loyihaviy faoliyat faoliyatda shaxsiy munosa-batning namoyon bo‘lishi va boshqalar. |
| Akademik erkinlik | Akademik erkinlikka qiziqish darajasini namoyon bo‘lishi. | Ijtimoiy ahamiyatli sifatida akademik erkinlikning mohiyatini qabul qilish. | Akademik erkinlikka shaxsiy munosabatlarni tahlil etish, shaxsiy hayot yo‘nalishini aniqlash. | Hayot tamoyili:men ana shu akademik erkinlik bilan bog‘liqlikda harakat qilaman. |
| **Metod va Usullari** | Akademik erkinlikka oid vaziyatlarni yaratish usullari. | Hayotiy vaziyatga doir tajribalarin tahlil qilish | O‘yinli vaziyat, modellashtirish, o‘quv loyihasi, ijtimoiy loyiha, kuzatish, o‘z-o‘zini baholash metodlari. | |
| Faoliyat Tajribasi | Mushohadali tajriba | Ilk tajriba | Adaptiv tajriba | Hayotda real aks etgan akademik erkinlikka oid bilim va ko‘nikmalar |
| **Metod va usullari** | Manbalar bilan ishlash, empirik suhbat. | Rolli vaziyat, o‘zaro bir-birini baholash metodi. | Muammoli xarakterdagi hujjatlar bilan ishlash. | Ijtimoiy loyiha, o‘quv jarayonini loyihalash. |

Texnologiya to‘rt qismdan iborat: nazariy-metodologik (talabalarda akademik erkinlik tushunchasini rivojlantirishning maqsad, vazifa, tamoyillari);

mazmunli (uchlik-bilim-akademik erkinlik-faoliyat tajribasida amalga oshiriluvchi bo‘lajak pedagog kadrlar ongida akademik erkinlik g‘oyasini shakllantirish tushunchasi mazmuni); protsessual (refleksiv metod va usullar asosida pedagog va talabaning faoliyati tizimi), baholovchi (ko‘rsatkichlar, darajalari, ularning muvaffaqiyati mezonlari).

Demak, bo‘lajak pedagog kadrlarda akademik erkinlik g‘oyasini shakllantirish va rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari, ularning tashkil qilinishi va o‘tkazilishi, kutilayotgan natijaning natijadorligini ta’minlashda dolzarb masaladir. Bu maqsadga erishishda yangicha yondashuv talab etiladi. Yuqorida bayon qilingan model asosida o‘qitishni tashkil etish, shakl metodlari va vositalari akademik erkinlik g‘oyasini talabalarda shakllantirishda muhimdir.

## Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa

Global ta’lim muhiti ta’lim tizimiga, uni tashkil etish va boshqarishga, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlariga, axborot texnologiyalarini va ilg‘or modellarni joriy etish usullariga ta’sir etmoqda. Global ta’lim AQSh va Yevropa ta’lim modellari ta’siri ostida shakllanayotgani sir emas, milliy universitetlarning xalqaro reyting orqali o‘zini baholayotgani, Bolonya tizimi, HEMIS, kredit modulga o‘tayotgani, IELTS, GMAT, GRE, TOEFL kabi turli xalqaro, ko‘pincha Yevropa standartlarini tadbiq qilayotgani buning isbotidir. Ammo etnopedagogik jarayonlarni o‘rganish ko‘rsatadiki, global ta’lim milliy tarbiyaviy tajribalarni rad etishi, ularni siqib chiqarishi mumkin emas, goho ta’limni modernzatsiyalashtirish deganda ana shu noxush holni nazarda tutishadi. Rivojlangan Osiyo davlatlaridagi etnotajribalar, ulardagi akademik va moliyaviy erkinlik universitetlarning samarali ishlashiga yordam berayotganini tasdiqlaydi. Davlat ularning mustaqilligini nafaqat kafolatlaydi, shu bilan birga, ularning bosh buyurtmachisi funksiyasini ham bajaradi. Demak, davlat ta’lim tizimiga buyurtmalari orqali ta’sir etadi va boshqaradi, akademik erkinlik esa universitetlarga erkin tarzda darslarni tashkil etish, kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish imkonini beradi. Bu esa universitet jamoasiga katta mas’uliyat

yuklaydi, OTMning mavqei, kelajagi, jamiyatdagi o‘rni, kadrlarning hayotdan o‘z o‘rnini topib ketishi, ilmiy ishlanmalari bilan xudud taraqqiyotga xizmat qilishi uning zimmasidadir. Etnopedagogik tajribalarni davom ettirish, ularni zamonaviy ta’lim jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish va shu tariqa jamiyat manfaatlariga xizmat qilish mustaqil OTMlarning xususiyatlariga va funksiyalariga aylanadi. Shu bilan birga chet el tajribalarida insonning ma’naviy-ruhiy, axloqiy xususiyatlari har doim ham hisobga olinaverilmasligini, bu hol ta’lim va tarbiya jarayonlarini murakkablashtirayotganini unutmaslik kerak. Ta’limni sun’iy tarzda murakkablashtirish, tabiat va hayotdan, insonning ma’naviy-ruhiy va axloqiy ehtiyojlaridan uzoqlashtirish inson shakllanishiga salbiy ta’sir etishini chet ellik pedagoglar, olimlar xam tasdiqlashadi. Demak, ta’limni modernizatsiyalash shiori ostida etnopedagogik tajribalarni siqib chiqarish  shaxs tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini unutib bo‘lmaydi. Rossiya universitetlariga joriy etilayotgan g‘arb ta’lim modellari, Bolonya tizimi etnopedagogik tajribalardan yiroqlashmaslik zarurligini isbotlamoqda. Shuning uchun ham keyingi ikki yil ichida, masalan, Rossiyada, ulardan voz kechib, etnopedagogik tajribalardan keng foydalanish siyosatiga o‘tildi. G‘arb o‘z tasavvurlari va ideallarini qabul qilmaydigan har qanday milliy davlatga tazyiq o‘tkazishdan qaytmaydi, u liberal demokratik g‘oyalar ostida o‘zining “mutlaq haq”ligini isbotlashga tayyor. Shunday murakkab vaziyatda xalqlar o‘zning tarixiy-madaniy va etnopedagogik tajribalariga murojaat etib, o‘zlarining mustaqilligini, taraqqiyotini ta’minlash yo‘lini tutishi tabiiy holdir.

Akademik erkinlik g‘oyasiga erishishdagi pedagogik texnologiyalarga muayyan talablar qo‘yiladi: talabalar o‘zlashtira oladigan yaxlit loyihalarga ta’lim mazmunining transformasiyalashuvini ta’minlash; o‘zida talabalarni muayyan faoliyatga yo‘naltirishning motivli va jarayonli jihatlarini mujassamlashtirish; loyihalashtirilayotgan faoliyatni jarayon sifatida tasavvur qilish; muayyan ta’lim sohasiga xos bo‘lgan topshiriqlar va ularni bajarish usullarini taqdim etish; o‘quv harakatlari va vaziyatlarining izchillikni ifodalovchi model sifatida tashkil etish; o‘quv jarayoni sub’yektlarining birgalikdagi harakatlarini aniqlash, uni loyihalashda sub’yektlarning funksiyalari, o‘quv-tarbiya vaziyatlarining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladigan axborot manbalari va kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish.

# III BOB. AKDEMIK ERKINLIK SHAROITIDA TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI

## 3.1. Akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida ta’lim mazmuni va texnologiyalarining tubdan yangilanishi, ilm-fan va jamiyat ehtiyojlarining murakkablashuvi ta’lim jarayonini faqat normativ-huquqiy tartibga solish orqali samarali tashkil etish imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda. Shu sababli pedagogik tadqiqotlarda alohida muhim o‘rin tutuvchi tushunchalardan biri sifatida “konsepsiya” kategoriyasiga murojaat qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Konsepsiya ta’lim jarayonini alohida elementlar yig‘indisi sifatida emas, balki maqsad, mazmun, mexanizm va natijalarning o‘zaro uzviy bog‘liqligida tushuntiruvchi nazariy model sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy holatini tahlil qilish natijalari shunday ko‘rsatadiki, talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda qo‘llanilayotgan an’anaviy yondashuvlar bugunning yoshlarini talablariga javob bermay qolmoqda. Amaldagi ta’lim dasturlarida ko‘pincha ilmiy tadqiqotchilik faoliyati deganda mustaqil ta’lim topshiriqlarini berish bilan cheklanib qolinmoqda, bu esa o‘z navbatida talabalarni bilimlarni tayyor shaklda qabul qiluvchi sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Biz esa talabalarni bilimlarni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki bilim yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladigan tizimni shakllantirishimiz kerak.

Ushbu muammoni hal qilish pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari va zamonaviy ta’lim muhitining ehtiyojlarini hisobga olgan holda akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qila oladigan, ilmiy asoslangan didaktik konsepsiyani ishlab chiqishni talab qilmoqda.

Akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi nafaqat ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish zaruratiga, balki raqamli savodxonlik,

akademik halollik, akademik etika, media ta'lim va axborot etikasi tamoyillarini har tomonlama anglashni rivojlantirish ehtiyojiga ham asoslanishi kerak bo'ladi. Unda ilmiy pozitsiyani erkin ifodalash, ilmiy munozara va bahslarda faol ishtirok etish, ilmiy axborot bilan ishlash, akademik yozuv va ilmiy muloqot madaniyatini shakllantirish hamda ilmiy tadqiqot muhitini yaratishda mentorlik tizimi, ilmiy maktablar va ilmiy hamjamiyatlar, konferensiya va grantlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu konsepsiyani tahlil qilar ekanmiz, uni muayyan faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan g'oyalar va rejalarning majmuasini o'zida mujassam etgan yaxlit tizim sifatida tavsiflashimiz mumkin bo'ladi. "Xorijiy terminlar lug'ati"da ushbu termin "qarashlar tizimi, hodisa va jarayonlarni ma'lum tarzda anglash; ilmiy asarning yagona, belgilovchi rejasi va yetakchi g'oyasi" sifatida izohlab o'tiladi.

Pedagogik adabiyotlarda konsepsiya muayyan hodisa yoki jarayonni tushuntiruvchi umumlashtirilgan g'oyalar tizimi sifatida talqin etiladi. Konsepsiya alohida metod yoki texnologiyadan farqli ravishda, ta'lim jarayonining strategik yo'nalishini belgilaydi, uning ichki mantiqini ochib beradi va amaliy faoliyat uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, konsepsiya pedagogik jarayonni boshqarish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan vositasi hisoblanadi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda konsepsiya odatda uch asosiy vazifani bajaradi:

-birinchidan, mavjud muammoli holatni tizimli tahlil qilish imkonini beradi;

-ikkinchidan, ushbu muammoni hal etishning nazariy yo'nalishini belgilaydi;

-uchinchidan esa, amaliy mexanizmlar va texnologiyalarni ishlab chiqish uchun metodologik asos yaratadi.

Shu boisdan konsepsiya pedagogik tadqiqotlarda mualliflik yondashuvining eng muhim ifodasi sifatida qaraladi.

Akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalasiga konseptual yondashuv zarurati, avvalo, mazkur jarayonning ko'p omililigi va murakkab tabiati bilan izohlanadi. Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati nafaqat individual qobiliyatlar, balki ta'lim muhiti, pedagogik yondashuvlar,

mentorlik tizimi, baholash mexanizmlari va akademik madaniyat bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu omillarni alohida-alohida o‘rganish ilmiy muammoning mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi, balki ularni yagona konseptual tizimda tahlil qilishni talab etadi.

Akademik erkinlik tushunchasi pedagogik nuqtai nazardan ta’lim jarayonining erkinlashuvi, subyektlar-aro munosabatlarning demokratlashuvi va ta’lim oluvchining faol pozitsiyasini ta’minlash bilan tavsiflanadi. Akademik erkinlik sharoitida talaba bilimlarni tayyor holda o‘zlashtiruvchi emas, balki ularni mustaqil ravishda izlovchi, tahlil qiluvchi va qayta yaratuvchi subyekt sifatida qaraladi. Shu sababli akademik erkinlik talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan muhim pedagogik shart sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq ilmiy adabiyotlar va amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, akademik erkinlikning mavjudligi o‘z-o‘zidan talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini tizimli rivojlantirishni kafolatlamaydi. Akademik erkinlik normativ jihatdan e’lon qilingan bo‘lsa-da, uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan holatlarda ilmiy faoliyat epizodik va fragmentar tusda qolib ketishi mumkin. Bu holat akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni konseptual darajada asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi akademik erkinlikni huquqiy yoki tashkiliy kategoriya sifatida emas, balki pedagogik jarayonning markaziy omili sifatida talqin etishga asoslanishi lozim. Bunda akademik erkinlik ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, mustaqil ta’lim, ilmiy rahbarlik va baholash tizimi bilan uzviy integratsiyada qaraladi. Aynan shunday integratsiya talabaning ilmiy subyekt sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Pedagogik konsepsiyaning muhim xususiyatlaridan biri uning rivojlantiruvchi xarakteridir. Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi talabaning mavjud bilim va ko‘nikmalarini emas, balki uning ilmiy salohiyatini, tadqiqotchilik kompetensiyalarini va akademik madaniyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bu jarayonda mustaqil ta’lim, loyiha va

muammo asosida o‘qitish, ilmiy muloqot va refleksiya muhim pedagogik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlillaridan ko‘rinadiki konsepsiya tushunchasi markaziy metodologik kategoriya hisoblanadi, chunki u muallif tomonidan o‘rganilayotgan hodisa mohiyatiga bo‘lgan qarashlari, uni tushuntirish va o‘zgartirish yo‘llarini tizimli ravishda ifoda etadi. Ushbu nuqtai nazardan, akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishda E.V.Yakovlevning pedagogik konsepsiya haqidagi metodologik qarashlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[1].

E.V.Yakovlev pedagogik konsepsiyani tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan, o‘rganilayotgan pedagogik hodisaning mohiyatini, tuzilishini va rivojlanish mexanizmlarini ochib beruvchi, nazariy jihatdan asoslangan, tizimli g‘oyalar majmui sifatida ochib beradi. Uning ta’kidlashicha, konsepsiya nafaqat ilmiy izlanishning natijasi, balki butun tadqiqot jarayonini yo‘naltiruvchi metodologik poydevor vazifasini bajaradi. Aynan shu jihat akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalasini konseptual darajada yoritish zaruratini asoslaydi.

Shuningdek, konsepsiya ta’lim va ilm-fan integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi zarur. Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘quv jarayoniga qo‘shimcha faoliyat sifatida emas, balki uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida tashkil etilishi talab etiladi. Konseptual yondashuv aynan ushbu integratsiyani nazariy jihatdan asoslab, uni amaliy mexanizmlar orqali ro‘yobga chiqarish imkonini beradi.

Demak, akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati, bir tomondan, mavjud normativ-huquqiy va institutsional imkoniyatlar, ikkinchi tomondan esa, amaliyotda kuzatilayotgan tizimlilik yetishmasligi bilan izohlanadi. Ushbu ziddiyatni bartaraf

---

[1] Яковлев Е.В. Педагогическая концепция: методологические аспекты построения/ Е.В. Яковлев, Н.О. Яковлева. — М.: Гуманитар. изд. Центр ВЛАДОС, 2006. — 239 с. Яковлев Е.В. Педагогическое исследование: содержание и представление результатов/ Е.В. Яковлев, Н.О. Яковлева.-Челябинск: Изд-во РБИУ, 2010.- 316с

etish faqat alohida metodik tavsiyalar orqali emas, balki puxta ishlab chiqilgan pedagogik konsepsiya orqali amalga oshirilishi mumkin.

Kontseptsiya o‘rganilayotgan muammoni har tomonlama va chuqur tahlil qilishni, uni hal qilish usullari va olingan natijalarning ahamiyatiga oid tadqiqotchining qarashlarini ko‘rsatishni nazarda tutadi. Tadqiqot davomida kontseptsiya o‘rganish obyekti va predmeti, tahliliy vosita yoki ilmiy tadqiqotning yakuniy natijasi sifatida xizmat qilishi mumkin[1].

E.V.Yakovlev yondashuviga ko‘ra, pedagogik konsepsiya quyidagi muhim xususiyatlar bilan tavsiflanadi: yaxlitlik, mantiqiy izchillik, ichki strukturaviylik, maqsad va natijalarning aniqligi, shuningdek, amaliyotga yo‘naltirilganlik. Mazkur xususiyatlar asosida ishlab chiqilgan akademik erkinlik konsepsiyasi talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini faqat tashkiliy yoki metodik jarayon sifatida emas, balki talabaning ilmiy subyektivligini shakllantiruvchi murakkab pedagogik hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

E.V.Yakovlev pedagogik tadqiqotlarda konsepsiyaning asosiy vazifasi ilmiy gipotezani nazariy jihatdan asoslash va tadqiqot jarayonining mantiqiy yo‘nalishini belgilashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu qoidaga tayanib, akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi talabaning ilmiy faoliyatdagi obyekt holatidan faol va mas’uliyatli ilmiy subyektga aylanish jarayonini tushuntiruvchi nazariy model sifatida ishlab chiqildi.

Mazkur konsepsiyada akademik erkinlik normativ-huquqiy sharoit sifatida emas, balki pedagogik resurs sifatida talqin etiladi. Yakovlevning konsepsiyani pedagogik hodisani o‘zgartirishga qaratilgan nazariy konstruksiya sifatida tushunishi ushbu yondashuvni ilmiy jihatdan asoslashga imkon beradi. Akademik erkinlik talabaning tadqiqot mavzusini tanlash, ilmiy metodologiyani belgilash, tadqiqot natijalarini talqin qilish va ilmiy muloqotda ishtirok etish jarayonlarida mustaqillikni ta’minlovchi omil sifatida qaraladi.

Shu asosda ishlab chiqilgan **ARISE** tipidagi ko‘p darajali konsepsiya Yakovlev tomonidan ta’kidlangan pedagogik konsepsiyaning tizimlilik va strukturaviylik talablariga to‘liq mos keladi.

[1] Сабитова Р.Г. Основы научных исследований: учеб. пособие / Р.Г. Сабитова. — Владивосток: Дальневосточный государственный университет, 2013.- 59 с.

Konsepsiyaning mazmuniy, tashkiliy, jarayoniy va baholash darajalariga ajratilishi talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich, mantiqan izchil va boshqariladigan pedagogik tizim sifatida amalga oshirish imkonini beradi.

E.V.Yakovlev konsepsiya pedagogik hodisaning rivojlanish mexanizmlarini ochib berishi zarurligini alohida qayd etadi. Mazkur tadqiqotda bunday mexanizm sifatida akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati oʻrtasidagi konvergentsiya jarayoni asos qilib olindi. Ya’ni, akademik erkinlik talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, uni mustaqil ilmiy izlanishga yoʻnaltiradi, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati esa ushbu erkinlikni mazmunan toʻldiruvchi va amaliy jihatdan roʻyobga chiqaruvchi vosita sifatida namoyon boʻladi.

Shunday qilib, E.V.Yakovlevning pedagogik konsepsiya haqidagi metodologik qarashlariga tayanib ishlab chiqilgan “Akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasi” talabaning ilmiy subyektivligini shakllantirishga qaratilgan, nazariy jihatdan asoslangan, tizimli va amaliy yoʻnaltirilgan pedagogik tizim sifatida tavsiflanadi.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan **ARISE (Academic Freedom - Research Content - Implementation - Support & Mentoring - Evaluation & Reflection)** didaktik konsepsiyasi akademik erkinlik sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish muammosini hal etishga qaratilgan mualliflik yondashuvini ifodalaydi. Mazkur konsepsiya talabaning ilmiy faoliyatini tashqi boshqariladigan jarayondan ichki motivatsiyalangan, refleksiv va mas’uliyatli ilmiy subyektivlik darajasiga olib chiqishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi.

Konsepsiya ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini koʻp komponentli pedagogik hodisa sifatida talqin qiladi va uning motivatsion-aksiologik, kognitiv-metodologik, faoliyat-amaliy hamda refleksiv jihatlarini yagona tizimda rivojlantirishni koʻzda tutadi. ARISE konsepsiyasi akademik erkinlikni normativ shart emas, balki pedagogik resurs sifatida qaraydi.

Konsepsiyaning markazida talaba ilmiy subyekt sifatida qaraladi. Ya’ni talaba bilimlarni tayyor holda oʻzlashtiruvchi passiv bajaruvchi emas, balki ilmiy muammolarni aniqlovchi, tadqiqot jarayonini

rejalashtiruvchi va ilmiy natijalar yaratuvchi faol subyekt sifatida ko‘riladi. Akademik erkinlik ushbu jarayonda talabaning ilmiy tashabbuskorligini, mustaqil fikrlashini va ijodiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlovchi muhim shart-sharoit vazifasini bajaradi.

Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, akademik erkinlik sharoitida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish ta’lim jarayonining erkinlashuvi, mustaqil ta’limning ilmiy izlanishlar bilan integratsiyasi hamda ilmiy rahbarlik va mentorlik tizimining faollashuvi orqali amalga oshiriladi. Bunda mustaqil ta’lim talabaning ilmiy faoliyatga kirish bosqichi sifatida qaralib, referativ topshiriqlardan real ilmiy muammo qo‘yish va tadqiqot olib borish bosqichiga o‘tishi nazarda tutiladi.

Konsepsiya quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi:

-akademik erkinlik va mas’uliyat uyg‘unligi;

- talabaning ilmiy subyektivligi va tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash;

- ta’lim va ilmiy tadqiqotlar integratsiyasi;

- mustaqil ta’limning tadqiqotga yo‘naltirilganligi;

- ilmiy rahbarlik va mentorlikning rivojlantirilgan modeli.

Ushbu konsepsiya amalga oshirilishi natijasida talabalarda barqaror tadqiqotchilik kompetensiyalari shakllanadi, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati epizodik va fragmentar xarakterdan tizimli va uzluksiz faoliyat darajasiga ko‘tariladi. Natijada akademik erkinlik oliy ta’lim tizimida talabalarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish va ilm-fan hamda jamiyat ehtiyojlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlovchi strategik omilga aylanadi.

## 3.2. Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini akademik erkinlik sharoitida rivojlantirishning transformatsion jihatlari.

Pedagogik tadqiqotlarda transformatsiya-ta’lim jarayoni mazmuni, subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar, faoliyat mexanizmlari va natijalarining sifat jihatidan yangilanishi sifatida qaraladi[1].

Transformatsion jihatlar deganda asosan:

[1] Novikov A. M. *Методология образования*. - Изд. 2-е, переработанное и дополненное. — Москва: Эгвес, 2006. — 488 с.

-mazmuniy o‘zgarishlar;
-metodologik o‘zgarishlar;
-rol va pozitsiyaning o‘zgarishi;
-motivatsiya va qadriyatlarning o‘zgarishi;
-natijalarning o‘zgarishi nazarda tutilgan.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati nafaqat kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi, balki shaxsning intellektual, ijodiy va refleksiv rivojlanishini ta’minlovchi strategik pedagogik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim jarayonida akademik erkinlikning kengayishi esa mazkur faoliyatning mazmuni, tashkil etilish shakllari va natijalarida chuqur transformatsion o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Akademik erkinlik sharoitida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati an’anaviy reproduktiv modeldan voz kechib, talabaning mustaqil ilmiy subyekt sifatida shakllanishiga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik jarayonga aylanib bormoqda.

Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining akademik erkinlik sharoitida transfarmatsion rivojlanishini ta’minlovchi ilg‘or xorijiy ta’lim modellari o‘zlashtirilmoqda. Harvard Universitiyning Harvard College Research Program (HCRP) dasturi, Massachusetts Institute of Technology univeritetining UROP (Undergraduate Research Opportunities Program) dasturi, University of Cambridge universitetining Research Supervision tizimi kabi dasturlar shular jumlasidan hisoblanadi. Ushbu dasturlar bilan qisqacha quyidagi 3.2.1-jadvalda tanishib olish mumkin bo‘ladi.

***3.2.1-jadval***

***Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining transformatsion komponentlarini qo‘llab-quvvatlovchi xorijiy ta’lim modellari***

| *Model yoki dastur* | *Universitet nomi / Mamlakat* | *Qisqacha tavsifi* |
|---|---|---|
| **Harvard College Research Program (HCRP)** | Harvard University / AQSh | Bakalavriat talabalarini mustaqil ilmiy tadqiqotlarga jalb etish dasturi. Talabalar ilmiy grantlar, stipendiyalar va mentorlik asosida ilmiy loyihalarda ishtirok etadilar. |
| **UROP (Undergraduate** | Massachusetts Institute of | Talabalarni professorlar rahbarligida laboratoriya |

| | | |
|---|---|---|
| **Research Opportunities Program)** | Technology / AQSh | tadqiqotlariga jalb qiluvchi model. Talabalar real ilmiy loyihalarda qatnashib, tadqiqot tajribasini egallaydilar. |
| **Stanford Undergraduate Research Programs** | Stanford University / AQSh | Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar majmuasi. Talabalar grantlar, yozgi tadqiqot dasturlari va ilmiy laboratoriyalarda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. |
| **Research Supervision tizimi** | University of Cambridge / Buyuk Britaniya | Talaba va ilmiy rahbar o‘rtasidagi individual mentorlik tizimi. Talabalar ilmiy muammolarni ilmiy rahbar bilan muntazam muhokama qilish orqali tadqiqot olib boradilar. |
| **Connected Curriculum** | University College London, Buyuk Britaniya | Ta’lim jarayonini ilmiy tadqiqot bilan integratsiya qiluvchi model. Talabalar o‘quv kurslari doirasida tadqiqot savollarini ishlab chiqadilar va ilmiy metodlarni qo‘llaydilar. |
| **Student Research Opportunities Programme** | Technical University of Munich / Germaniya | Talabalarni ilmiy laboratoriyalar va tadqiqot guruhlariga jalb qilishga qaratilgan model. Talabalar professorlar bilan birgalikda ilmiy loyihalarda ishlaydilar. |
| **Student Research Project modeli** | Delft University of Technology / Niderlandiya | Talabalar kichik ilmiy guruhlar tarkibida tadqiqot olib boradigan loyiha asosidagi ilmiy faoliyat modeli. |
| **URECA (Undergraduate Research Experience on Campus)** | Nanyang Technological University / Singapur | Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan dastur. Talabalar ilmiy loyihalar va innovatsion tadqiqotlarda faol qatnashadilar. |
| **UROP (Undergraduate Research** | National University of Singapore / | Talabalarni professorlar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot olib borishga jalb qiluvchi dastur. |

| | | |
|---|---|---|
| **Opportunities Programme)** | Singapur | |
| **Startup & Innovation Lab modeli** | KAIST / Janubiy Koreya | Talabalarning ilmiy g‘oyalarini innovatsion startap loyihalarga aylantirishga qaratilgan ilmiy laboratoriya va texnopark tizimi. |

Keling endi talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning transfarmatsion komponentlarini 3.2.1-jadvalda keltirilgan xorijiy ta’lim modellari vositasida ko‘rib chiqsak va ularni afzalliklari, qo‘llanish bosqichlari, kutiladigan natija, pedagogik risklar va muammolarini tahlil qilsak. Eng avvala talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning transformatsion komponentlarini ajratib olsak, undan keyin batafsil tahlil qilsak: (3.2.1-rasm)

**Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning transfarmatsion komponentlari:**

1. **Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati mazmunining transformatsiyasi;**
2. **Talabaning ilmiy subyekt sifatida shakllanishi;**
3. **Ilmiy faoliyatni tashkil etish shakllarining transformatsiyasi;**
4. **Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining metodologik transformatsiyasi;**
5. **Motivatsion-aksiologik transformatsiya;**
6. **Pedagog rolining transformatsiyasi: nazoratchidan-mentorga;**
7. **Natijaviy transformatsiya: ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligining rivojlanishi;**

**3.2.1-rasm. Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning transformatsion komponentlari**

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati muammosi mazkur hodisaning turli jihatlariga bag‘ishlangan monografiyalar va ilmiy

maqolalarda o‘z rivojini topgan. 3.2.2-jadvalda ***“ilmiy maktab”*** tushunchasiga berilgan turli ta’riflar keltirilgan.

3.2.2-jadval

***“ilmiy maktab” tushunchasining fragmentar tahlili***

| ***Manba (muallif)*** | ***Asosiy belgilar va tavsiflar*** |
|---|---|
| Gipps, C. | Ilmiy maktab - turli ilmiy muassasalar va ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritishi mumkin bo‘lgan ilmiy-tadqiqot birlashmalaridir. Ular yetakchi rahbar boshchiligida alohida olimlar guruhining tadqiqotlarini muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega. |
| Hoyle, E. | Ilmiy maktab - talaba-tadqiqotchi bilan global ilmiy muhit o‘rtasida shakllanadigan o‘ziga xos ilmiy-ijtimoiy bog‘liqlikdir. |
| McLutyre, D. | Ilmiy maktab o‘quv va tajriba almashuviga asoslangan learning community - ya’ni ijodiy hamkorlik va birgalikdagi ilmiy izlanishlar maydoni bo‘lishi lozim. |
| Elliotte, J. | Ilmiy maktabning markazida yetakchi shaxs turadi. U ilmiy natijalarni oldindan ko‘ra bilish, ularni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi, asosiy ilmiy g‘oyani ilgari suruvchi va maktab faoliyatini boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi kerak. |
| L. Brilev | Ilmiy maktab - jamiyat faoliyatining muhim yo‘nalishi bo‘lib, bilimlarni nazariy jihatdan anglash va ularni integratsiyalash orqali yaxlit ilmiy manzara yaratishga xizmat qiladi. |
| V. Gasimov | Ilmiy maktab - turli ilmiy daraja va maqomga ega olimlarni birlashtiruvchi, ixtisoslashgan va muvofiqlashtirilgan ilmiy hamjamiyat bo‘lib, u yetakchi rahbar boshchiligida faoliyat yuritadi. |
| M. Yaroshevskiy | Ilmiy maktab - bu ilmiy faoliyatga bag‘ishlanish, konseptual va metodologik apparatni chuqur egallash, shuningdek, fanning asosiy qadriyatlari va kategoriyalarini o‘zlashtirish jarayonidir. |
| A. Tsukerman | Ilmiy maktabning asosiy belgisi - ilmiy ideologiya bo‘lib, u yetakchi olimning ilmiy fikrlash uslubi va g‘oyaviy pozitsiyasi bilan belgilanadi. |
| K. Lange, S. Haitun | Mualliflar ilmiy maktablarning bir necha turlarini ajratadilar: klassik (universitet doirasida shakllangan |

| | |
|---|---|
| | fundamental ilmiy izlanishlar), intizomlararo, va muammoli ilmiy maktablar. Muammoli maktablar ko‘pincha mustaqil emas, balki ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida faoliyat yuritadi. |

Demak, ilmiy manbalar tahlilidan kelib chiqqan holda, ilmiy maktab - bu faqat olimlar guruhi emas, balki yetakchi shaxs atrofida shakllangan, metodologik birlikka ega, ilmiy an’ana va vorislikni ta’minlovchi, ijodiy hamkorlikka asoslangan murakkab ilmiy-pedagogik tizim desak adashmagan bo‘lamiz albatta.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy ilmiy-nazariy manbalar tahlili bizga quyidagi xulosani chiqarish imkonini beradi:

***ilmiy maktab*** **-** bu taniqli va ilg‘or olim rahbarligida tashkil etilgan ilmiy hamjamiyat bo‘lib, uning faoliyati yosh tadqiqotchilarda kasbiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga, ilmiy haqiqatning dolzarb muammolarini mustaqil hal eta oladigan mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, ilmiy maktab va uning rahbarining ilmiy hamda ijtimoiy e’tirof etilishi, shuningdek, Yevropa universitetlari bilan samarali hamkorlik aloqalarini rivojlantirish ham mazkur jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Albatta, ilmiy maktab o‘z faoliyatini faqatgina u ilmiy maktabga xos bo‘lgan natijalarni baholash va tan olish mezonlarini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina oqlashi mumkin. Bunda ilmiy maktab va uning shogirdlarining ilm-fan rivojiga ta’siri, erishilgan ilmiy natijalarning sifati, shuningdek, yosh tadqiqotchilar shaxsining individual xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois Yevropa universitetlari oldida quyidagi ustuvor vazifalar doimo dolzarb bo‘lib kelgan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan:

***birinchidan*** **-** bo‘lajak mutaxassislarni zamonaviy fan va texnika talablariga mos darajada tayyorlash, ularning kasbiy va ilmiy malakasini oshirish;

***ikkinchidan*** **-** iqtidorli, ijodkor, izlanishga moyil bo‘lgan talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etish.

Ma’lumki, ilmiy maktablar eng samarali tarzda universitet muhitida shakllanadi va rivojlanadi. Bu esa talabalarning o‘quv

faoliyatini ularning ilmiy hamda ijtimoiy faoliyati bilan integratsiyalash imkonini beradi. Universitetda ilmiy tadqiqot jarayonining maqsadga yo‘naltirilgan holda kechishi uchun talabalarni mustaqil ilmiy faoliyatga jalb etishga alohida e’tibor qaratish, ularning nazariy tayyorgarlik darajasini oshirish, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida ilmiy hamkorlik muhitini shakllantirish zarur. Bunday ilmiy hamkorlik talabalarda shaxsiy mas’uliyat hissini rivojlantirishga, shuningdek, professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘ziga xos ilmiy rahbarlik uslubini qaror toptirishga xizmat qiladi[123].

Ta’kidlash joizki, ilmiy maktablar doirasida ilmiy o‘z-o‘zini rivojlantirish shakllari turlicha bo‘lishi mumkin, jumladan:

-mutaxassislik doirasida belgilangan ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha maslahatchi rahbarligida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishi;

-taniqli olim-tadqiqotchilarning ilmiy yutuqlarini mustaqil o‘rganish;

-ilmiy-tadqiqot natijalari bilan ilmiy-amaliy konferensiyalar va simpoziumlarda ma’ruzalar bilan ishtirok etish.

Britaniyalik tadqiqotchilar O.Alexander, S.Argent va J.Spencer talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish jarayonida professor-o‘qituvchi (mentor) rolidagi o‘zgarishlarni ifodalovchi modelni taklif etganlar. Mazkur modelga ko‘ra, o‘qituvchining roli talabalarning ilmiy mustaqilligi ortib borishi bilan izchil ravishda transformatsiyalanadi. (3.2.1-rasm)

Mazkur model professor-o‘qituvchi rolini an’anaviy nazorat qiluvchi subyektdan talabaning ilmiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi mentor darajasigacha evolyutsion rivojlanishini asoslaydi. Ushbu yondashuv talabalarda mustaqil fikrlash, ilmiy mas’uliyat va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

---

[1] Бермус, А.Г. Управление качеством профессионально-педагогического становления будущих учителей / А.Г. Бермус. –Магнитогорск, 2002. – 408с.

[2] Гасимов, В. Б. Научная школа – феномен и исследовательская программа науковедения / В. Б. Гасимов // Школы в науке / под ред. С. Р. Микулинского, М. Г. Ярошевского, Г. Кребера, Г. Штейнера. – М. : Наука, 1977. – С. 119–153 .

[3] Роуг, В. Университет как явление средневековой культуры. Предисловие и вводная глава // Вестник высшей школы. 1991. № 7. С. 100- 106.

3.2.2-rasmga muvofiq, ilmiy maktab sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini egallash jarayonida o‘qituvchi-murabbiy rolidagi o‘zgarishning birinchi bosqichi o‘qituvchining ilmiy tadqiqotning barcha shakllari ustidan to‘liq nazoratni amalga oshirishi bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda o‘qituvchi-murabbiy talabaning ilmiy-tadqiqot faoliyatini bevosita boshqaradi, uni muvofiqlashtiradi hamda zarur ilmiy manbalar va materiallarni tanlab beradi.




